

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

ONA TILI

(morfologiya)

Ta'lim yo'nalishi – 5111700 – «Boshlang'ich ta'lim va sport - tarbiyaviy ish»

5111700– «Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish»
ta'lim yo'nalishi uchun

ANDIJON – 2013

Ushbu uslubiy qo'llanma O'zbekiston Davlat Standarti "Oliy ta'lim" 5111700 – "Boshlang'ich ta'lim va sport - tarbiyaviy ish" ta'lim yo'nalishiga oid bakalavrning tayyorgarlik darajasi va o'zlashtiradigan bilimlari mazmuniga zaruriy talablar hamda "Ona tili" fanidan namunaviy dastur asosida BTSTI ta'lim yo'nalishi uchun tuzilib, boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining 2010-yil 28-avgust kuni o'tgan 1 – yig'ilishida ma'qullangan.

Tuzuvchi:	katta. o'qit. Z. Jo'raboyeva
Taqrizchi:	f.f.n., dotsent O. Tojiev

Kirish

Universitetlarning BTSTI yo'nalishi uchun ona tili fani asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Ona tili o'qitishning asosiy vazifalari sifatida namunaviy dasturda quyidagilar belgilab qo'yilgan:

1. Tilshunoslikdan umumiy ma'lumot berish, ya'ni tilning kishilik jamiyatidagi ahamiyati, uning paydo bo'lishi, taraqqiyot qonunlari, til va tafakkur o'rtasidagi munosabat, dunyo tillarining tasnifi, tilning ichki qurilishi, umumiy va xususiy tilshunoslik, o'zbek adabiy tili va uning taraqqiyoti bosqichlari, hozirgi o'zbek adabiy tilining tarkibiy qismlari haqida ma'lumot berish.

2. O'zbek adabiy tili bo'limlariga oid mavzularni izchil bayon qilib borish jarayonida bilimlararo bog'lanish, ta'limning oldingi bosqichlarida (o'rta umumta'lim maktabi, liqey, pedagogika kollejlari... kabilarda) olingan bilimlarni hisobga olgan holda talabalarning til bilimini mustahkamlab borish va amaliy malaka hosil qilish, yangi nazariy bilimlar berish.

3. Har bir nazariy ma'lumotning amaliy (laboratoriya, mustaqil ish, mustaqil ta'lim) mashg'ulotlari uchun mavjud mashqlar majmuasini ishlab borish bilan birga mustaqil O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini hayotga tadbqiq eta borib, milliy qadriyatlar, an'analar, udumlarimiz va tariximiz, xalqimizning komil va oqil farzandlari hayoti, g'oyalari haqida (ma'lumot beruvchi) didaktik materiallar tayyorlashga jalb etish orqali bilimning mustahkamligiga va ta'lim-tarbiya birligiga erishish.

4. O'zbek tili uslublarini til bo'limlari mazmuniga singdirib (bog'lab) o'rgatish, grammatik (morfologik va sintaktik) sinonimlardan nutqda o'rinli foydalanishga o'rgatish.

5. Nutq madaniyatini o'stirish maqsadida og'zaki va yozma nutqni aniq, to'g'ri (adabiy talaffuz me'yorlariga rioya qilgan holda), maqsadga muvofiq savodli bayon qilish.

6. Mustaqil o'qib o'rganish va o'zlashtirish uchun ajratilgan mavzular yuzasidan umumiy nazariy materialni bayon qilish, shu bilan birga talabalarni qo'shimcha adabiyotlardan o'rinli, to'g'ri, unumli foydalanishga va maqsadga muvofiq holda shaxsiy fikr qilishlarini bayon etishga o'rgatish, shuningdek, yozma va og'zaki nutqning normativ grammatika (darslik) qamrab olmagan til va nutq hodisalarini kuzatish, tahlil qilish, nazariy umumlashmalar qilishga da'vat etib borish orqali talabalarni mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirib borish.

7. Talabalarning til bilimiga qiziqishlarini orttirish, ularning ona tili (hozirgi o'zbek tili) dan olgan bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, ayrim mavzular yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish, shu asosda ilmiy ma'ruzalar, bitiruv –malakaviy ishlar bajartirish.

8. O'qilayotgan mavzu mundarijasini boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish mundarijasi, hajmi bilan qiyoslab borish, bu bilan pedagogik amaliyot davrida o'z bilimlarining zarur qismidan amaliy foydalanish malakalarini rivojlantirish.

Mazkur ma'ruza matnida ona tilining morfologiya bo'limi yuzasidan ma'lumotlar berilgan.

Morfologiya bo'limi bo'yicha talabalar quyidagi ma'lumotlarni oladilar: so'zning grammatik ma'nosi va grammatik Shakli, grammatik kategoriyalar, so'zning morfologik tuzilishi, so'z turkumlari-mustaqil va yordamchi so'z turkumlari.

1- mavzu: GRAMMATIKA. SO'ZNING GRAMMATIK MA'NOSI VA GRAMMATIK SHAKLI. GRAMMATIK KATEGORIYA

Reja:

1. Grammatika va uning vazifasi.
2. So'zning leksik va grammatik ma'nolari.
3. So'zning grammatik shakli.
4. Grammatik kategoriya.

Tayanch tushunchalar: grammatika, morfologiya, sintaksis, grammatik ma'no, leksik ma'no, kategorial grammatik ma'no, xususiy grammatik ma'no, grammatik shakl, sintetik shakl, analitik shakl, nol ko'rsatkichli shakl, juft shakl, takroriy shakl, grammatik kategoriya.

1. Grammatika (*yun.grammatike-«yozish san'ati»*) so'z va gap qurilishi, gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi til fanining bo'limidir. «Grammatika» termini tilshunoslikda ikki ma'noda qo'llanadi. U, avvalo, til qurilishining tarkibiy qismi bo'lgan grammatik qurilishni anglatadi. Shu bilan birga grammatik qurilishga xos qonuniyatlarni ilmiy asosda o'rganadigan fanning nomini ham bildiradi.

Har bir til o'z grammatik qurilishiga ega. Grammatik qonuniyatlar maxsus ifoda vositalariga ega bo'lib, ular grammatik morfemalar, yordamchi so'zlar, intonatsiya, so'z tartibi kabi vositalar orqali ifodalanadi.

Grammatik vositalar yig'indisi, ularning o'zaro munosabati esa tilning grammatik qurilishini tashkil qiladi. Grammatika ikki qismga-morfologiya va sintaksisga bo'linadi.

Morfologiya (*gr.morhhe –«shakl», logos-«ta'limot»*) so'zlarning grammatik xususiyatlari haqidagi ta'limotdir. Morfologiyada so'zning o'zgarishi va shu o'zgarish bilan bog'liq bo'lgan ma'nolar, so'zning tuzilishi va tarkibi o'rganiladi. So'z turkumlari va ularning xususiyatlarini ham tekshirish morfologiyaning muhim vazifalaridandir.

Sintaksis (*gr. syntaxis-«tuzilish»*) gapning grammatik xususiyatlarini, gap qurilishi va turlarini tekshiradi.

Morfologiya va sintaksisning bir-biridan farqi shundaki, morfologiyaning tekshirish ob'ekti-so'z, sintaksisning tekshirish ob'ekti gap bo'lib, unda gap tuzilishi, so'z birliklari va so'zlarning bog'lanish yo'llari tahlil etiladi.

2. Ma'lumki, morfologiya bilan bir qatorda, leksikologiya ham so'zlarni tekshiradi, so'z morfologiyada ham, leksikologiyada ham asosiy tekshirish ob'ekti hisoblanadi. So'zning leksik ma'nolari yig'indisi uning leksik birlik ekanligini bildirsa, grammatik Shakllar yig'indisi va ular anglatgan grammatik ma'nolar so'zning grammatik birlik ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli so'zlar, bir tomondan leksikologiyada, ikkinchi tomondan morfologiyada tamoman boshqa-boshqa nuqtai nazardan o'rganiladi.

So'z kishi ongidagi, borliqdagi narsa, harakat, belgi va hodisalar haqidagi tushunchani bildiradi. Tushuncha esa borliqning kishi ongida aks etishi natijasida hosil bo'ladi. So'zning tushuncha anglatishi so'z leksik ma'nosining asosini tashkil etadi, leksik ma'no har bir so'zda alohida bo'ladi. Ammo, mustaqil so'zlar faqat birgina leksik ma'no anglatib qolmay, balki o'zaro bog'langan bir qancha qo'shimcha ma'nolarni ham anglatadi. Masalan, *binolar*, *talabalar*, *o'qidilar* kabi so'zlar, leksik ma'nodan tashqari, boshqacha ma'noni ham bildiradi. Bunday ma'no faqat bir so'z uchungina xos bo'lmay, balki so'zlar guruhi uchun umumiy bo'ladi. Masalan, *talaba* so'zi shaxsni, *o'qidilar* so'zi harakatni anglatadi. Bular – shu so'zlarning leksik ma'nosi. Bu so'zlardan qo'shimcha ma'no – ko'plik ma'nosi ham ifodalanadi. So'zlar guruhi uchun xos bo'lgan bunday umumiy ma'nolar grammatik ma'no deyiladi. Demak, har bir mustaqil so'zda ikki xil ma'no-leksik va grammatik ma'no o'zaro bog'langan holda ifodalanadi. Masalan, *o'quvchi*, *yozuvchi* kabi so'zlarda leksik ma'no shaxsni bildirsa, grammatik ma'nosi birlik son, bosh kelishikda ifodalanishidir.

So'zning leksik ma'nosi aniq yoki mavhum bo'lishi mumkin. Masalan, *kitob*, *gul*, *qalam* so'zlari aniq predmet ma'nosini anglatasa, *baxt*, *iqbol* *aql* kabi so'zlar mavhum ma'noga ega.

Grammatik ma'no, odatda, mavhum tushunchadan iborat bo'lib, so'zning leksik ma'nosiga qo'shimcha tarzda ifodalanadi, gap qurilishida so'zning vazifasi va o'rnini belgilaydi.

Masalan, kelishik shakllari otning boshqa so'zlar bilan sintaktik aloqasini ko'rsatadi, uning gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifasida kelishini ta'minlaydi.

Grammatik ma'nolar o'z xususiyatiga qarab ikkiga bo'linadi:

1) Kategorial grammatik ma'no.

2) Xususiy grammatik ma'no.

1) So'zning kategorial ma'nosi ma'lum so'z turkumlari uchun xos umumiy grammatik ma'nolardan iborat. Masalan, otning «predmetlik» ma'nosini bildirishi, sifatning «belgi» ma'nosini bildirishi;

2) So'zning xususiy grammatik ma'nosi ma'lum so'z turkumi uchun mos bo'lib, maxsus vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, otlarga xos egalik, kelishik qo'shimchalari, fe'llarga xos shaxs-son, zamon kabi ma'nolar grammatik ma'nolarga kiradi.

O'zbek tilida grammatik ma'no quyidagi usullar bilan ifodalanadi:

1) Asosga grammatik ma'no bildiruvchi qo'shimcha qo'shish bilan: *vatanim, vatanimga* kabi.

2) Yordamchi so'zlar keltirish bilan: *Biz kelajakka ishonch bilan qaraymiz.*

3) Ohang orqali. Gapni turlicha ohang bilan aytish orqali ham har xil grammatik ma'no ifodalanadi: *O'qi – O'qi !!!*

4) So'zlarni takrorlash ham grammatik ma'noni ifodalashga xizmat qiladi:

Saida bitta-bitta bosib hujrasiga tomon yo'naldi. (A.Q)

3. Grammatik ma'nolar, odatda, tilning turli vositalari orqali ifodalanadi. Bu vositalar grammatik shakl deyiladi. Masalan, egalik ma'nosining - (i)m qo'shimchasi bilan ifodalanishi kabi. Egalik affikslari uch shaxsni, ayni vaqtda birlik va ko'plikdagi shaxslarni bildiradi. Natijada egalik va son ifoda shakllarining bir butun sistemasi yuzaga keladi: *kitobim, kitobing* kabi.

Grammatik shakl so'zning u yoki bu grammatik vosita olib o'zgarishidir. So'zning turli grammatik shakllar olishi so'z o'zgarishi deyiladi. So'z o'zgarishi leksik ma'no bilan kategorial grammatik ma'nolar birligiga asoslanadi.

So'zning grammatik shakllari tuzilishi jihatidan ikki xil bo'ladi:

1) Sintetik shakl;

2) Analitik shakl.

Sintetik shakl so'zga qo'shimcha qo'shish bilan hosil bo'adi: *Ilmga intilmoq har bir talabaning burchidir.*

Analitik shaklda esa grammatik ma'no yordamchi so'z orqali ifodalanadi: *Kitob bilan ishlashga o'ganing.*

Affikssiz shakl ham ma'lum grammatik ma'no ifodalaydi, shu so'zning boshqa so'zlar bilan grammatik munosabatini ko'rsatishga ham xizmat qiladi: *vatan – vatanim.* Affikssiz shaklga nol ko'rsatkichli (o) shakl deyiladi.

Sintetik va analitik shakllardan tashqari, ma'lum grammatik ma'noni ifodalash uchun so'zning juft va takroriy shakllari ham qo'llaniladi. So'zning juft shakllari bir xil turkumdagi so'dan bo'ishi (otqot, fe'lqfe'l kabi), har bir qismning o'z urg'usi borligi va ularning grammatik jihatdan tengligi bilan ajralib turadi: *oq-qora, yaxshi – yomon.*

Juft shakl hosil qiluvchi so'zlar semantik jihatdan quyidagicha ma'no munosabatida bo'ladi:

a) ma'no jihatdan bir-biriga yaqin so'zlar juft shakl yasaydi: *bordi –keldi, tog' -tosh;*

b) sinonim munosabatda bo'lgan so'zlar juft shakl yasaydi: *orzu-istak, o'y-xayol;*

v) antonimik munosabatda bo'lgan so'zlar juft shakl yasaydi: *uzoq-yaqin, yosh –qari;*

g) butun va bo'lak ma'nosini bildirgan so'zlar juft shakl yasaydi: *oy-kun, gap-so'z*

Juft shakl qismlari ma'no jihatidan quyidagicha bo'ladi: har ikki qism mustaqil ma'noga ega; bir qismi mustaqil ma'noga ega. Masalan, *er-suv, ko'cha-ko'y.* Bundan tashqari, har ikki qism mustaqil ma'noga ega bo'lmaydi: *ikir-chikir, apil-tapil.*

Juft shakl tarkibida fonetik o'zgarishlar ham bo'lishi mumkin: *non-pon, ish-pish, don-dun, ora-sira, mayda-chuyda.*

Takroriy shakllar bir xil shakldagi soʻzlarning takrorlanishidan hosil boʻladi. Juft shakl singari takroriy shakl ham soʻz yasashi hodisasiga kirmaydi. Ularning asosiy koʻpchiligi yangi leksik maʼno bildirmaydi, faqat koʻplik, maʼnoni kuchaytirish, takror, davom kabi qoʻshimcha maʼnolarni anglatadi. Baʼzi takroriy Shakllarda qisman yangi leksik maʼno anglatish hodisasini koʻrish mumkin: *es-es (bilmoq)*, *koʻz-koʻz (qilmoq)*.

Takroriy shakllar toʻla takror va qisqa takror asosida hosil boʻladi: *qop-qora, qora-qura; koʻm-koʻk, koʻp-koʻp*.

boʻ-, -ma qoʻshimchalar yordamida hosil boʻlgan soʻzlar ham takroriy shaklga kiradi: *ketma-ket, damba-dam*.

4. Oʻzaro bir-biriga zid qoʻyilgan va qiyosan olingan grammatik maʼnolar sistemasi va ularga xos ifoda vositalari-grammatik shakllar sistemasi grammatik kategoriya deyiladi. Masalan, otlarga xos kelishik maʼnolari va ularning ifoda shakllari boʻlgan kelishik shakllari sistemasi kelishik kategoriyasini hosil qiladi. shuningdek, otlarda egalik kategoriyasi, son kategoriyasi, feʼllarda shaxs – son kategoriyasi, nisbat kategoriyasi kabilarning har qaysisi oʻziga xos grammatik maʼnolar majmuasiga va shu maʼnolarning ifoda shakllari sistemasiga ega.

2-mavzu: MORFOLOGIYA. SOʻZNING TUZILISHI.

MORFOLOGIK

Reja:

1. Morfologiya haqida umumiy maʼlumot
2. Soʻzning morfologik tarkibi. Oʻzak, negiz.
3. Qoʻshimchalar

Tayanch tushunchalar: morfologiya, morfologik tuzilishi, oʻzak negiz, qoʻshimcha, soʻz shakli, shakl yasovchi vosita, oʻzak, negiz: soʻz yasovchi, soʻz oʻzgartiruvchi, shakl hosil qiluvchi qoʻshimcha.

1. Ilgari maʼruzada taʼkidlab oʻtilganidek, morfologiya soʻzlarning tuzilishi va oʻzgarishi, soʻz turkumlarini oʻrganuvchi sohadir. Soʻz turkumlari va ularning xususiyatlarini tekshirish morfologiyaning muhim vazifalaridandir. Maʼlumki, soʻzlar turli grammatik maʼnolarni ifodalaydi. Grammatik maʼno ifodalashiga koʻra soʻzlar har xil shakllarda boʻladi. Soʻzlardagi bunday Shakllarni ham morfologiya oʻrganadi.

Demak, til satqi sifatida morfologiya nisbatan qamrovdor boʻlib, soʻz shakllari, soʻzlarning tuzilishi va oʻzgarishi, soʻz turkumlari, ularning qonuniyatlarini oʻrganuvchi boʻlimdir.

2. Maʼlumki, soʻz tilning eng muhim birliklaridan biri boʻlib, Shakl yasashiga ega boʻlishi yoki ega boʻlmasligi mumkin. Masalan, *ona* soʻzi ot turkumiga mansub, shunga koʻra *onam, onang, onasi; onamga, onamning* kabi shakliy oʻzgarishlar qatoriga ega. Soʻzning grammatik maʼnolari jihatidan farqlanadigan har bir qismi soʻz shakli deyiladi. Soʻz shakllarining yasashida qatnashib, har xil grammatik maʼno anglatadigan qism soʻzning morfologik tuzilishini tashkil qiladi. Masalan, *kitoblarimdan* soʻzi oʻz morfologik tuzilishi jihatida kitob – *lar –im –dan* tarzida boʻlinadi. Bu soʻzda kitob-oʻzak morfema vash u bilan birga, shakl yasash asosi; *-lar* koʻplik shakli yasovchi qoʻshimcha, *-im* egalik shakli yasovchi qoʻshimcha, *-dan* chiqish kelishigi shakli yasovchi morfema. Koʻrinadiki, soʻzning morfologik tuzilishida shakl yasash asosi va shakl yasovchi vosita mavjud boʻladi.

Soʻz shakli tarkibida birdan ortiq shakl yasovchi vosita ishtirok etishiga qarab uning morfologik tarkibi ham murakkablashib boradi: *daraxtlar, daraxtlarning*.

Soʻzlarning tarkibi morfemika boʻlimida ham oʻrganilgan. Morfema soʻzining eng kichik boʻlinmas qismidir. Morfema ikki xil boʻladi: oʻzak morfema va affiks (qoʻshimcha) morfema. Soʻzning tub maʼnosini bildirib, boshqa maʼnoli boʻlaklarga boʻlinmaydigan qism

o'zak deyiladi. O'zak so'zda lug'aviy ma'no ifodalaydigan morfemadir. So'z o'zakdan boshlanadi, unga qo'shimchalar qo'shilib, so'zning grammatik jihatdan shakllantiradi: *ish-chi-lar-ga*.

Bir o'zakdan yasalgan so'zlar o'zakkosh so'zlar hisoblanadi: *guldun, gulzor, gulchi*. O'zakka so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilishidan negiz hosil bo'ladi: *Paxtakor, ishchi*.

3. So'z yasash va so'z o'zgartirish uchun xizmat qiluvchi, o'zak mazmuniga turli ma'nolar qo'shadigan yordamchi morfemalar qo'shimcha yoki affiks deyiladi.

Qo'shimchalar mustaqil holda qo'llanilmaydi, ular o'zakka qo'shilgandagina biror lug'aviy ma'no anglatishga xizmat qiladi. Qo'shimchalar ma'no va vazifaga ko'ra uch xil bo'ladi:

- 1) So'z yasovchi qo'shimchalar
- 2) Shakl yasovchi qo'shimchalar
- 3) So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar

O'zakka qo'shilib, shu o'zak ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan yangi lug'aviy ma'noli so'z yasashga xizmat qiluvchi qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar deyiladi. Ot, sifat, fe'l, ravish so'z turkumlari yasash xususiyatiga ega.

Shakl yasovchi qo'shimchalar yangi so'z yasamaydi, so'zga har xil qo'shimcha ma'nolar kiritadi. Qo'shimchalarning bu turi barcha so'z turkumlarida uchraydi.

So'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar so'zlarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi va sintaktik vazifa bajaradi. Egalik, kelishik, shaxs-son qo'shimchalari so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalardir.

3-mavzu: SO'Z TURKUMLARI. OT SO'Z TURKUMI. OTNING MA'NO TURLARI

Reja:

1. So'z turkumlari.
2. Ot-so'z turkumi.
3. Otlarning ma'no jihatdan turlari.

Tayanch tushunchalar: so'z turkumi, grammatik ma'no, morfologik belgi, so'z yasash, shakl yasash, so'z o'zgartirish, gap bo'lagi, mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar, modal so'zlar, undovlar, taqlid so'zlar, ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, atoqli ot, turdosh ot, aniq ot, mavhum ot, yakka ot, jamlovchi ot.

1. Tildagi barcha so'zlar o'ziga xos belgi-xususiyatlariga ko'ra ma'lum guruhlariga ajratiladi. Bu belgi-xususiyatlar ularning lug'aviy ma'nolari, morfologik belgilari va gapda bajaradigan vazifalaridir.

Har bir turkumi o'ziga xos grammatik ma'noni anglatadi va shu turkumga xos grammatik ma'no ifodalovchi vositalarga ega bo'ladi. Jumladan, ot turkumi «predmetli» ma'nosini, fe'l turkumi «harakat»ni, sifat turkumi esa «belgi» ma'nosini anglatadi. Bu ma'nolar so'zlarni turkumlarga ajratishda asosiy belgi hisoblanadi.

So'zning morfologik belgilari, asosan, uning shakl yasash va so'z o'zgartirish shakllariga ega yoki ega emasligida ko'rinadi. Masalan, ot kelishik va egalik qo'shimchasini olib turlansa, fe'l shaxs-son va zamon qo'shimchasini olib turlansa.

So'zning gapda qanday gap bo'lagi vazifasida kelishi va boshqa so'zlar bilan sintaktik munosabatga kirisha olishi so'z turkumlarining sintaktik belgisiga kiradi. Masalan, predmetlikni bildirgan ot gapda ega va to'ldiruvchi vazifasida keladi. Bu otning muhim belgisidir.

Hozirgi o'zbek tilida so'zlar grammatik ma'nolari, morfologik va sintaktik belgilariga qarab quyidagi guruhga bo'linadi:

- 1) Mustaqil so'zlar.
- 2) Yordamchi so'zlar.
- 3) Modal so'zlar.
- 4) Undov so'zlar.

5) Taqlid so'zlar.

Lug'aviy va grammatik ma'noga ega bo'lib, gapda biror gap bo'lagi vazifasini bajaradigan so'zlar mustaqil so'zlar deyiladi. Ular quyidagilar: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish.

Lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan, so'z va gaplarni o'zaro bog'lash, ularga qo'shimcha ma'no berish uchun ishlatilib, gapda biror gap bo'lagi vazifasida bo'lmaydigan so'zlar yordamchi so'zlar deyiladi. Yordamchi so'zlarga ko'makchi, bog'lovchi, Yuklama kiradi.

Modal so'z-so'zlovchining anglatilayotgan fikrga munosabatini bildiruvchi so'zlar: *albatta, balki, chamamda*.

Undov so'zlar so'zlovchining his-tuyg'ularini ifoda etadi: *oh,uh,eh*.

Taqlid so'zlar tovushga, ko'rinish va holatlarga taqlidni anglatadi: *taq, lov-lov, lip-lip*.

2. Predmetlik ma'nosini bildirib, grammatik son, egalik va kelishik ma'nolarini ifodalaydigan so'zlar turkumi ot deyiladi.

Otlar *kim? nima? qaer?* so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Otlar turli ma'no va vazifa uchun qo'llanuvchi funksional shakllarga, shuningdek, o'ziga xos so'z yasash xususiyatiga ega. Otlarning muhim belgilaridan yana biri uning sifat, son, olmosh, fe'l va ravish bilan birika olishidir.

Ot gapda barcha bo'lak vazifasida kela oladi.

Ot turkumiga xos muhim morfologik xususiyatlar otlarda grammatik son, egalik va kelishik kategoriyalarining mavjudligidir.

Egalik va kelishik qo'shimchilari otlarning boshqa so'zlar bilan munosabatini ta'minlaydi, sintaktik qamrovini kengaytiradi.

3. Otlar ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra ikki xil: atoqli otlar, turdosh otlar. Predmet, narsa-hodisalarga atab qo'yilgan otlar atoqli otlar deyiladi. Atoqli otlar bir turdagi predmet, narsa-hodisalardan birini ajratib ko'rsatadi.

Atoqli otlarga quyidagi kiradi:

a) kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi: *Alisher, Akbarov, Oybek*;

b) geografik nomlar: *O'zbekiston, Toshkent*;

v) turli tashkilot, korxona nomlari: *«Ma'naviyat» nashriyoti*

g) planeta va yulduzlarning nomlari: *Zuhro, Mars*;

d) tarixiy hodisalar, gazeta, jurnal, asar nomlari: *Mustaqillik bayrami, «Xalq so'zi» gazetasi, «Tafakkur» jurnali, «Jimjitlik» romani*;

e) hayvonlarga maxsus qo'yilgan nomlar: *Boychibor, Arslon*.

Atoqli otlarni turdosh otlardan farqlovchi muhim belgilaridan biri ko'plik shakllarida ishlatilmasligidir.

Bir turdagi predmetlarning narsa-hodisalarining umumiy nomini bildiradigan otlar turdosh otlar deyiladi: *daraxt, uy, odam*. Atoqli otlar turdosh otlarga o'tishi mumkin: *Rentgen (ism)-rentgen (apparat)*. Turdosh otlar ham atoqli otga aylanadi: *lola (o'simlik)-Lola (ism)*.

Turdosh otlar quyidagi belgilar asosida turlarga ajratiladi:

1. Ifodalangan tushunchaning xususiyatiga ko'ra: aniq va mavhum ot;

2. Otlar birlik shaklda bir turdagi predmetning o'zini yoki ularning to'dasini bildirishiga ko'ra yakka va jamlovchi ot.

Aniq otlar shaxsni, predmetni anglatadi. Aniq otlarni ko'rish, sanash va ushlash mumkin: *gul, ishchi, daraxt*.

Mavhum tushunchalar, belgilar va holatni predmet sifatida anglatadigan otlar mavhum otlardir: *sevinch, baxt, omad, ishonch*.

Mavhum otlar asosan birlik shaklda qo'llaniladi, ko'plikda qo'llanilganda bunday otlarning ma'nosi nisbatan mavhumlik darajasini yo'qotadi.

Shaklan birlikda bo'lib, mazmunan ko'plikni bildiradigan otlar jamlovchi otlar deyiladi: *xalq, armiya*. Jamlovchi otlar bir jinsdagi narsalarning yig'indisini bir butun holatda anglatadigan turdosh otlardir.

Yakka otlar esa ma'no jihatidan jamlovchi otlarga qarama-qarshi bo'lib, alohida predmetlarni bildiradi. Bu otlarning birlik shaklida ham, ko'plik shaklida ham narsalar yakka-yakka holatda tasavvur qilinadi: *kishi-kishilar, kitob-kitoblar*.

4-mavzu: OTLARDA SON VA EGALIK KATEGORIYASI

Reja:

1. Otlarda son kategoriyasi
2. *-lar* qo'shimchasining ko'plikdan tashqari anglatadigan ma'nolari.
3. Faqat birlik shaklida qo'llaniladigan otlar.
4. Egalik kategoriyasi haqida.
5. Egalik shakllarining semantik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari.
6. O'zakka egalik affikslari qo'shilishi bilan ro'y beradigan fonetik o'zgarishlar haqida.
7. Egalik affikslarining ishlatilishidagi holatlar.

Tayanch tushunchalar: son kategoriyasi, birlik, ko'plik, egalik kategoriyasi, o'zak, affiks, shaxs, fonetik o'zgarish.

1. Ot turkumi uchun xos asosiy va doimiy grammatik kategoriyalar son kategoriyasi va kelishik kategoriyasidir. Otlar qo'shimcha olmagan holatda ham son va kelishik ma'nosini ifodalaydi: *bola, bino* (birlik son va bosh kelishik). Egalik kategoriyasi haqida shu grammatik kategoriyaning affiksi bor hollardagina gapirish mumkin. Demak, ot turkumi uchta grammatik kategoriyaga ega: son kategoriyasi, egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi.

Otlarga xos bo'lgan morfologik belgilardan biri grammatik son kategoriyasi. Otlarning birlik va ko'plik shakllarida ishlatilishi grammatik son kategoriyasi deyiladi. Otlarning birligi biror vositasiz ifoda etiladi. Ko'pligi **-lar** qo'shimchasi bilan ifodalanadi. Bundan tashqari, otlarda ko'plikni hosil qiluvchi vositalar ham mavjud. Bunday ko'plik **lug'aviy-semantik usul** bilan hosil bo'lgan ko'plikdir: *el, olomon, to'da*.

Ko'plik ma'nosi miqdor bildiruvchi so'zlarni otlardan oldin keltirish bilan ham hosil qilinadi: (bir, ko'p, nechta) *bola, juda ko'p qalam*. Ko'plikni bunday ifodalanishi **sintaktik usul** bilan ifodalangan ko'plikdir. Sintaktik ko'plik otlardan oldin sonlarni: *o'nta o'quvchi, yuz xonadon* keltirish bilan ham hosil bo'ladi. Bundan tashqari, otga sifatlovchi bo'lib kelgan ot, sifat, son takrorlash bilan: *dasta-dasta gul, baland-baland tog'lar*; juft so'zlar orqali: *qozon-tovoq, meva-cheva*.

Ko'plik ma'nosi, asosan, **morfologik usul** **-lar** qo'shimchasini olish bilan hosil qilinadi, lekin bu qo'shimcha barcha otlarga qo'shilmaydi, qo'shilganda ham doimo ko'plik ma'nosini ifoda etmaydi.

2. **-lar** qo'shimchasi ko'plikdan tashqari yana quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

- 1) donalab sanab bo'lmaydigan predmet nomlariga qo'shilganda ularning turli-tumanligini, har xilligini bildiradi: *yog'lar, tuzlar*;
- 2) mavhum otlarga qo'shilganda, shu otdan anglashilgan ma'no torayadi: *orzular, xayollar*;
- 3) predmetning noaniq bo'lgan ko'p miqdorini ifodalaydi: suhbatlar goh qizib, goh davom etardi;
- 4) hurmat ma'nosini ifodalaydi: *dadamlar, buvimlar*;
- 5) piching, kesatq: *keldilar, bormilar*;
- 6) taxmin ma'nosini ifodalaydi: *soat o'n birlar edi*;
- 7) umumlashtirish, ta'kid ma'nosini ifodalaydi;

Haydar, Qo'chqor, Komillar bir ko'rpada tepkilashib katta bo'lishgan.

3. Otlarning faqat birlikda qo'llaniladigan shakllari ham bor. Bular: mavhum otlar, sanalmaydigan, faqat o'lchanadigan jism va narsalarni anglatadigan otlar, organizmdagi juft a'zolar, shuningdek, juft narsalarni bildiruvchi otlar, asli o'zi bittadan ortiq bo'lmaydigan narsalarning nomi, atoqli otlar.

4. Predmetning uch shaxsdan biriga taalluqli ekanligini anglatuvchi umumiy ma'nolar va ularni ifoda qiluvchi shakllar sistemasi egalik kategoriyasidir. Predmetning uch shaxsdan biriga mansubligini ko'rsatuvchi morfema egalik affiksi deyiladi. Egalik affikslari shaxs ma'nosi bilan birga uning (shaxs) sonini (birlik yoki ko'pligini) ham ko'rsatadi: savolim-savolimiz.

Egalik kategoriyasining asosiy affikslari quyidagicha:

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I	-(i)m	-(i)miz
II	-(i)ng	-(i)ngiz
III	-i,si	-i,-si

Egalik affikslaridan I va II shaxs ko'rsatkichlari unli tovush bilan tugagan so'zlarga, shaxs ko'rsatkichi undosh tovush bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda fonetik variant hosil qilmaydi: *onam, akang, kitobi*. Boshqa holatlarda esa fonetik variantlarga ega bo'ladi: I va II shaxs affikslari undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda **i** tovushi, III shaxs egalik affiksi unli bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda **s** tovushi orttiriladi: *onasi, kitobim, kitobing*.

5. I va II shaxs egalik shakllarining semantik jihatdan ham o'ziga xususiyatlari bor. Ular –I va II shaxs birlik Shakllari monosimantik xarakterdadir: *ukam, ukang*. Shu shaxslarning adabiy tilga xos ko'plik shakli esa polisemantik xarakterga ega: *ishimiz-bizning ishimiz, ishimiz-mening ishim*. Bularning birinchisi ko'plik ma'noli Shaklidir.

II shaxs egalik affiksining **-ingiz** shaklining ko'plik ma'no ifoda qilishi kishilik olmoshlariga ham bog'liq. Agar II shaxsning bu shakli ko'plik ma'nosida qo'llangan bo'lsa, olmosh **sizlar** Shaklida keladi: *Sizlarning sportda erishgan muvaffaqiyatingiz ulkan*.

Egalik affiksi ot yoki otlashgan so'zlarga son kategoriyasi Shaklidan keyin qo'shiladi, kelishik kategoriyasi shakllari esa egalik affiksidan keyin qo'shiladi: *kitoblarimni, -lar* affiksi hurmat ma'nosida qo'llanganda egalik affiksi *-lar* affiksidan oldin qo'shiladi: *onamlar*.

6. O'zakka egalik affikslari qo'shilishi bilan turli fonetik o'zgarishlar yuz beradi. Bularning eng muhimlari quyidagilar:

a) o'zak tarkibidagi ikkinchi **i** va **u** tor unlilari tushib qoladi: *og'iz-og'zim, ko'ngil-ko'ngli*;

b) o'zak oxiridagi **q, g'** jarangsiz tovushlari jaranglashadi: *o'rtoq-o'rtog'im, istak-istagim*;

v) *obro', avzo, parvo* kabi so'zlarda egalik affiksidan oldin bir **y** tovush orttiriladi: *obro'-obro'yim*.

7. Egalik affikslarining ishlatilishida ikki holat bor:

1) Egalik affiksi o'zi qo'shilgan so'zning boshqa so'z bilan bog'lanishida ishlatiladi. Bu vaqtda egalik affiksi qo'shilgan so'z qaratqich kelishigidagi so'z bilan aloqaga kiritadi. Qaratqich kelishigi *ko'proq* kishilik olmoshlariga qo'shiladi: *mening orzum*. Bunda qaratqich bilan qaralmish shaxsda moslashadi. I va II shaxs ko'plik shakllari ham ko'plik, ham birlik (sizlash) ma'nosida qo'llanadi.

Egalik affiksini olgan so'z ba'zan chiqish kelishigidagi so'zlar bilan ham bog'lanishi mumkin: *studentlardan biri, o'quvchilarning barchasi*;

2) Egalik affiksi o'zi qo'shilgan o'zak doirasida ishlatiladi, bunda quyidagi holat bor: a) egalik affiksi vazifasida kelib, o'zining grammatik mohiyati-ma'nosini saqlaydi. Bunda egalik affiksi ot turkumidagi so'zlarga, harakat nomi, olmosh, shuningdek, otlashgan so'zlarga qo'shilaveradi: *onam, o'qiganim, hammang, qahramonim* kabi; b) egalik affiksi o'z grammatik ma'nosini yo'qotib, o'zi qo'shilgan o'zak bilan birgalikdagi boshqa so'z turkumiga-ravishga o'tadi: *ertasi, kechasi*; modal so'zga o'tadi: *chamasi, yaxshisi*.

Egalik affiksining har ikki son Shakli har qanday ot, olmosh yoki otlashgan so'zlarga qo'shilavermaydi. Ko'pincha miqdor tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan o'zaklarga egalik affikslarining birlik Shakli qo'shilmaydi: *barchamiz, beshovimiz*. Bu jihatdan III shaxs egalik affiksi mustasno: u neytrallik xususiyatiga ega: *barchasi, beshovi*.

Egalik affiksi bir butun holda qo'llanadigan so'zlarga ham qo'shilib kelishi mumkin: O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi.

Reja:

1. Kelishik kategoriyasi haqida
2. Bosh kelishik
3. Qaratqich kelishigi
4. Tushum keligi
5. Jo'nalish kelishigi
6. O'rin-payt kelishigi
7. Chiqish kelishigi

Tayanch tushunchalar: ot, kelishik kategoriyasi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimcha, turlanish, bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo'nalish kelishigi, o'rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi.

1.Otning boshqa so'zlar bilan sintaktik munosabatini ko'rsatuvchi ma'nolar va bu ma'nolarni ifodalovchi Shakllar sistemasi kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi olti grammatik ma'no yoki olti kelishikni birlashtiradi: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, chiqish kelishigi, jo'nalish kelishigi, o'rin-payt kelishigi. Otning kelishik affiksini olib o'zgarishi turlanish, bu affiks esa turlovchi affiks deyiladi.

	Kelishiklar	Qo'shimcha	So'rog'i
1	Bosh kelishik	-	kim?, nima?, qae?
2	Qaratqich kelishigi	-ning	kimning?,nimaning?,qaerning?
3	Tushum kelishigi	-ni	kimni?, nimani?, qaerni?
4	Jo'nalish kelishigi	-dan	kimdan?, nimadan?,qaerdan?
5	Chiqish kelishigi	-ga	kimga?, nimaga?, qaerga?
6	O'rin-payt kelishigi	-da	kimda?, nimada?, qaerda?

Har bir kelishikning o'z shakli, ma'nosi va sintaktik vazifasi bor. Masalan, jo'nalish kelishigi ot, olmosh, son va otlashgan so'zlarga qo'shilib, ot bilan fe'l orasidagi sintaktik munosabatni ko'rsatadi. Uning asosiy ma'nosi harakatning yo'nalish o'rmini bildirishdir.

Kelishik shaklidagi so'zlar gapda boshqa so'zlar bilan quyidagicha munosabatda bo'ladi:

a)qaratqich kelishigi ot bilan otni grammatik aloqaga kiritadi: *kitobning muqovasi*;

b)tushum, jo'nalish, o'rin, chiqish kelishiklari otni fe'l bilan aloqaga kiritadi: *institutga bordim, kinoni ko'rdim, kompyuterda ishladim*;

b) kelishik shaklidagi otlar ot va fe'ldan boshqa turkumdagi so'zlar bilan ham munosabatga kirishadi: *Uyat o'limdan qattiq*.

Kelishiklarning ma'nolari va funksiyalari ko'makchilarning ma'nolari va funksiyalari bilan munosabatchilik bo'lishi mumkin: *telefonda so'zlashdim-telefon orqali gaplashdim*.

Kelishik affiksleri soʻzga son va egalik shakllaridan keyin qoʻshiladi. Odatda, kelishik shaklidagi soʻzlarga boshqa affiksler qoʻshilmaydi, faqat affiks shaklidagi yuklamalargina qoʻshilishi mumkin: *Bu kitob sizgami?*

Kelishik affiksleri olmoshlar, feʼlning harakat nomi shakli, jamlovchi sonning baʼzi koʻrinishlari uchun xosdir: *barchaga, oʻziga, oʻqishga, beshovimizga*.

2. Bosh kelishikdagi ot, umuman, shaxs, predmet, voqea-hodisalarning nomini ataydi, kim?, nima?, qayer? soʻroqlaridan biriga javob boʻladi. Maxsus affiksga ega emas.

Bosh kelishikdagi soʻz quyidagi vazifalarda keladi:

a) ega vazifasida keladi: *Quyosh asta-sekin bota boshladi*;

b) atov gap yoki shunday gap yoki shunday gapning bosh soʻzi vazifalarida keladi: *Qish.*

Atrof oppoq qor;

v) kesim vazifasida keladi: *Navoiy-buyuk shoir. Musobaqada gʻolib chiqqan Zulfiya edi*;

g) jizohlovchi vazifasida keladi: *Sodiq temirchi Razzoqning horgʻin koʻzlariga boqib soʻradi (H.Z)*;

d) hol vazifasida keladi: *Shu kuni turkman sultoni Yoqubbekdan elchi kutilmoqda edi. (L.Bat)*.

e) sifatlovchi vazifasida keladi: *Elektr qoʻngʻirogʻi asta jiringladi*;

yo) undalma vazifasida keladi: *Talabalar, amaliy mashgʻulotlarda faol qatnashish*.

Nutqda mart oyi, meva daraxti kabi birikmalar ham koʻp qoʻllanadi.

3. Qaratqich kelishigidagi ot, odatda, boshqa bir soʻzni oʻziga qaratib keladi va qaratuvchi deb ataladi. Qaratilgan soʻz qaralmish boʻlib, egalik affiksini olgan boʻladi. Bunda ikki ot yoki otlashgan soʻzning oʻzaro munosabati ifodalanib, qaralmish turli kelishik shaklida kelib, har xil gap boʻlagi vazifasini bajaradi: *Muqaddas bu oilaning eng katta farzandi ekan. (O.Yo)*

Qaralmishga egalik affiksi qaratqich kelishigidagi soʻz qaysi shaxsni koʻrsatishiga muvofiq qoʻshiladi.

Qaratqich kelishigi baʼzan -n shaklida ham qoʻllanishi mumkin: *Har oila(ning) oʻchogʻin oʻz qutlugʻ tarixi bor*.

Qaratqich kelishigidagi soʻz mustaqil soʻzga bogʻlanmay, koʻmakchi olib ham ishlatiladi: *Sening bilan yashnasin bahor (H.A)*.

Qaratqich kelishigi ikki shaklda: belgili yoki belgisiz shaklda qoʻllanadi: *Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar*.

Qaratqich kelishigi quyidagi holatlarda belgili ishlatiladi:

a) olmoshlar qaratqich kelishigida kelganda: *Uning yuziga qon yugurdi*;

b) otlashgan soʻzlar qaratqich kelishigida kelganda: *Ishlab topganning noni lazzatli boʻlur*;

v) qaralmish otlashgan soʻzlardan boʻlganda: *Doʻstning eskisi yaxshi*;

g) qaratqich kelishigidagi soʻz kelishikkacha egalik affiksini olgan boʻlsa: *Mehnatining rohatini koʻrsin*;

d) qaratqich bilan qaralmish orasida boshqa biror soʻz kelsa: *Quyoshning ilk nurlari hovlidagi ikki tup mirzaterakning uchida jilvalanar edi*.

Belgili qaratqichda asosan quyidagi maʼno munosabatlari ifodalanadi: qaralmishda ifodalangan predmetning maʼlum shaxsga, narsaga tegishli ekani taʼkidlanadi; qaratuvchi boʻlib kelgan ot qaralmishda ifodalangan belgi yo xususiyatning tashuvchisi, egasi ekanligini bildiradi; bundan tashqari, butun bilan boʻlak aloqasi, narsa bilan oʻrin, payt munosabati singari qator maʼno munosabatlarini ham bildiradi.

4. Tushum kelishigida kelgan soʻz feʼl anglatgan ish-harakatning taʼsirini oʻz ustiga olgan, harakatni oʻziga qabul qilgan narsani ifodalaydi, gapda vositasiz toʻldiruvchi vazifasida keladi. Bu kelishikdagi soʻz kimni?, nimani? (baʼzan qaerni?) soʻroqlariga javob boʻladi, har vaqt oʻtimli feʼllarga bogʻlanadi: *Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni (maqol)*.

Oʻzbek tilida tushum kelishigining affiksi baʼzan -n shaklida ham keladi: *Olmazorlar gulini toʻkadi, meva bogʻlab, shoxin bukadi (H.O)*

Men, sen kishilik olmoshlariga tushum kelishigi-i shaklida qoʻshiladi: *meni, seni*.

Tushum kelishigi ikki shaklda-belgili yoki belgisiz ishlatiladi. Tushum kelishigi belgili bo'lganida-ni affiksi qatnashadi; belgisiz bo'lganida esa-ni affiksi qo'llanmaydi. Bunday vaqtda so'zning tushum kelishigida ekanligi mazmunidan, o'sha so'zning fe'lga bog'lanishidan bilinib turadi.

Quyidagi holatlarda tushum kelishigi belgili shaklda qo'llanadi:

1.Tushum kelishigidagi so'z atoqli ot bo'lganida: *Nosirov Saidani uzoqdan ko'rishi bilan o'rnidan turdi.*

2.Kishilik, o'zlik va ko'rsatish olmoshlari tushum kelishigida kelganda: *Fazilat o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. (O.Yo.) Qizlarning ota-onasi bizni bu erda olib qolmoqchi emas (T.M.);*

3.Shu kelishikdagi so'z otlashgan bo'lsa: *Bilagi zo'r birni yig'ar, bilimi zo'r mingni yig'ar (maqol);*

4.Tushum kelishigidagi so'z harakat nomi bo'lganida: *Manzura o'g'lidagi o'zgarishni sezib, xatosini tuzatmoqchi bo'ldi.(T.M.);*

5.Tushum kelishigidagi so'z payt bildiruvchi so'z bo'lib, shu so'z ajratilib ko'rsatilganda: *Erkin yozni qanday o'tkazganini o'rtoqlariga so'zlab berdi.*

6.Tushum kelishigidagi so'z o'z aniqlovchisiga ega bo'lganda: *Do'stlarning tovushini eshitgach, samimiy iltifot bilan eshikni ochib yubordi);*

7.Tushum kelishigi egalik affiksidan keyin qo'shilsa: *Zaljim. Parda ochilishini kutar edi;*

8.Tushum kelishigidagi so'z bilan uni boshqargan so'z orasida boshqa so'zlar kelsa: *Norqo'zi mehmonlarni yo'lning o'ng yog'idagi terakzorga boshladi (H.G').*

Tushum kelishigidagi so'z asosan bir turdagi predmetni ifoda qilib, uni ta'kidlash lozim topilmaganda belgisiz qo'llanadi: *Navoiy yangidan-yangi tanishlar, do'stlar orttira boradi. (I.Sulton). Albatta, millionlab odamning hammasiga shohona qasr qurib bo'lmaydi. (O'.X).*

5.Jo'nalish kelishigidagi so'zlar fe'lga bog'lanib, harakat yo'nalgan predmetni ko'rsatadi. Jo'nalish kelishigi affiksi-ga,-ka,-qa shakllarida keladi: shaharga, eshikka, boqqa.

Jo'nalish kelishigi affiksi she'riyatda -a shaklida ham uchraydi. Bu kelishik juft yoki takror so'zlarning ikkinchi qismiga qo'shiladi: *meva-chevaga, idish-tovoqqa.*

Jonli so'zlashuvda ba'zan chiqish kelishigi shaklidagi so'zlarga qo'shilishi kuzatiladi: *besht kundanga, ertadanga.*

Jo'nalish kelishigi affiksi ot, olmosh, son, harakat nomi, otlashgan so'zlar va taqlid so'zlarga qo'shiladi: *ukamga, hammaga, beshoviga, o'qishga, yaxshiga.*

Ayrim o'rinlarda jo'nalish kelishigi vazifasini ko'makchi bajaradi: *Yigit istar-istamas chodir tomonga keta boshladi (S.A).*

Jo'nalish kelishigi ba'zi hollarda chiqish, o'rin-payt va tushum kelishigi vazifalarida ham keladi: *Biz hashamatli bino oldiga (oldida) to'plandik. Bu voqealarga (voqealarni) tushuna olmadim.*

Jo'nalish kelishigidagi so'z quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1)Harakat va holat yo'nalgan shaxs yoki predmetni: *Sahna orqali kishilarning qalbiga yo'l topsam (A.Q);*

2)Bir predmetning ikkinchi predmetga atalganligini: *Bizning zamonda hamma oliy maktablarning darvozalari bizga ochilib turibdi (O);*

3)Shaxs, predmetlarning biror holatga o'tishi, eski holatdan o'zgarishi kabi ma'nolarni anglatadi;

4)Harakatning qanday maqsad bilan bajarilganligini bildiradi: *Ona o'z o'g'li uchun minnatdorchilik bildirishga kelibdi. (A.Muxtor).*

5)Harakatning bajarilish sababini, vaqtini, o'rnini bildiradi.

Jo'nalish kelishigidagi so'z vositali to'ldiruvchi, hol vazifalarida keladi: *Ko'pchilikka ishongan maqsadiga etadi. Yozyovonga ikkoving komandirlik qilasan. (S.A).*

6.O'rin-payt keligining shakli -da affiksi bo'lib, bu kelishikdagi so'z kimda?, nimada?, qaerda?, qachon? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Payt ma'nosi ifodalanganda ba'zan o'rin

kelishigi affiksi qo'llanmaydi (belgisiz holda bo'ladi): *Er haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda (maqol).*

O'rin kelishigidagi so'z gapda uyushib kelganda belgili va belgisiz shaklda qo'llanadi; o'rin kelishigidagi so'z ta'kidlansa, belgili, boshqa hollarda belgisiz bo'ladi: *Bugun men ham izzatda, ham xizmatda (O'.U). Na sada daraxtlar osti, na machitlar, na doim bazm qiziydigan, gavjumda biror sharpa eshitasiz. (J.A.)*

O'rin-payt kelishigi affiksi ko'makchilarga qo'shilishi ham mumkin: *Mashina daryodan ancha beridagi past-baland tepaliklar oldida to'xtadi. (A.Q.)*

O'rin-payt kelishigidagi so'z kimda?, nimada? so'roqlariga javob bo'lib, gapda to'ldiruvchi vazifasida keladi: *Oltin o'tda, odam mehnatda bilinadi.* Bu kelishikdagi so'z holat, payt, sabab, vosita ma'nolarini anglatib, gapda o'rin, payt, ravish, sabab holi vazifasida keladi: *Yozda qilingan mehnat, kuzda ko'rsatar himmat.*

O'rin-payt kelishigida kelgan so'z sodda gapning kesimi vazifasida ham keladi:

Birlashma uch qavatli yangi binoda edi.

O'rin-payt kelishigidagi so'zlar quyidagi ma'nolarni anglatadi:

1)harakatning bajarilishi o'rinni bildirib, qaerda? so'rog'iga javob bo'ladi va gapda o'rin holi vazifasini bajaradi;

2)harakatning bajarilishi paytini bildirib, qachon? so'rog'iga javob bo'ladi va gapda payt holi vazifasini bajaradi;

3)harakatning bajarilishi uchun ob'ekt bo'lgan predmetni bildirib, nimada? so'rog'iga javob bo'ladi va gapda to'ldiruvchi bo'lib keladi;

4) harakatning bajarilishi holatini ifodalab, qanday?, qay holatda? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi, gapda ravish holi vazifasida keladi;

5)harakatning bajarilishida sabab, vosita bo'lgan narsani bildiradi.

7.Chiqish kelishigidagi so'z shaxs va predmetning chiqish o'rni, harakat va holatning boshlanish nuqtasi kabi ma'nolarni ifodalaydi. Hozirgi adabiy tilimizda bu kelishikning affiksi-**dan** bo'lib, kimdan?, nimadan?, qaerdan?, qachondan?, qanchadan singari so'roqlardan biriga javob bo'ladi.

Chiqish kelishigi affiksi shevalarda, yozma yodgorliklar, klassik adabiyotda **-din,-tin,-tan,-nan** shaklida ham uchraydi.

Chiqish kelishigidagi so'z predmet ma'nosiga ega bo'lib, kimdan?, nimadan? so'roqlariga javob bo'lsa, vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi. Bundan tashqari bu kelishikdagi so'z o'rin, payt, holat, sabab ma'nolariga ega bo'lib, qaerdan?, qachon?, qachondan? kabi so'roqlarga javob bo'lsa, hol vazifasida keladi.

Chiqish kelishigida kelgan so'z juda ko'p ma'nolarni ifodalaydi:

a)ish-harakatning boshlanish o'rnini bildirib, qaerdan? so'rog'iga javob bo'ladi, gapda o'rin holi vazifasini bajaradi;

b)ish-harakatning bajarilish paytini bildirib, qachon?, qachondan so'roqlariga javob bo'lib, gapda payt holi vazifasida keladi;

v)ish-harakatning bajarilishiga sabab bo'lgan vositani bildirib, kimdan?, nimadan? so'roqlariga javob bo'ladi, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi;

g)chiqish kelishigidagi so'z predmet ma'nosiga bo'lgan shaxsni, predmetni ifodalasa gapda to'ldiruvchi, o'rin-payt, holat ma'nolarini ifodalasa hol vazifasida keladi.

6- mavzu: OTLARNING YASALISHI. OTLARNING TUZILISHI JIHATIDAN TURLARI

Reja:

1.Morfologik usul bilan otlar yasash:

a) shaxs otlari;

b) narsa-qurol otlari;

- v) o'rin-joy otlari;
- g) mavhum otlar.
- 2. Sintaktik usul bilan otlar yasash.
- 3. So'zlarni qisqartirib ot yasash.
- 4. So'zlarni takrorlash yordami ot yasash.
- 5. Otlarning tuzilishi jihatdan turlari
- 6. Modal shakllarning yasalishi.

Tayanch tushunchalar: so'z yasash, morfologik usul, sintaktik usul, shaxs otlari, narsa-qurol otlari, o'rin-joy otlari, mavhum otlar, qo'shma otlar, juft otlar, takroriy ot, qisqartma ot, sodda ot, sodda tub ot, sodda yasama ot, modal shakl, kichraytirish shakli, erkalash shakli, qarashlilik shakli, o'rin belgisi shakli, chegara shakli.

1. Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibida ot turkumi juda ko'p so'zlarni birlashtiradi. Boshqa so'z turkumlariga nisbatan ot so'z turkumining yangi so'zlar bilan boyib borishi ancha faoldir. Otlar asosan morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi. So'z o'zagiga maxsus so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shish bilan ot yasalishi morfologik usul bilan yasalishdir. Ot yasovchi qo'shimchalar yordamida ot, sifat, son, fe'l va boshqa turkumlardan so'z yasaladi.

Morfologik usul bilan quyidagi ma'nolarni bildiruvchi otlar yasaladi:

- a) shaxs otlari;
- b) narsa-qurol otlari;
- v) o'rin-joy otlari;
- g) mavhum otlar.

1. Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar katta miqdorni tashkil qiladi, turli ma'nolarni ifodalaydi. Ular orasida eng faoli **-chi** qo'shimchasidir. Bu qo'shimcha barcha so'z turkumlari va boshqa tillardan kirgan so'zlarga ham qo'shilib, quyidagi ma'nolarni ifodalovchi otlar yasaydi:

a) ot va fe'l negizlariga qo'shilib, negiz orqali ifodalangan narsa, predmet bilan shug'ullanuvchi ma'nosidagi otlar yasaydi: *suvchi, terimchi*;

b) ot, sifat, son negizlarga qo'shilib, negiz anglatgan predmet, narsa-hodisaga mansub ekanligini ifodalovchi otlar yasaydi: *tarixchi, aloqachi*;

v) fe'l va sifat negizlarga qo'shilib, negiz anglatgan belgi, xususiyatga egalikni bildiruvchi otlar yasaydi: *yozuvchi, qiziqchi*;

g) **-chi** qo'shimchasi kasb-hunar yoki mutaxassislikni ifodalovchi so'zlarga qo'shilib, negiz orqali anglashilgan kasb-korga egalikni bildiruvchi otlar yasaydi: *temirchi, suvoqchi*.

-dosh affiksi narsa, soha bo'yicha birgalik, yaqinlik, barobar aloqadorlik ma'nosidagi shaxs oti yasaydi: vatandosh, fikrdosh, yo'ldosh.

Bu affiks ma'no jihatdan tojik tilidan qabul qilingan ham-affiksi bilan sinonimik munosabatda bo'ladi: *suhbatdosh-hamsuhbat*.

Ammo, bu affikslarni hamma vaqt parallel holda ishlatib bo'lmaydi.

-kash affiksi tojik tilidan o'zlashgan bo'lib, «tortmoq» fe'lidən olingan. Bu affiks ham otlarga qo'shilib, shaxs oti yasaydi: *suratkash, mehnatkash*.

-kor affiksi yasash asosi anglatgan narsani, shu narsa bilan shug'ullanuvchini ifodalaydigan ot yasaydi.

-bon affiksi yasash asosidagi anglashilgan narsaga ega yoki shu narsaning saqllovchisi, qo'riqllovchisi bo'lgan shaxsini bildiruvchi ot yasaydi: *bog'bon, darvozabon*.

-dor (toj.-«ushlamoq», «ega bo'lmoq») affiksi yasash asosidan anglashilgan narsaga ega yoki aloqadorligini bildiruvchi ot yasaydi: *muhrdor, mulkdor*.

-shunos (toj.-«bilmoq») affiksi yasash asosidan anglashilgan narsa yoki sohaning mutaxassisi, kasb egasi ekanini bildirgan ot yasaydi: *tabiatshunos, tilshunos*.

Yuqoridagilardan tashqari **-boz, -xo'r, -paz, -soz, -do'z, -xon, -iy, -parast, -parvar, -gar** kabi affikslar ham shaxs otlarini yasaydi.

2. Narsa-qurol otlari, asosan, ot va fe'l negizlaridan yasaladi. Narsa-qurol otlarini yasashda fe'l negizlar ancha faoldir. Quyidagi qo'shimchalar narsa-qurol otlari yasovchi qo'shimchalardir:

-gich (-kich,-qich,-g'ich) affikslari fe'l negizlariga qo'shilib, narsa otini yasaydi: *suzgich, ochqich, ko'rsatkich, chizg'ich*.

-ma affiksi ham fe'l negizlarga qo'shilib, otlar yasaydi: *qaynatma, bostirma*.

-k,-ik,-iq,-oq,-ak affikslari fe'l negizlarga qo'shilib, quyidagi ma'nolarni ifodalovchi otlar yasaydi: mehnat qilish uchun ishlatiladigan predmet otini, inson uchun zarur bo'lgan narsa otini yasash uchun xizmat qiladi.

-m,-im,-um affikslari fe'l negizlariga qo'shilib, narsa oti yasaydi, harakat va mavhum oti yasaydi: *kiyim, terim, oqim*.

-gi,-ki,-qi,-g'i affikslari fe'l negizlariga qo'shilib, narsa-qurol oti yasaydi: *supurgi, chopqi, cholg'i*.

-indi affiksi narsa oti yasaydi: *chiqindi, yuvindi*.

-kin,-g'in affikslari fe'l negiziga,

-in(-un),-don affiksi esa ot negiziga qo'shilib, narsa-qurol otlarini yasaydi.

3.O'rin-joy otlari yasovchi qo'shimchalar bilan negiz orqali anglashilgan predmet ko'p bo'lgan, shu predmet o'sadigan yoki saqlanadigan joy nomlari yasaladi:

-zor affiksi ot negizlariga qo'shilib, negiz orqali anglashilgan predmet o'sadigan joy nomlari yasaydi: *paxtazor, lolazor, olmazor*.

-loq affiksi ot negizlarga qo'shilib, negiz orqali anglashilgan predmet ko'p bo'lgan joy nomlari yasaydi: *qumloq, o'tloq*.

-iston affiksi ot negizlarga qo'shilib, atoqli otlar yasaladi: *O'zbekiston, Guliston*.

-goh affiksi ot negizlarga qo'shilib, qisqa muddatda yashash, tunash, sayr qilish, o'ynash uchun zarur bo'ladigan joy nomlari yasaydi: *qarorgoh, xobgoh, sayrgoh, o'yingoh*.

4.Mavhum ot yasovchi qo'shimchalar turli turkumdagi negizlardan mavhum otlar yasaydi.

-lik (-liq) affiksi mavhum ot yasovchi eng faol qo'shimcha bo'lib, quyidagi negizlardan ot yasaydi: sifatlariga qo'shilib belgi, xususiyat ifodalovchi otlar yasaydi: *go'zallik, soflik*; otlarga qo'shilib holat ifodalovchi mavhum ot yasaydi: *do'stlik, dushmanlik*; ravishga qo'shilib, harakatning mavhum miqdorini ifodalaydi: *tezlik, ko'plik*; -liq qo'shimchasi bor modal so'ziga qo'shilib, mavhum ot yasaydi: *borliq*.

-chilik affiksi murakkab qo'shimcha (chiqlik) bo'lib, ot, sifat negizlarga qo'shilib, kasb-hunar bildiruvchi mavhum ot yasaydi: *to'qimachilik, paxtachilik*.

-garchilik affiksi ham murakkab (gar-chi-lik) affiks bo'lib, holat bildiruvchi mavhum ot yasaydi: *yog'ingarchilik, loygarchilik*.

-sh(-ish) affiksi fe'l negizlariga qo'shilib harakat oti yasaydi: *yig'ilish, qurilish*.

2. Sintaktik usul bilan **qo'shma va juft otlar** yasaladi.

Ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro ma'no va grammatik jihatdan birikishi asosida hosil bo'lgan otlar qo'shma otlar deyiladi.

Qo'shma otlar tarkibi quyidagi so'zlardan tashkil topadi: ot+ot: *belbog'*; sifat+ot: *oq qush*; son+ot: *uchburchak*; ot+fe'l: *o'rinbosar*; fe'l+fe'l: *iskaptopar*; son+fe'l: *beshotar*.

Qo'shma otlar quyidagicha yoziladi:

a)ikki yoki undan ortiq so'zlarning birikuvidan tashkil topib, bir ma'no ifodalaydigan, bir urg'u bilan aytiladigan otlar qo'shib yoziladi: *qo'shchinor, ko'zoynak*;

b)ikki yoki undan ortiq so'zlarning birikuvidan tashkil topib, alohida urg'u bilan aytiladigan tarkibi qo'shma otlar ajratib yoziladi: *er yong'oq*.

Juft otlar tarkibi quyidagicha so'zlardan tashkil topadi:

a)o'zaro ma'nodosh bo'lgan so'zlardan : *mehr-shafqat, shon-shuhrat*;

b) bir-biriga antonim bo'lgan so'zlardan: *yosh-qari, ost-ust*.

Juft otlar chiziqcha bilan yoziladi:-u,-yu bog'lovchi vositalari bo'lsa, chiziqcha qo'shilmaydi.

3.Nutqda qisqalikka erishish maqsadida bir qator tarkibli otlar qisqartirilib qo'llaniladi. Bunday otlar qisqartma otlar deyiladi.

Qisqartma otlar quyidagicha shakllardan iborat bo'ladi:

a)so'zlarning bosh harflari olingan holda so'z qisqartiriladi: BMT, ADU;
b)birinchi so'zning birinchi bo'g'ini, keyingi so'zlarning bosh harflari: O'zRFA, O'zMU;

v)so'zlarning birinchi bo'g'inlari: pedfak, filfak;

g)birinchi so'zning birinchi bo'g'ini, keyingi so'z to'la olinadi: pedkollej, medkollej.

4.Bir otni takrorlash bilan hosil bo'lgan takroriy otlar ham bor: *Suv tarab qo'yilsa, ekinning tomir-tomiriga singadi*. Ba'zan ikkinchi so'zda tovush almashishi mumkin: *choy-poy, osh-posh*.

5.Otlar tuzilishi jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1)Sodda otlar: a) sodda tub otlar; b) sodda yasama otlar. Tub otlar so'z yasovchi qo'shimcha olmagan otlardir: *kitobni, qalamlarim*. Yasama otlar so'z yasovchi qo'shimcha qo'shish yordamida yasalgan otlardir: *kitobxonni, qalamdonim*.

2) Qo'shma otlar: *qo'lqop, ko'zoynak*.

3) Qisqartma otlar: *MDH, pedkengash*.

4) Juft otlar: *em-hashak, ko'rpa-yosti*

5) Takroriy otlar: *choy-poy, in-iniga*.

Juft va takroriy otlar orasiga chiziqcha qo'yib yoziladi. Agar juft otlar o'rtasida ikki otni bir-biri bilan bog'laydigan *u, yu* tovushlari bo'lsa, kirill yozuvida chiziqcha qo'yilmaydi. Takroriy otlar bir otni takrorlash yordamida hosil qilinadi. Tilimizda takrorlangan, so'zning boshida kelgan undosh *p* yoki *m* undoshidan biriga almashadigan yoki unli tovushdan oldin *p* tovushi orttiriladigan *choy-poy, non –pon, osh-posh* kabi takroriy otlar ham bor.

6.Modal shakllarning mavjudligi otlarning morfologik jihatdan o'ziga xos muhim belgilardan biridir. Modal shakllar otdan anglashilgan ma'noga turli his-hayajon ma'nolarini qo'shadigan shakllaridir. Modal shakllar yordamida lug'aviy ma'noga qo'shimcha ravishda erkalash, kichraytirish, hurmat, qarashlilik, chegara, o'rin belgisi kabi shakllar hosil bo'ladi.

a)kichraytirish shakllari: *-cha,-choq,-chiq; kitobcha, qo'zichoq, qopchiq;*

b)erkalash shakli:*-jon,-xon,-oy,-niso-chak; Sherjon, Oyxon, Tursunoy, Zebuniso, kelinchak;*

v) hurmat shakli:*-lar; dadamlar, onamlar;*

g) qarashlilik shakli:*-niki; meniki, seniki;*

d) chegara shakli:*-gacha (-kacha,-qacha): uygacha, yozgacha;*

e) o'rin belgisi shakli:*-dagi: erdagi, uydagi.*

Ot so'z turkumi tahlili namunasi	
1.So'rog'i 2.Ma'no turi (atoqli va turdosh otlar, turdosh otlarning turi). 3.Birlik yoki ko'pligi (soni) 4.Kelishigi 5.Egalik qo'shimchasi bo'lsa, uning shaxs-soni aniqlanadi	6.Kichraytirish, erkalash, hurmatlash ma'nolari bo'lsa, aniqlanadi. 7.Tuzilish turi. 8.Tub yoki yasamaligi 9.Gapdagi sintaktik vazifasi

7-mavzu: SIFAT-SO'Z TURKUMI. SIFAT DARAJALARI SIFATLARNING OTLASHISHI

Reja:

1. Sifatning ma'nosi va grammatik belgilari
2. Asliy va nisbiy sifatlar
3. Sifat darajalari
4. Sifatlarning otlashishi

Tayanch tushunchalar: sifat, asliy sifat, nisbiy sifat, daraja, oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja, sifatlarning otlashishi, sifatlovchi-aniqlovchi.

1. Predmetning belgisini bildiruvchi mustaqil so'zlar sifat deyiladi. qanday?, qanaqa? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Sifat belgi sifatida predmetning rangini (*qora, oq*), Shakl

ko'rinishini (*yassi, yumaloq*), hajm o'lchovini (*tor, og'ir*) maza-ta'mini (*shirin, nordon*), sifatini, xususiyatini (*oddiy, dono*), o'rin yoki vaqtga bo'lgan munosabatini (*kuzgi, yozgi*) ifodalaydi.

Sifat narsa-hodisaning, predmetning belgisini bildirgani uchun gapda doimo ot bilan bog'lashib keladi: *qiziqarli kitob, a'lochi talaba*.

O'zbek tilida sifat boshqa so'z turkumlaridan o'ziga xos ma'nosi, maxsus sifat yasovchi affikslarga va shakl yasovchi affikslarga ega ekanligi bilan farqlanib turadi. Grammatik jihatdan narsa belgisini boshqa narsa belgisi bilan qiyoslab, darajalab ko'rsatish yoki predmet belgisini kuchaytirib va kamaytirib ko'rsatish xususiyatiga ega.

Sifatlar gapda ko'pincha sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida keladi. Bundan tashqari, kesim va hol vazifasida ham keladi. Sifatlar otlashib kelganda gapda ega, to'ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi vazifalarida keladi.

2. Sifatlar anglatgan ma'nolarga ko'ra bir xil emas. Ba'zi sifatlar bevosita, to'g'ridan-to'g'ri narsa belgisini ko'rsatsa, ba'zilar esa belgi ma'nosini bir narsaning boshqa predmetga bo'lgan munosabatiga ko'ra anglatadi.

Belgini bevosita anglatadigan sifatlar asliy sifat deyiladi: *oq, keng, yomon, katta*.

Belgini bir narsaning boshqa narsaga bo'lgan munosabatiga ko'ra anglatadigan sifatlar nisbiy sifat deyiladi. Nisbiy sifat maxsus so'z yasovchi affiks vositasida boshqa so'z turkumlaridan yasaladi: *-li, -iy (-viy), -lik, -simon, -dagi, -gi, -ki*. Bu qo'shimchalar yordamida quyidagi ma'nolarni ifodalovchi sifatlar yasaladi:

a) narsaga nisbat berish ma'nosini bildiruvchi nisbiy sifatlar: *devoriy gazeta, shaxsiy ish, aqlli yigit*;

b) vaqtga nisbat berish ma'nosidagi nisbiy sifatlar: *kuzgi bug'doy, kechki pomidor*;

v) o'ringa nisbat berish ma'nosidagi nisbiy sifatlar: *janubiy kenglik, shaharlik talaba*.

Asliy va nisbiy sifatlar belgi anglatish xususiyati jihatidagina emas, balki bir qancha morfologik belgilari bilan ham bir-biridan farq qiladi. Asliy sifatlar belgining ortiq yoki kamligini ifodalovchi shakl yasalishi, daraja kategoriyasi mansub, nisbiy sifatning ko'pchiligi esa bunday xususiyatga ega emas.

3. Predmetdagi belgini boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga nisbatan farqlash hodisasi sifat darajalari deyiladi. Sifat darajalari predmetdagi bir xil belgini bir-biriga chog'ishtirish, solishtirish asosida yuzaga keladi. Sifatlar uch xil daraja mavjud: oddiy daraja, ozaytirma daraja, orttirma daraja.

Predmet belgisi boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga qiyoslanmasa oddiy daraja deyiladi: *epchil, chiroyli*.

Ozaytirma daraja belgining kamligini, ozligini bildiradi. Bu ma'no ikki usul bilan ifodalanadi: leksik usul, morfologik usul. Leksik usulda darajaning kuchsizligi maxsus so'zlar yordamida hosil qilinadi: *sal durust, bir oz yaxshi*. Morfologik usulda darajaning kuchsizligi-roq affiksi yordamida ifodalanadi: *kattaroq, ozroq*.

Rang-tus bildiruvchi sifatlarda predmetning belgisi kamligi, kuchsizligini ko'rsatuvchi shakl ham ishlatiladi: *-ish, -(i) shtir*.

Ikki predmetning belgisi o'zaro qiyoslanganda, *-roq* affiksli sifat bildirgan belgi darajasi boshqa predmetning belgi darajasidan kuchliroq bo'ladi: *Havo kechagidan bugun sovuqroq*. Lekin bunday hollarda ham-roq affiksi darajaning kusilligini ifodalanmaydi.

Orttirma darajada belgining oddiy holatdan ortiq, kuchliligi ifodalanadi. O'zbek tilida belgining ortiq darajasini bildiruvchi maxsus affiks yo'q. Bu ma'no bir necha bilan ifodalanadi:

a) fonetik usul. Sifatning bosh qismini olib, shu sifatning oldidan qo'shib takrorlash yo'li bilan yasaladi: *yum-yumaloq, but-butun, qip-qizil, ko'm-ko'k, soppa-sog', to'ppa-to'g'ri*;

b) leksik usul. Belgining ortiqlik darajasi maxsus so'zlar yordamida ifodalanadi: *juda yaxshi, g'oyat qadrlil, nihoyatda baland, g'irt yolg'on, jiqqa ho'l, baridan go'zal*;

4. Sifatning otlashuvi uning gapda ot bajaradigan sintaktik vazifada kelishidir. Sifatlanmish tushirib qoldirilsa, sifat o'sha otning Shakliy belgilarini qabul qiladi hamda uning sintaktik vazifasini bajaradi. *Yaxshi, qizil, yomon, katta* kabi sifatlardan belgi ma'nosi

anglashiladi, *yaxshiga, yomondan, qizilini* deyilganda esa shu belgiga ega bo'lgan shaxs yoki narsa ma'nosi anglashiladi.

8-mavzu: SIFATLARNING YASALISHI. SIFATLARNING TUZILISHI JIHATIDAN TURLARI

Reja:

1. Sifat yasovchi qo'shimchalar bilan sifatlarning yasalishi.
2. So'zlarni qo'shish, takrorlash, juftlash yo'li bilan sifatlarning yasalishi.
3. Sifatlarda modal Shakl.
4. Sifatlarning tuzilishi jihatdan turlari

Tayanch tushunchalar: yasaliş, sifat, affiksatsiya, sintaktik usul, morfologik usul, modal shakl.

1. Boshqa so'z turkumlari singari, sifat ham yangi so'zlar bilan boyib boradi. Yangi so'zlar morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi. Morfologik usul bilan sifat yasash eng sarmahsul usuldir. So'z o'zak, negiziga maxsus sifat yasovchi qo'shimchalar qo'shish orqali yangi sifatlar yasalishi morfologik-affiksatsiya usuli bilan sifat yasalishi deyiladi. O'zbek tilida sifat yasovchi qo'shimchalar boshqa turkumlardan farqli ravishda o'zakdan oldin va keyin qo'shiladigan holda ham sifat yasaydi. O'zakdan oldin qo'shilib sifat yasovchi qo'shimchalar tojik tilining ta'siri natijasida yuzaga kelgan.

Sifat yasovchi qo'shimchalar qo'shish usuli bilan sifat yasalişida ko'pincha ot va fe'l, ba'zan ravish so'z turkumlari asos bo'ladi.

Sifat yasalişida quyidagi qo'shimchalar qatnashadi:

-li. Bu affiks eng faol bo'lib, asosan, ot, qisman siftdosh va ravishdoshlarga qo'shilib sifat yasaydi: aqli, mevali, tushunarli, borishli –li qo'shimchasi o'zakdan anglashilgan tushunchaga egalikni, narsa-buyumning biror ish uchun yaroqli, unga mos ekanini bildiradi.

-siz. Ot negizlarga qo'shilib, negiz orqali ifodalangan predmetga ega emaslik ma'nosidagi sifatlar yasaydi: *suvsiz, tuzsiz*.

-iy (-viy). Ot negizlarga qo'shilib, negiz orqali ifodalangan predmetga aloqadorlik ma'nosidagi sifatlar yasaydi: *ilmiy, tarixiy, oilaviy*.

-qi, -qir, -ki. Ot, ravish va ko'makchilarga qo'shilib, o'rin, payt va joyga xoslikni bildiruvchi sifatlar yasaydi: *kuzgi, qishki, tashqi*.

-chan. Ot, harakat nomi va ravishdoshlarga qo'shilib, negiz orqali ifodalangan ma'noning ortiqqligini bildiruvchi sifatlar yasaydi: *qiziquvchan, talabchan*.

-chil. Ot negizga qo'shilib, negiz orqali ifodalangan predmet belgisini ortiq ekanligini bildiruvchi sifatlar yasaydi: *epchil, dardchil*.

-simon. Ot negizlarga qo'shilib, negiz orqali ifodalangan predmet ma'nosiga o'xshashlikni bildiruvchi sifatlar yasaydi: *odamsimon, toshsimon*.

-parvar. Ot negizlarga qo'shilib, negiz orqali ifodalangan predmet ma'nosi bilan bog'liqlikni ifodalovchi sifatlar yasaydi: *vatanparvar, adolatparvar*.

ser- ot turkumidagi so'zlarga qo'shilib, negiz orqali ifodalangan predmetning ko'pligini, ortiqqligini bildiruvchi sifatlar yasaydi: *sersuv, serhosil*.

ba- otlarga qo'shilib, o'zakdan anglashilgan ma'noga egalikni bildiradi: *badavlat, baquvvat*.

Yuqoridagilardan tashqari -be, -no, -bad, -r (-ar), -sh(-ish), -aki, -ag'on, -mon, -ma, -in, -parast, -xo'r, -don, -mand, -dor, -dek, -day, -k, -q, -ik, -iq, -ak, -qoq, -g'oq, -chak, -chiq, -g'in, -qin, -kin, -kir, -chir, -qir, -chi, -ki, -dagi, -on, -ong'ich, -ovus, -kor, -gar, -ildoq, -vor, -xush, -kash, -bar, -bop, -mon, -loq, -namo, -ga qo'shimchalari bilan ham sifatlar yasaladi.

2. So'zlarni qo'shish, juftlash va takrorlash yo'li bilan qo'shma, juft sifatlar yasaladi. Sintaktik usul bilan qo'shma va juft sifatlar yasaladi. Ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topib, bir belgi anglatadigan sifatlar qo'shma sifatlar deyiladi. Qo'shma sifat qismlari orasidagi

sifatlovchilik munosabatining yo'qolishi natijasida ular qo'shilib ketib, yaxlit bir leksik birlik sifatida belgi ma'nosini anglata boshlaydi va qo'shma sifatga aylanadi: *qimmatbaho, olachipor*.

Qo'shma sifatni sifat birikmalardan farqlash kerak. Sifat birikma tarkibidagi qismlarning sifatlovchilik munosabati saqlangan bo'ladi.

Qo'shma sifat qismlar qaysi so'z turkumlaridan ekanligiga qarab quyidagicha bo'ladi:

- ikki sifatdan: *qorasovuq, xomsemiz*;
- ikki otdan: *bodomqovoq, otashqalb*;
- sifat va otdan: *sofdil, oliyjanob*;
- son va otdan: *besh kokil, uchburchak*;
- ot va fe'ldan: *tinchliksevar, erksevar*;
- ravish va fe'ldan: *ertapishar, tezoqar* va boshqalar.

Bir belgi asosida ikki sifatning teng bog'lanishidan hosil bo'lgan sifatlar juft sifat deyiladi. Juft sifatlar quyidagicha hosil bo'ladi:

a)ma'nodosh yoki ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan sifatning birikuvidan: *egri-bugri, qing'ir-qiyshiq*.

b)qarama-qarshi ma'noli sifatning birikuvidan: *yaxshi-yomon, katta-kichik*.

So'zlarni takrorlash bilan ham sifat yasaladi: bu usul yordamida sannoqli miqdordagi sifatlargina yasaladi: *yo'l-yo'l (ko'ylak), manman (odam), shiq-shiq (tugma), lip-lip (chiroq)*.

3.Sifatlarda darajalardan tashqari belgining ortiq yoki kamlik ma'nolari ham ifodalanishida muayyan belgi boshqa predmet belgisiga qiyoslanmaydi. Bunday shakllar sifatning modal shakllari deyiladi. Sifatning modal shakllariga quyidagilar kiradi.

- a) belgining kuchraytirish shakli;
- b) belgining kamlik shakli;
- v) noaniqlik shakli;
- g) belgining ko'plik shakli.

Belgining kuchaytirish shakli belgini ortiq darajada ekanligini ifodalaydi: *qip-qizil, ko'm-ko'k, uzundan-uzun, to'ppa-to'g'ri, tim-qora, liq to'la*. Belgining kuchaytiruv shakli sintaktik usul bilan hosil bo'ladi.

Belgining kamlik shakli asosan rang bildiruvchi sifatlarda mavjud bo'lib, bunda belgining odatdagidan kamligi ifodalanadi. Belgining kamligi morfologik usul bilan hosil bo'ladi. Bunda rang bildiruvchi sifatlarga *-sh,-ish, -mtir,-imtir,-g'imtir* qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil bo'ladi.

Belgining ko'pligi sifatning takrorlash orqali ham hosil bo'ladi: *uzun-uzun, katta-katta*.

Belgining noaniq shakli sifatning juftlashishi asosida vujudga keladi. Ayrim tovush o'zgarishi asosida juftlashgan sifatlar noaniq belgini hosil qiladi: *g'adir-budir, chala-chulpa*.

Sifatlarga *-gina (-kina,-qina)* qo'shimchasini qo'shish orqali ham sifatning modal shakli hosil bo'ladi: *yaxshigina, g'aribgina*.

4.Sifatlar tuzilishi jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi

1).Sodda sifatlar bir o'zakdan iborat bo'ladi: *aqli, yaxshi*

2).Qo'shma sifatlar – rahmdil, ertapishar, havorang. Bunday sifatlar: a) ikki tub so'zdan tashkil topib, otqot (*kulcha yuz bola*). Otqsifat, sifatqot (*sovuqqon*), ravishqot ko'rinishlarida bo'ladi. *Ommabop, xom semiz (yigit), kamgap*; b) biri tub, ikkinchisi yasama so'zdan iborat bo'ladi: *sovuqqon, ishyoqmas, erksevar, tilbilmas*.

3).Birikmali sifatlar: *uzun tolali (paxta), yoshi ulug' (inson), gapga usta (odam)*, oqishdan kelgan (*yigit*).

4).Juft sifatlar: *o'ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq*.

5).Takroriy sifatlar: *baland-baland, uzun-uzun, yo'l-yo'l (ko'ylak)*

Sifat so'z turkumi tahlili namunasi	
1. So'rog'i	5. Tuzilish turi.
2. Darajasi	6. Tub yoki yasamali
3. Ozaytirma yoki kuchaytirma sifat	7. Gapdagi sintaktik vazifasi

ekanshligi	
4. Otlashgan yoki otlashmagan- ligi	

9-mavzu: SON-SO'Z TURKUMI. MA'NO TURLARI. SONLARNING OTLASHISHI. SONLARNING TUZILISHI JIHATIDAN TURLARI

Reja:

1. Sonning leksik-grammatik belgilari
2. Sonning ma'no turlari
3. Sonlarning otlashishi
4. Hisob so'zlari
5. Sonlarning qo'llanishiga ko'ra turlari
6. Sonlarning tuzilishiga ko'ra turlari

Tayanch tushunchalar: son, sanoq son, tartib son, miqdor son, chama son, dona son, jamlovchi son, taqsim son, butun son, kasr son, sodda son, qo'shma son, juft son, aniqlovchi.

1. Predmetning son-sanog'i, miqdori va joylashish tartibini bildiradigan so'zlar son deyiladi. Sonlar qancha?, necha?, nechanchi? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Sonlar otga bog'lanib, uning sanog'ini, miqdorga bog'liq tartibini va otga bog'lanmagan holda mavhum miqdor tushunchasining nomini (*uch bilan to'rt etti bo'ladi, besh karra besh yigirma besh* kabi) bildiradi.

Miqdor tushunchasi juda mavhum bo'lgani sababli, uni ifodalovchi so'z ham mavhum xususiyatga ega. Son shu xususiyati bilan boshqa so'z turkumlaridan farq qiladi.

Sonlar tildagi eng kam tub so'zlari mavjud so'z turkumlaridan hisoblanadi. Binobarin, boshqa so'z turkumlaridan son yasalmaydi.

Hozirgi o'zbek tilida faoli ishlatiladigan 22 ta tub son mavjud. Qolgan sonlar shu sonlarning o'zaro qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Sonlar harf bilan ham, raqam bilan ham yoziladi. Bunda arab va rim raqamlari qo'llaniladi.

Sonlar so'z turkumi sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

- sonlar boshqa so'z turkumlaridan yasalmaydi;
- sonning muhim morfologik belgilaridan biri turlanmasligidir. Ular ot oldidan kelib, otning miqdorini, sanog'ini ifodalab, aniqlab keladi;
- sonlar otlashganda ot bilan bog'lanmaydi. Sonlar ot kabi kelishik qo'shimchalarini olib gapda ot bajargan vazifalarda keladi;
- sonning modal Shakllari songa maxsus son shaklini yasovchi qo'shimchalar qo'shish bilan hosil bo'ladi;

-son miqdor tushunchasining nomini angalatganda va otlashganda kelishik, egalik affikslerini qabul qiladi, ot bajargan vazifada keladi;

-son narsa miqdorini turli tomondan aniqlash uchun sanoq bildiruvchi so'zlar-numerativlar bilan ham qo'llaniladi.

Sonlar quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:

a) ot oldidan kelib aniqlovchi vazifasida keladi;

b) fe'l oldida kelib hol vazifasini bajaradi;

v) ot yoki fe'lga bog'lanmagan holda ega, to'ldiruvchi, qaratqichli aniqlovchi vazifasida keladi.

Sonlar orasida ma'no va grammatik xususiyatlari jihatidan **bir** soni alohida ajralib turadi.

2. Sonlar ma'no xususiyati va grammatik belgilari jihatidan dastlab ikkiga bo'linadi: miqdor son, tartib son.

Miqdor sonlar ma'no jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi: sanoq son, dona son, chama son, taqsim son, jamlovchi son.

Bosh shakl orqali ifodalangan miqdor nomlariga **sanoq** sonlar deyiladi: bir, o'n, ming.

Predmet miqdorini **donalab** ifodalaydigan sonlar dona son deyiladi. Dona sonlar sanoq songa-*ta* qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi: *beshta, uchta*.

Predmetning taxminiy miqdorini bildirgan sonlar **chama** sonlar deyiladi: *o'ntacha, minglab*. Chama sonlar son asosiga-*tacha, -lab* qo'shimchalari qo'shish orqali hosil qilinadi.

Predmet miqdorini taqsimlab ifodalaydigan sonlarga **taqsim** son deyiladi va ular -*tadan* qo'shimchasi orqali hosil qilinadi.

Predmet miqdorini jamlab ko'rsatgan sonlarga jamlovchi sonlar deyiladi. Jamlovchi sonlar sanoq songa -*ov, -ala* ba'zan-*ovlon* qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi.

Predmetning tartibini bildirgan sonlarga tartib son deyiladi. Tartib sonlar sanoq sonlarga -*inchi, -nchi* qo'shimchalarini qo'shish yo'li bilan hosil bo'ladi.

Tartib sonlar so'z bilan yozilganda -*nchi* (-*inchi*) qo'shimchalari so'zga qo'shib yoziladi: *ikkinchi*.

Tartib sonlar arab raqami bilan ifodalanganda qo'shimchalar o'rnida chiziqcha qo'yiladi: *2-sinf, 15-xona*. Yil, oy chislolarda esa chiziqcha qo'yilmaydi. Tartib son rim raqami bilan ifodalanganda hech qanday belgi qo'yilmaydi: *XXI asr, XV sessiya*.

Tartib sonlar otlashganda gapda ega vazifasida keladi.

3. Gapda son bog'langan ot tushib qolishi mumkin. Bunday holda son otlashadi. Otlashgan son xudi otlarga o'xshab egalik, ko'plik va kelishik qo'shimchalarini oladi: *beshta, ikkimiz, o'ninchilar*. Bunday sonlar gapda ega, to'ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi, undalma vazifalarini bajaradi.

4.Miqdor sonlar bilan qo'llanib, noaniq miqdor tushunchasini ifodalaydigan so'zlar **hisob so'zlar (numerativlar)** deb ataladi: besh so'm, o'n gramm, yuz yil. Bunday so'zlar aslida ot turkumiga mansub bo'lib, o'z lug'aviy ma'nolarini qisman yo'qotgan holda noaniq miqdor ifodalaydigan bo'lib qolgan so'zlardir.

Hisob so'zlari quyidagi guruhlariga bo'linadi: a) predmetlarni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan (*dona, nusxa, tup, bosh, nafar*); b) butunning qismini hisoblash uchun (*parcha, varaq, burda, og'iz, luqma, siqim, tilim, chimdim, qultim, yutum, xo'plam, tomchi, chaqmoq, nimta, to'g'ram, poy, bo'lak, shingil*); b) to'dalab ko'rsatuvchi (*gala, to'p, guruh, to'da, dasta, bog', quchoq, shoda, hovuch*); v) juftlab ifodalovchi (*juft, para*); g) og'irlikni o'lchaydigan (*gramm, kilogramm, pud, misqol, qadoq, qaysar*); d) uzunlik o'lchovini bildiradiganlar (*metr, kilometr, quloq, qadam, qarich*); e) yosh o'lchovini bildiradigan (*yashar, yoshlik, oylik, kunlik*); j) vaqt o'lchovini bildiradigan (*soniya, daqiqa, soat, kun, yil, asr*); z) qiymat o'lchovini ifodalaydigan (*so'm, tiyin, tanga*). Bulardan tashqari, quyidagi hisob so'zlari son va fe'l orasida kelib, harakat miqdorini bildiradi: *marta, navbatta, kara, bor, hissa, sidra*.

5.Sonlar qo'llanishiga ko'ra ikki xil: butun va kasr son. Butun sonlar predmetning butunligicha, qismlarga ajratmagan holda ifodalaydi: *etti, o'n ikki*.

Kasr sonlar butunning qismini ifodalaydi: *yarim, besh yarim*. Kasr sonlar quyidagicha hosil bo'ladi: -butun son bilan kasr sonning qo'shilishidan; *uch yarim*; -chiqish kelishidagi son bilan asosiy shakldagi sonning birikuvidan: *oltidan bir, o'ndan ikki*; -mazmunan butun emaslikni bildiruvchi so'zlar bilan: *chorak, yarim*.

6.Sonlar tuzilishiga ko'ra uch xil: sodda sonlar, qo'shma sonlar, juft sonlar.

Birgina o'zakdan iborat sonlar sodda sonlar deyiladi. O'zbek tilidagi 22 ta tub son sodda sonlardir. Bu sonlar boshqa qo'shma va juft sonlarni vujudga keltiruvchi sonlardir.

Ikki yoki undan ortiq sonlarning birikuvidan tashkil topib, bir miqdor tushunchasini bildiruvchi sonlar qo'shma sonlar deyiladi: *o'n besh, bir yuz oltmish*.

Ikki sonning ketma-ket kelishi asosida o'zaro teng bog'lanishdan hosil bo'lgan sonlar juft sonlar deyiladi. Juft sonlar quyidagicha hosil bo'ladi: ikki sonning teng bog'lanishidan (*ikki-uch*); o'nliklarning ketma-ket kelishidan (*oltmish-etmish*); beshliklarning ketma-ket kelishidan (*besh-o'n*); yuzlik va mingliklarning ketma-ket kelishidan.

Son so'z turkumi tahlili namunasi	
1.So'rog'i	5.Otlashgan yoki otlashmaganligi.
2.Butun yoki kasrligi	6.Tuzilish turi.
3.Ma'no turi	7.Gapdagi sintaktik vazifasi
4.hisob so'zi bor-yo'qligi	

10-,11-mavzu: **OLMOSH-SO'Z TURKUMI. OLMOSHNING MA'NO TURLARI. OLMOSHNING TUZILISHI JIHATDAN TURLARI**

Reja:

1.Olmoshning ma'nosi va grammatik belgilari

2. Kishilik olmoshlari
3. O'zlik olmoshlari
4. Ko'rsatish olmoshlari
5. So'roq olmoshlari
6. Belgilash olmoshlari
7. Bo'lishsizlik olmoshlari
8. Gumon olmoshlari
9. Olmoshning tuzilish jihatdan turlari

Tayanch tushunchalar: olmosh, ot, sifat, son, ravish, kishilik olmoshi, o'zlik olmoshi, ko'rsatish olmoshi, belgilash olmoshi, so'roq olmoshi, bo'lishsizlik olmoshi, gumon olmoshi.

1.Ot, sifat, son, ravish kabi so'z turkumlari o'rnida qo'llanib, ularni ko'rsatishga xizmat qiluvchi va ularning vazifasini bajaruvchi so'z turkumi olmosh deyiladi. Olmoshlar narsani, uning belgisi va miqdorini anglatmaydi, balki faqat ularni ko'rsatish, ularga ishora qilish uchun xizmat qiladi. Olmoshning ma'nosi, uning qaysi so'z turkumi o'rnida kelganligi kontekstda yoki vaziyat orqali aniqlanadi. Olmoshlarning ko'pchiligi alohida olingandan juda umumiy, mavhum ma'noga ega.

Olmoshlar ma'nosi va xususiyati jihatidan, qaysi so'z turkumi o'rnida kelishiga qarab umumlashgan predmet (olmosh-ot), umumlashgan belgi (olmosh-sifat), umumlashgan miqdor (olmosh-son) bildiruvchi olmoshlarga ajratiladi.

Narsani bildiruvchi olmoshlar predmetni ko'rsatadi, shu sababli ot kabi kelishik bilan turlanadi, gapda ot bajargan vazifalarda kelsa ham ham otlardan farq qiladi. Otlarda kelishik affiksi tushib qolishi mumkin: *kitobni oldim-kitob oldim* kabi. Olmoshlarda esa kelishik affikslari tushib qolmaydi.

Olmoshlar sintaktik xususiyatlari bilan ham otlardan farq qiladi. Umumlashgan narsa bildiruvchi olmoshlar sifatlar va qaratqich kelishigidagi ot tomonidan aniqlanmaydi. Olmoshda yasaliş xususiyati yo'q, shakl yasaliş xususiyati esa u qadar kuchli emas.

Olmoshlar anglatgan ma'nolari va grammatik belgilariga qarab quyidagi turlarga bo'linadi: *kishilik olmoshlari, o'zlik olmoshi, ko'rsatish olmoshlari, belgilash olmoshlari, so'roq olmoshlari, bo'lishsizlik olmoshlari, gumon olmoshlari*.

2.Kishilik olmoshlari shaxs o'rnida qo'llanadi: *men, sen, u, biz, siz, ular*. Kishilik olmoshining birinchi va ikkinchi shaxsi (*men, sen, biz, siz*) narsalarni ko'rsatish xususiyatiga ega emas, faqat shaxs o'rnida keladi. Uchinchi shaxs (*u, ular*) esa shaxsni ham, narsalarni ham ko'rsata oladi.

Men, sen olmoshlari ko'plik shakliga ega emas.

Kishilik olmoshining ikkinchi shaxs ko'pligi **siz** ko'pincha bir shaxsga nisbatan hurmat ma'nosida qo'llaniladi.

Biz olmoshi ham ba'zan men o'rnida qo'llaniladi.

Kishilik olmoshining uchinchi shaxsi nutq jarayonida qatnashmagan o'zga shaxs yoki predmetlarni ko'rsatadi. Gapda ot bajargan vazifalarda keladi kim?, nima? so'roqlariga javob bo'ladi. *U* ko'rsatish olmoshi esa shaxs va narsani aniqlashga, ko'rsatishga xizmat qiladi, qaysi? so'rog'iga javob bo'ladi, gapda sifatlovchi vazifasini bajaradi.

Kishilik olmoshining kelishiklar bilan turlanishi otlarga o'xshaydi. *men, sen* olmoshlari qaratqich va tushum kelishigi bilan turlanganda bita *-n* tushirib qoldiriladi, *u* olmoshi jo'nalish, chiqish va o'rin-payt kelishigi bilan turlanganda, *-n* orttiriladi.

Kishilik olmoshlari bosh kelishik shaklida bo'lsa, gapda ega, qolgan hollarda to'ldiruvchi, qaratuvchi vazifalarini bajaradi.

3.O'zlik olmoshi **o'z** so'zidan iborat bo'lib, kishilik olmoshi yoki otning ma'nosini oydinlashtiradi.

O'zlik olmoshi quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

- 1)O'zlik olmoshi egalik affiksini olib, har uchala shaxs kishilik olmoshini ko'rsata oladi;

2) O'zlik olmoshi ot bilan bog'langanda, otga egalik affiksi qo'shiladi va o'zlik olmoshi bilan ot qaysi shaxsga qarashli ekanligini ifodalaydi. O'zlik olmoshi qaratqich kelishigi shaklida kelsa, ta'kid ma'nosi anglashiladi;

3) O'zlik olmoshi kelishiklar bilan turlanish uchun avval egalik affiksini qabul qiladi;

4) O'zlik olmoshi egalik affikslarini olib, bosh kelishik shaklida fe'lga bog'lansa, ega ta'kidlab ko'rsatadi;

5) O'zlik olmoshi gapda aniqlovchi, shuningdek, kesim, to'ldiruvchi vazifasida keladi.

4. Ko'rsatish olmoshlari shaxs, narsani va ularning belgisini, bir turdagi narsalardan bittasini ajratib ko'rsatish, ta'kidlash uchun xizmat qiladi. Ko'rsatish olmoshlari: *bu, shu, u, o'sha, mana bu, mana shu, ana shu, ana u.*

Ko'rsatish olmoshlari so'zlovchi bilan ko'rsatayotgan narsa orasidagi masofa uzoq-yaqinligiga, voqea sodir bo'lgan vaqtga qarab ishlatiladi, ma'nolari ham shu asosda aniqlanadi. Bu olmosh so'zlovchiga ancha ayon bo'lgan, so'zlovchiga nisbatan yaqin masofada turgan narsa, voqeani ko'rsatishga xizmat qiladi: *Rahimjon bu ish bilan shaxsan o'zi shug'ullanmoqchi bo'ldi (A.Q)*

Shu olmosh ham bu olmoshi kabi ma'noga ega, ammo shu olmoshida ta'kid ma'nosi kuchli: Kamina ham uch yilga shu ish bilan shug'ullanib, oxiri natija chiqmay tashlab ketganman (O'.U.)

U olmoshi esa so'zlovchiga nisbatan ancha uzoqda turgan yoki ancha ilgari eslatib o'tilgan narsalarni ko'rsatadi.

O'sha ko'rsatish olmoshi so'zlovchiga ilgaridan ma'lum bo'lgan, ilgari eslatib o'tilgan narsa, vaqt yoki hodisani ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi.

Ko'rsatish olmoshlariga *mana, ana* so'zlarini qo'shib ham ishlatiladi. Shu bilan birga yakka holda ham ishlatiladi.

Ba'zan ta'kidni kuchaytirish uchun ko'rsatish olmoshi har bir ot oldidan yoki o'zi takrorlanib keladi: *Daf'atan bu tuproq, bu manzara, bu tarix, bu afsonalaru bu voqealar-barchasi o'ziniki ekani hali aqliga sig'dira olganicha yo'q (A.Muxtor).*

Aniqlanmish ot tushirib qoldirilsa, ko'rsatish olmoshi otlashib, o'sha predmetni ko'rsatish yo'li bilan bildiradi. Otlashgan ko'rsatish olmoshlari kelishik bilan turlanadi.

Ko'rsatish olmoshlari gapda asosan aniqlovchi va kesim vazifasini bajaradi.

5. So'roq olmoshlari predmet, uning belgisi va miqdori, ish-harakatning o'zni, payti va boshqa xususiyatlari haqida so'roqni bildiradi. So'roq olmoshlari *kim?, nima?, qanday?, qanaqa?, qachon?, qaysi?, qancha?, necha?* kabi olmoshlardir.

So'roq olmoshlaridan **kim** shaxslarga nisbatan, **nima** umuman narsalarga nisbatan ishlatiladi. Ular birlik va ko'plik Shakllarda kela oladi. Ot va otlashgan so'zlarning kelishik Shakllari va ularning sintaktik vazifalari odatda *kim?, nima?* so'roq olmoshlari orqali aniqlanadi.

Kim, nima olmoshlari gapda ega, kesim, qaratuvchi, to'ldiruvchi vazifalarida keladi.

Predmet va ish-harakatning belgisini aniqlash uchun *qanday, qanaqa* so'roq olmoshlari qo'llanadi.

Ko'rsatish olmoshlariga nisbatan *qaysi?, payt bildiruvchi so'zlar uchun qachon?*, sonlarga nisbatan *qancha?, necha?* va o'rin bildiruvchi so'zlarga nisbatan *qaer(-ga,-da,-dan)?* so'roq olmoshlari qo'llanadi.

Badiiy asarlarda *ne, na* so'roq olmoshlari ham ishlatiladi.

So'roq olmoshlaridan *qanday, qanaqa gapda sifatlovchi yoki hol; qaysi, qancha, necha* sifatlovchi va *qachon, qaer (-ga,-da,-dan)* o'rin va payt holi vazifasida keladi.

So'roq olmoshlari undov gaplarda hodisalar to'g'risida his-hayajon anglatishga xizmat qiladi: *Nega-buncha go'zal ko'rinar olam, Nega qarab to'ymas ko'zlaram.*

Darak gaplarda ham so'roq olmoshi so'roq ma'nosini bildirmasligi, javob talab qilmasligi mumkin.

So'roq olmoshlari ergashgan qo'shma gap tarkibida qo'llanganda bosh gapda ot yoki olmosh bilan ifodalangan biror bo'lakni aniqlaydi. Kimning ishi to'g'ri bo'lsa, uning yuzi yorug' bo'ladi.

So'roq olmoshlari ham kelishik, egalik affikslari bilan turlana oladi.

6. Belgilash olmoshlari shaxs va narsani, belgini biror xususiyati bo'yicha ajratib yoki jamlab, umumlashtirib ko'rsatadi. Bular: *har, har kim, har nima, har qanday, har qaysi, hamma, barcha, bari, butun* kabilar. *Mehnat har manglayda quyosh naqshidir.*

Belgilash olmoshlaridan *har, har kim, har nima, har qaysi, har qanday* kabilar shaxs, predmet va belgini ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi. Egalik va ba'zan ko'plik affiksini olganda esa, ayirish ma'nosini bildiradi. *Har kimning mehnati el baxti uchun.*

Hamma, bari, barcha, butun belgilash olmoshlari jamlash, umumlashtirish xususiyatiga egadir: *Butun xalq chapak chalib yubordi.*

Hamma, bari, barcha, butun belgilash olmoshlari birgalik ma'nosini ham anglatadi, ya'ni ma'lum harakat, voqea-hodisaning bajarilishida shaxs, predmetlarning birgaligi, umumiy ishtirok qilishi kabilarni ko'rsatadi.

Hamma, barcha, bari olmoshlari umumlashtirish asosida shaxs, predmetlarning o'zini ko'rsatishi, ular o'rnida qo'llanishi mumkin. Bu vaqtda otga xos kelishik, egalik affikslarini ham olib keladi.

Belgilash olmoshlari tuzilish jihatidan sodda (*har, hamma, barcha, bari, butun*) va qo'shma (*har kim, har nima, har qanday, har qaysi, har qancha*) bo'ladi.

Belgilash olmoshlaridan *har, har qanday, butun* kabilar gapda ko'pincha sifatlovchi vazifasini bajaradi.

Har kim, har nima, har qaysi, hamma, barcha, bari kabi belgilash olmoshlari bosh kelishik shaklida kelsa, gapda ega va kesim vazifasini bajaradi.

Bosh kelishikdan boshqa kelishik shakllarida qaratuvchi, to'ldiruvchi vazifasida keladi.

Belgilash olmoshi jamlik, umumiylik ma'nosini anglatgani uchun ko'pincha uyushiq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'z vazifasida ham qo'llanadi: *Yaxshi, ajoyib odamlarimizning qilgan, qilayotgan ishlari, orzulari, niyatlari, kelajak to'g'risidagi o'ylari - hamma narsa to'g'risida yozaman. (A.Q.)*

Belgilash olmoshlari egalik, kelishik affiksini olib turlanadi.

7. Bo'lishsizlik olmoshlar ot, sifat, son kabi turkum so'zlari anglatgan ma'no haqida inkor bildiradi. Bo'lishsizlik olmoshlari so'roq olmoshiga yoki bir, narsa so'zlariga inkor bildiruvchi hech so'zini qo'shish bilan hosil bo'ladi: *hech kim, hech nima, hech narsa, hech qancha, hech qanaqa, hech qaysi, hech qaer, hech qachon.*

Bo'lishsizlik olmoshlaridan *hech kim* shaxslarga nisbatan, *hech nima, hech narsa* umuman predmet bildiruvchi so'zlarga nisbatan qo'llanib, ularning inkorini bildiradi: Uning bu gapidan *hech kim* xafa bo'lmas, balki xursand bo'lardi.

Demak, bu olmoshlar har vaqt ot o'rnida keladi, unga xos son, egalik va kelishik affikslari bilan turlanadi, turlicha gap bo'lagi vazifasida qo'llanadi.

Hech qanday, hech qanaqa, hech qaysi, hech bir, hech qancha bo'lishsizlik olmoshlari belgi va miqdorning inkorini bildiradi:

Hech qaer, hech qayoq olmoshi o'rin kelishiklari shaklida kelib, o'rin, joyga nisbatan inkorni bildiradi: *Sizlar rozi bo'lmasalaring, hech qayoqqa bormaymiz. (A.Q.)*

Hech qachon, shuningdek, hech vaqt, hech mahal so'zlari paytga nisbatan inkorni ifodalaydi: *Boshlarga tushmasin hech qachon shu ko'zlarning hijron jafosi. (H.O.)*

Bo'lishsizlik olmoshi qatnashgan gap bo'lishsiz ma'noga ega bo'ladi, uning kesimi doim fe'lning bo'lishsiz shaklida keladi yoki inkor bildiruvchi so'z bilan ifodalanadi: *Hech kim buyurmagan bo'lsa ham, Ro'zimat eshik oldida uzun so'yil ko'tarib turardi. (A.Q.)*

Bo'lishsizlik olmoshlarining kelishik va egalik affikslari bilan turlanishi so'roq olmoshlariga o'xshaydi: *hech kimning, hech nimani, hech kimga, hech nimadan, hech kimimiz, hech nimangiz* kabi.

8. Gumon olmoshlari narsani, uning belgisi va miqdorini taxminiy ravishda ko'rsatadi. Bu olmosh qo'llagan gaplarda shaxs, narsa, belgi va son haqidagi tushunchalar noma'lum va noaniq bo'ladi.

Gumon olmoshlari quyidagicha yasaladi:

1. So'roq olmoshlari oldidan *alla-* morfemasini qo'shish bilan hosil qilinadi: *allakim, allanima, allaqanday, allaqachon, allaqanaqa, allaqaysi, allaqancha* kabi. Bu turdagi gumon olmoshlarining ishlatilishi so'roq olmoshlariga o'xshaydi. Shaxs va narsalarni taxminiy tarzda ko'rsatish uchun *allakim, allanima* olmoshlari qo'llanadi.

Allaqanday, allaqanaqa, allaqaysi, allaqaer (-ga,-dan,-da), allaqancha, allaqachon kabi olmoshlar esa belgi, miqdor, o'rin va paytni noaniq tarzda ko'rsatishga xizmat qiladi.

Ba'zan narsa, vaqt, mahal so'zlari *alla-* morfemasi bilan kelib, noaniq narsa va paytni ko'rsatadi: *Komila allamahalda uyga qaytdi.*

2. So'roq olmoshlariga *-dir* elementi qo'shish bilan yasaladi: *kimdir, nimadir, qandaydir, qachondir, qaysidir, qanaqadir, qaer (-ga,-dan,-da) dir* kabi. Bu xil gumon olmoshlarida ham noaniq shaxs va narsani ko'rsatish uchun *kimdir, nimadir* hamda o'rin, payt, belgi kabilarni taxminiy ravishda ko'rsatish uchun *qandaydir, qayerdadir, qayergadidir, qayerdandir, qachondir, qaysidir* kabi olmoshlar qo'llanadi.

Bulardan tashqari, noaniq narsa, belgi, miqdor kabilar bir so'zini so'roq olmoshlari bilan keltirish orqali ham ifodalanadi: *bir nima, bir narsa, bir qancha, bir necha: Saida daftarchasiga shoshib-pishib bir nimalar yozyapti.*

Noaniq shaxs ma'nosini ifodalashda birov so'zi ham gumon olmoshi kabi qo'llanadi.

Ba'zan biror, bir kun, bir vaqt kabi so'zlar ham gumon olmoshi ma'nosini ifodalab keladi: *Agar kishining hayoti biror maqsad, biror g'oya, bir orzu uchun kurash bilan o'tsa, bunday hayotga hech bir afsuslanmaslik kerak.*

Bosh kelishik shaklida kelgan gumon olmoshlari gapda ega va kesim, boshqa kelishik shakllarida esa aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol vazifalarida keladi.

9. Olmoshlarning tuzilishi jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1) Sodda olmoshlar barcha olmoshlar guruhida mavjud: *men, shu, o'z, kim, hamma, hech, birov.*

2) Qo'shma olmoshlar faqat ko'rsatish, belgilash, bo'lishsizlik olmoshlari guruhida mavjud: *ana shu, har kim, hech nima.*

3) Juft olmoshlar faqat kishilik, ko'rsatish olmoshlari guruhida bor: *sizu biz, u-bu*

4) Takroriy olmoshlar ko'rsatish, o'zlik, so'roq, belgilash olmoshlariga tegishlidir: *shu-shu, o'z-o'zini, kim-kim, barcha-barchasi.*

Olmosh so'z turkumi tahlili namunasi	
1. So'rog'i	4. Tuzilish turi
2. Qaysi turkum o'rnida kelganligi	5. Gapdagi sintaktik vazifasi
3. Ma'no guruhi	

12-mavzu: FE'L-SO'Z TURKUMI. BO'LISHLI VA BO'LISHSIZ FE'LLAR. O'TIMLI VA O'TIMSIZ FE'LLAR

Reja:

1. Fe'lning ma'nosi va grammatik belgilari

2. O'timli va o'timsiz fe'llar

3. Fe'lda bo'lishli va bo'lishsiz Shakllar

Tayanch tushunchalar: fe'l, mustaqil fe'l, yordamchi fe'l, to'liqsiz fe'l, nisbat, mayl, zamon, shaxs-son, o'timli fe'l, o'timsiz fe'l, bo'lishli fe'l, bo'lishsiz fe'l, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi.

1. Predmetning ish-harakati va holatini bildiradigan so'zlar fe'l deyiladi: *o'qidi, yozdi, keldi, bordi.* Fe'llar shaxs va predmetlar harakatini ifodalash bilan birga, turlicha holatni, belgining o'zgarishini ham harakat tarzida anglatadi: *daraxt ko'kardi, o'rik gulladi.*

O'zbek tilida harakat va holat ma'nosi doim fe'llar orqali ifodalanavermaydi. Otlar ham mavhum harakat va holatni anglatadi: *kurash, saylov, uchrashuv, tekshiruv.*

Ot harakatni uning nomi sifatida bajaruvchi va zamon bilan bog'lanmagan tarzda ifodalaydi. Fe'llar esa ish-harakatning biror bajaruvchi tomonidan ma'lum vaqtda bajarilganligini

bildiradi: *Do'stlar yana uchrashdilar*. Harakat bilan bajaruvchi orasidagi bu aloqa gapda fe'ning shaxs-son shakllari orqali egaga tobeligini ko'rsatadi.

Fe'llarning morfologik xususiyatlari:

1. Bo'lishli va bo'lishsiz shakllarga ega.
2. O'timli- o'timsizlik xususiyatlariga ega
3. Nisbat, zamon, shaxs-son va mayl ifodalay oladi.
4. O'zining vazifadosh (xoslangan) shakllariga ega
5. Fe'llar faqat boshqa turkumlardan yasalishi xususiyatiga ega

Fe'llarning sintaktik xususiyati:

- 1) Gapda ko'pincha fe'l-kesim vazifasini bajaradi.
- 2) Vazifadosh shakllari orqali barcha bo'lak vazifasini bajara oladi.

Fe'llar leksik jihatdan quyidagi ma'no guruhlariga bo'linadi:

- 1) Yurish-harakat fellari: yurmoq, yugurmoq, qimirlamoq, elmoq.
- 2) Nutq fe'llari: gapirmoq, pichirlamoq, demoq, so'zlammoq.
- 3) Tafakkur fe'llari: o'ylamoq, fikrlamoq, xayol qilmoq.
- 4) Natijali faoliyat fe'llari: chizmoq, yozmoq, yasamoq.
- 5) Holat fe'llari: uxlammoq, kulmoq, yig'lamoq, tirjaymoq.

2. Fe'l anglatgan harakatning predmetga munosabati o'timli, o'timsizlikni hosil qiladi. O'timli-o'timsizlik fe'ning tushum kelishigidagi so'z bilan bog'lanish yoki bog'lanmasligi bilan belgilanadi. O'timli fe'l tushum kelishigidagi so'z bilan bog'lanib, harakatni shu so'z anglatgan predmetga o'tganligini bildiradi. Harakat predmetga to'la o'tsa, fe'l chiqish kelishigidagi ot bilan birikadi: Masalan, *Karima romanni juda qiziqish bilan o'qib chiqdi*.

Biror predmetga o'tmaydigan harakatni bildiradigan fe'llar o'timsiz fe'llar deyiladi. O'timsiz fe'llar tushum kelishigidagi so'z bilan bog'lanmaydi.

Fe'llardagi o'timli-o'timsizlik fe'l ifodalaydigan ma'noga ko'ra qo'shimchasiz mavjud bo'ladi. O'timli-o'timsizlikning bu shakli lug'aviy –semantik shakldir. Masalan, *ol, ber, o'qi, yoz, so'ra-o'timli; tur, uxla, o'yna, ket, kel* kabilar lug'aviy ma'nosiga ko'ra o'timsiz fe'llardir. O'timli-o'timsizlikni hosil bo'lishida fe'l nisbatlarini yasovchi qo'shimchalar kuchli ta'sir qiladi.

Fe'l nisbatini yasovchilar o'timli-o'timsizlikka quyidagicha ta'sir qiladi:

O'zlik va majhul nisbat yasovchi qo'shimchalar o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga aylantiradi: *ko'r-ko'rin, tara-tara*. Ortirma nisbat yasovchilar o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga aylantiradi: *yur-yurgiz, kel-keltir*. Ortirma nisbat qo'shimchasi o'timli fe'ldan o'timsiz fe'l ham hosil qiladi: *yoz-yozdir, o'qi-o'qit* kabi.

Qo'shma fe'llarda o'timli-o'timsizlik etakchi fe'lga nisbatan belgilanadi.

3. Ish-harakatning bajarilishi haqidagi xabarni bildirgan fe'llar bo'lishli fe'llar deyiladi. Bo'lishlilik ma'nosi fe'ning lug'aviy ma'nosi orqali ifodalanadi. Uni ifodalovchi maxsus qo'shimcha mavjud emas: *o'qidi, yozdi, ketdi*.

Bajarilmaydigan ish-harakatni ifodalovchi fe'llar bo'lishsiz fe'l deyiladi.

Bo'lishsizlik quyidagi vositalar orqali yuzaga keladi:

1. Fe'lga-*ma* qo'shimchasini qo'shish bilan; bormaydi, ishlamaydi kabi.-*ma* qo'shimchasi murakkab fe'ning birinchi qismiga qo'shiladi: *bormay qo'ydi, ishlamay qo'ydi*. Bundan tashqari bu qo'shimcha murakkab fe'ning ikkinchi qismiga ham qo'shilishi mumkin: *olib bormadi, so'rab olmadi*. Agar murakkab fe'ning har ikkala qismiga-*ma* qo'shimchasi qo'shilsa, bo'lishsizlik hosil bo'ladi: *bormay ketmaydi*.

-*ma* qo'shimchasi ritorik so'roq gaplar tarkibida ham bo'lishlilikni hosil qiladi: *Onani kim sevmaydi?*

2. Bo'lishsizlik sifat-dosh Shakliga *emas, yo'q* so'zlarini qo'shish bilan hosil bo'ladi: *o'qigan emas, yozgan emas, uxlagani yo'q* kabi.

-*na* inkor bog'lovchisi uyushiq bo'laklar orasida kelib, bo'lishsizlik hosil qiladi.

Reja:

1. Fe'l nisbatlari. Aniq nisbat
2. O'zlik nisbat
3. Majhul nisbat
4. Birgalik nisbat
5. Orttirma nisbat

Tayanch tushunchalar: fe'l nisbatlari, aniq nisbat, o'zlik nisbat, majhul nisbat, birgalik nisbat, orttirma nisbat.

1. Fe'l orqali ifodalangan harakatni amalga oshiradigan shaxs yoki narsa harakatning bajaruvchisi (sub'ekti) deb ataladi, harakat o'tgan narsa yoki shaxs ob'ekti deb ataladi. Bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada qatnashishini ifodalovchi fe'l Shakllari fe'l nisbati deyiladi yoki daraja deyiladi. Fe'l nisbatlari besh xil: aniq nisbat, majhul nisbat, o'zlik nisbat, birgalik nisbat, orttirma nisbat.

Aniq nisbatdagi fe'llar harakatdagi ma'lum shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini bildiradi, ya'ni bu fe'llar ifodalangan harakat-holatning bajaruvchisi aniq bo'ladi. Aniq nisbatdagi fe'llarda maxsus nisbat qo'shimchalari bo'lmaydi: *o'qidi, kelyapti, bormoqchi*.

2. O'zlik nisbatdagi fe'llar ish-harakatning boshqa buyumga o'tmay, bajaruvchining o'zida qolganini, o'zi ustida bajarilganini anglatadi. Bunday fe'llar, asosan, o'timli fe'llarning unli bilan tugagan negiziga *-n, -l*, undosh bilan tugagan negiziga *-in, -il* qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi (bir-ikkita fe'lda *-(i)sh* qo'shimchasi bilan yasalishi bor: *kerishdi, joylashdi*): *tarandi, sevindi, sudraldi. Jonlanmoq, xo'rsinmoq, odatlanmoq, harakatlanmoq, quvonmoq, seskanmoq, faxrlanmoq, zavqlanmoq, otlanmoq, afsuslanmoq* fe'llari tarkibida *-n* ko'rsatkichi mavjudligiga qaramasdan, bu fe'llar aniqlik nisbatida hisoblanadi, chunki ular tarkibidagi *-n* qo'shimchasi ajratilmaydi. *YAyra, qichqir, uxla*, bor kabi fe'llardan o'zlik nisbat yasalmaydi.

3. Majhul nisbatdagi fe'llar ish – harakatning aniq bajaruvchisini ko'rsatmaydi. Bu fe'llar ham *n, -in, -l, -il* qo'shimchalari yordamida hosil qilinadi: *to'kildi, to'plandi, ochildi, olindi*.

O'zlik va majhul nisbatdagi fe'llar bir qo'shimcha yordamida hosil bo'lganda, ularning qaysi nisbatdali gap mazmunidan yoki fe'ldan oldin **o'zi** so'zini keltirib ko'rish bilan aniqlanadi: *Mukofotlar berildi. Alisher o'qishga berildi*. (1-fe'l majhul, 2-fe'l o'zlik nisbatdadir). O'zlik nisbatda harakning bajaruvchisi aniq bo'ladi va u gapda ega vazifasida keladi (*Sanjar imtihonga tayyorlandi.*), majhul nisbatda esa bajaruvchi (sub'ekt) noaniq bo'ladi va u gap tarkibida to'ldiruvchi vazifasini bajarib keladi (*Devoriy gazeta Sanjar tomonidan tayyorlandi*).

Majhul nisbatdagi shakllari, ko'pincha o'timli fe'llardan yoki orttirma nisbat shaklidagi o'timsiz fe'llardan yasaladi: *kitobni o'qidi – kitob o'qildi; mashqni yozdiradi – mashq yozdirildi*.

4. Birgalik nisbatdagi fe'llar ish – harakning bir necha shaxs yoki narsa – buyum tomonidan birgalikda bajarilganligini bildiradi va unli bilan tugagan negizga *-sh*, undosh bilan tugagan negizga *-ish* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: bunday fe'llar ish – harakatning bir necha shaxs yoki narsa tomonidan bajarilganligini yoki birgalik – ko'plik ma'nolarini ifodalaydi: *Karim va Ahmad maqola yozishdi. Bolalar paxta terishdi. To'qnashdi, o'rtoqlashdi, ommalashdi, hazillashdi, go'zallashdi, boqishdi, qarashdi (yordamlashdi), aytishdi, tortishdi (bahslashdi)* fe'llari hozirgi o'zbek tilida ajralmas holatga kelib qolganligi uchun aniqlik nisbatidadir.

5. Orttirma nisbatdagi fe'llar ish – harakning bajaruvchi ta'sirida boshqa biror shaxs yoki narsa – buyum vositasida bajarilganligini bildiradi va *-t* (asosan, unli bilan tugagan ko'p bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi), *-tir* (jarangsiz undosh bilan tugagan bir bo'g'inli (*kel* fe'ldan tashqari), ko'p bo'g'inli fe'llarni ko'pchiligiga qo'shiladi), *-dir* (asosan, jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi), *-ir, -ar, -iz, -giz, -kiz, -g'iz, -gaz, -qiz, -sat* qo'shimchalari yordamida hosil qilinadi: *o'qit, keltir, yozdir, bitir, uchir, pishir, qochir, ochir, toshir, chiqar, o'tkaz, ko'rsat*. Bu qo'shimchalar o'timsiz fe'llarni o'timli fe'llarga aylantiradi: *keldi – keltirdi, yurdi – yurgizdi, uchdi – uchirdi, pishdi – pishirdi, o'tdi – o'tkazdi*.

Ayrim fe'llar orttirma nisbat shaklida yangi ma'no ifodalaydigan bo'lib qoladi va shuning uchun ularni aniq nisbatda qo'llab bo'lmaydi: *erkalamoq –erkalatmoq* (ikkala shakda ham orttirma nisbat ma'nosini ifodalayapti).

Bir fe'lga bittadan ortiq orttirma nisbat qo'shimchasi qo'shilishi mumkin: *egiz – egizdir, yozdir – yozdirtir*. Bunday fe'llarda orttirma nisbat ma'nosi kuchaytiriladi.

Fe'ning orttirma nisbati o'zlik va birgalik nisbatidagi fe'llardan ham hosil qilinishi mumkin: *yuvintir, yig'ishtir*. Orttirma nisbatdagi fe'llardan birgalik va majhul nisbatdagi fe'llar hosil qilinishi mumkin: *isitildi, yozdirishdi*.

Orttirma nisbat qo'shimchalari holat fe'llarini ko'pincha natijali faoliyat fe'llarga aylantiradi: *uxlamoq – uxlatmoq, kulmoq – kuldirmoq, yig'lamoq – yig'latmoq*. Majhul va o'zlik nisbati qo'shimchalari esa natijali faoliyat fe'llarini holat fe'llariga aylantiradi: *qurmoq – qurilmoq, bo'yamoq – bo'yanmoq, bukmoq – bukilmoq, yasamoq – yasanmoq*.

Birdan ortiq nisbat qo'shimchalarini olgan fe'llarning qaysi nisbatdagi oxirgi nisbat qo'shimchasiga qarab belgilanadi: *yuvintirdi – orttirma nisbat, yuvintirildi – majhul nisbat, yuvintirishdi – birgalik nisbat*.

14 –mavzu: **FE'L MAYLLARI**

Reja:

1. Fe'l mayllari. Xabar mayli
2. Buyruq –istak mayli
3. Shart mayli
4. Shartli mayl
5. Maqsad mayli

Tayanch tushunchalar: fe'l mayllari, xabar mayli, buyruq –istak mayli, shart mayli, shartli mayl, maqsad mayli.

1. So'zlovchining ish – harakatga moyilligi fe'l mayli deyiladi. Fe'llarda beshta mayl bor:

Xabar (ijro, aniqlik) maylidagi fe'llar ish – harakatning uch uch zamondan birida bajarilish-bajarilmasligini bildiradi: *yozdi, kelyapti*. Bunday fe'llar darak gapning kesimi bo'lib keladi.

2. Buyruq – istak maylidagi fe'llar ish - harakat haqida buyruq, istak, maslahat, iltimos, orzu kabi ma'nolarni bildiradi: Bunday fe'llar *-(a)y, -gin, -sin, -aylik, -ing(iz), -sinlar* qo'shimchalari yordamida yasaladi: *yozay, o'qiy, yozgin, yozsin, o'qiylik, boring(iz)*. Fe'llarning zamon, shaxs – son qo'shimchalarini olmagan shakllar ham buyruq - istak mayli shakli hisoblanadi: *o'qi, yoz, kel*.

3. Shart maylidagi fe'llar biror ish–harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo'lgan ish–harakatni, biror ish-harakatning bajarilish-bajarilmasligi haqida istak, maslahat, faraz kabi ma'nolarni anglatadi va –sa qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi: *borsa, kelsam, yursak* (Eski tilda –sar shaklida bo'lgan).

Bu mayldagi fe'llar sof shart ma'nosini (*kelsa, boramiz*), orzu –istak (*Qani endi, o'qishga kirsam*), iltimos, maslahat (*O'sha kishini chaqirib bersangiz*), faraz (*Yomg'ir yog'sa kerak*), payt (*tashqariga chiqsam, ukam turibdi*), buyruq –istak mayliga xos (*Gapirsangiz –chi!*) ma'nolarini ifodalaydi. Bu fe'llar edi, ekan fe'llari bilan qo'llansa, shart ma'nosiga istak ham qo'shiladi: *kelsa edi, o'qisa ekan...*

4. Shartli maylidagi fe'llar bajarilishi biror harakatga bog'liq bo'lgan harakatni bildiradi va *-(a)r -mas* qo'shimchalari bilan yasaluvchi sifatdoshga edi to'liqsiz fe'lining birikishidan hosil qilinadi. Bu mayl bajarilishining biror sharti bo'lgan, bajarilishi biror harakatga bog'liq bo'lgan harakatni bildiradi: *U kelsa, men quvonar edim. Sen kelsang, men bormas edim*.

5. Maqsad maylidagi fe'llar ish–harakatni bajaruvchining maqsadi, mo'ljali, niyatini bildiradi. Bu fe'llarning o'tgan zamon shakli, hozirgi zamon shakli va kelasi zamon shakllari bor: *yozmoqchi, kelmoqchi bo'ldim, bormoqchi bo'lyapman, bormoqchi bo'laman* va boshqalar.

15 –mavzu: FE'L ZAMONLARI

Reja:

1. Fe'l zamonlari. O'tgan zamon
2. Hozirgi zamon
3. Kelasi zamon

Tayanch tushunchalar: fe'l zamonlari, o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon, uzoq o'tgan zamon, yaqin o'tgan zamon, o'tgan zamon hikoya fe'li, o'tgan zamon maqsad fe'li, o'tgan zamon davom fe'li, hozirgi zamon davom fe'li, hozirgi-kelasi zamon fe'li, kelasi zamon maqsad fe'li, kelasi zamon gumon fe'li.

1. Fe'l ifodalagan ish-harakatni paytga munosabati fe'l zamonlari deyiladi. Fe'llarda uchta zamon mavjud.

O'tgan zamon fe'llari nutq paytidan oldin bajarilgan yoki bajarilmagan ish-harakatni bildiradi: *yozdi, keldi, bordi*.

O'tgan zamon fe'llari o'z navbatida besh turga bo'linadi:

1. Yaqin o'tgan zamon fe'llari *–di* qo'shimchasi va tuslanishi yordamida hosil qilinadi: *keldi, bordim*.

2. Uzoq o'tgan zamon fe'llari *–gan* qo'shimchasi va *edi, ekan* fe'llarini tushlash yordamida hosil qilinadi: *kelgan edi*.

3. O'tgan zamon hikoya fe'llari *–i(ib)*, qo'shimchasini olgan fe'llarni tushlash yordamida hosil qilinadi: *kelibman*.

4. O'tgan zamon maqsad fe'llari *–moqchi* qo'shimchasi va *edi* fe'lini tushlash yordamida yasaladi: *kelmoqchi edik*.

5. O'tgan zamon davom fe'llari *–(a)r* qo'shimchasi va *edi* fe'lini tushlash yordamida yasaladi: *kelar eding*.

2. Hozirgi zamon fe'llari nutq paytining o'zida bajarilayotgan yoki bajarilmayotgan ish-harakatni bildiradi va ikki turga ajratiladi:

1. Hozirgi zamon davom fe'llari *–yap* (bu qo'shimcha undoshdan keyin *–ayap* tarzida aytilsa ham, *–yap* yoziladi: *borayapti emas boryapti*), *–moqda*, *–yotir*, *–yotib* qo'shimchalari va tuslanish yordamida hosil qilinadi: *kelyapti, bormoqda, chiqayotib*. Bu zamon *tur, yot, tur, yur, o'tir* ko'makchi fe'llar yordamida ham yasaladi: *yozib yotibdi, yozib turibdi, o'qib yuribdi, gaplashib o'tiribdi*.

2. Hozirgi-kelasi zamon fe'llari *–a* yoki *–y* qo'shimchalari va tuslanish yordamida hosil qilinadi: *boraman, kelasan, o'qiyman*

3. Kelasi zamon fe'llari nutq paytidan keyin bajariladigan yoki bajarilmaydigan ish-harakatni bildiradi va ikki turga ajratiladi:

1) Kelasi zamon maqsad fe'llari *–moqchi* qo'shimchasi va tuslanish yordamida yasaladi: *bormoqchiman, kelmoqchisan*

2) Kelasi zamon gumon fe'llari *–(a)r* qo'shimchasi va tuslanish yordamida yasaladi: *borarman, kelarsan, o'qirman*.

Zamon shakllarining bir-biriga ko'chishi. a) o'tgan zamon *–di* bilan yasalgan shakli kelasi zamon va hozirgi zamon ma'nolarida qo'llanadi: *Hozir qayoqqa ham bordik. Shundan so'ng bilmadim, qancha vaqt o'tdi*. b) *–gan* bilan yasalgan o'tgan zamon shakli hozirgi zamon ma'nosida qo'llanadi: *Birov kitob o'qigan, kimlar shaxmat atrofida*. v) hozirgi zamon fe'lining kelasi zamon ma'nosida qo'llanishi *ket, bor, yubor, boshla* kabi fe'llar doirasida uchraydi. Bularni boshqa pollka yuboryapmiz. g) hozirgi zamon o'tgan zamon ma'nosida qo'llanadi: *Bir kun qaragam, darchani buzaman deb bolta ko'tarib kelayotibdi*.

16 –mavzu: FE'LLARNING TUSLANISHI

Reja:

1. Shaxs –son kategoriyasi
2. Birinchi tuslanish

3. Ikkinchi tuslanish

4. Uchinchi tuslanish

Tayanch tushunchalar: tuslanish, shaxs –son kategoriyasi, shaxs –son affiksi, birlik, ko'plik, birinchi tuslanish, ikkinchi tuslanish, uchinchi tuslanish.

1. Shaxs –son kategoriyasi fe'l anglatgan harakat –holatning bajaruvchiga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Harakatning bajaruvchisi so'zlovchi, tinglovchi va nutq jarayonida qatnashmagan o'zga shaxs bo'lishi mumkin. Shaxs ma'nolari maxsus affikslar orqali ifodalanadi, bunda ayni biraffik bajaruvchining sonini ham anglatadi. Shuning uchun bunday affiks shaxs –son affiksi deyiladi. Fe'ning shaxs –sonda o'zgarishi tuslanishi deyiladi. Fe'ning shaxs –sonda o'zgarishi tuslanish deyiladi. Shuning uchun shaxs –son affikslari tuslovchilar deb ham yuritiladi: I shaxs birlik –boraman, II shaxs birlik –borasan, III shaxs birlik –boradi; I shaxs ko'plik –boramiz, II shaxs ko'plik –borasiz, III shaxs ko'plik –boradi(lar).

Ega va kesim musbatini shaxs –son affiksi ko'rsatadi.

Birinchi shaxs–tuslovchisi harakatning bajaruvchisi so'zlovchining o'zi ekanligini, uning ko'pligi esa so'zlovchi ham qatnashgan shaxslarni bildiradi: keldim –keldik, yozaman –yozamiz, o'qiyotirman –o'qitirmiz kabi. Ikkinchi shaxs so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni yoki shaxslarni –suhbatdoshni bildiradi: kelding –keldingiz, yozasan –yozasiz, o'qitayotirsan –o'qitayotirsiz kabi. Uchinchi shaxs tuslovchisi esa umuman nutqda qatnashmagan, lekin nutq o'zi to'g'risida bo'lgan shaxs yoki shaxslarni bildiradi: keldi –keldilar, yozadi –yozadilar; Quyosh chiqdi, Daraxtlar gulladi, Bahor keldi kabi.

Fe'ning birinchi va ikkinchi shaxs shakli faqat kishiga nisbatan qo'llanadi (badiiy vosita –jonlantirish bunga kirmaydi). Shuning uchun fe'llar birinchi va ikkinchi shaxs Shaklida kelganda, gapning egasi, odatda, shu shaxslarni ko'rsatuvchi kishilik olmoshi bilan ifodalanadi. Fe'dagi shaxs–son affiksi tegishli shaxsdagi egani aniq ko'rsatgani sababli bu shakllarda gapning egasi yashirinishi ham mumkin.

Badiiy asarlarda ikkinchi shaxsning birlik va ko'pligi jonlantirish yo'li bilan predmetlarga nisbatan ishlatilishi mumkin.

Fe'ning uchinchi shaxs shakli kishilar uchun ham, umuman predmetlar uchun ham qo'llangani tufayli gapda eganing kelishi shart bo'lib qoladi.

2. Tuslanishning quyidagi uch turi bor:

Tarixiy jihatdan birinchi tuslanish eng qadimgi bo'lib, ikkinchi tuslanish shunday kelib chiqqan.

Birinchi tuslanish affikslari quyidagi fe'l shakllarini tushlashga xizmat qiladi:

a) fe'ning hozirgi zamon shakllarini tushlashda qo'llanadi: kelayotir-man, kelayotir-san, kelayotir-miz, kelayotir-siz, kelyapman, kelyap-san, kelyap-miz, kelyap-siz; kela-man, kela-san, kela-miz, kela-siz;

b) sifatdosh va ravishdoshlarga qo'shilib, o'tgan zamon, kelasi zamon gumon hamda kelasi zamon maqsad shakllarini tushlab keladi: borgan-man, borgan-san, borgan-miz, borgan-siz; borib-man, borib-san, borib-miz, borib-di.

v) ekan, emish bilan tuzilgan analitik shakllarni va kesim vazifasida kelgan boshqa turkum so'zlarni tushlab keladi: borar ekan-man, borar ekan-san, borar ekan-miz, borar ekan-siz; student-man, student-san, student-miz, student-siz; baxtli-man, baxtli-san, baxtli-miz, baxtli-siz.

Ba'zi zamon shakllarida uchinchi shaxs uchun –di affiksi qo'llanadi, ko'p hollarda esa bu shaxsning maxsus affiksi bo'lmaydi: kelibdi, kelayotir, kelar, kelmoqchi kabi.

Birinchi tuslanish

Birlik	Ko'plik
I shaxs - man	-miz
II shaxs - san	-siz
II shaxs – di yoki nolb	-di (lar) yoki nolb (-lar)

3. Ikkinchi tuslanish affikslari quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

- a) fe'ning aniq zamon shaklini tuslab keladi: bordi-m, bordi-ng, bordi-k, bordi-ngiz, bordi-(lar);
- b) to'liqsiz fe'lli o'tgan zamon shakllarini tuslab keladi: borgan edi-m, borgan edi-ng, borgan edi, borgan edi-k, borgan edi-ngiz, borgan edi(lar); borar edi-m, borar edi-ng, borar edi-k, borar edi-ngiz, borar edi; borib edi-m, borib edi-ng, borib edi-k, borib edi-ngiz, borar edi (lar); borayotgan edi-m, borayotgan edi-ng, bormoqchi edi-m, bormoqda edi-ng;
- v) shart mayli shakllarini tuslab keladi: borsa-m, borsa-ng, borsa, borsa-k, borsa-ngiz, borsa(lar).

Ikkinchi tuslanish affikslari shaklan egalik affikslariga o'xshaydi: oldim, olding; bolam, bolang kabi. Lekin bularning biri fe'lga qo'shilib, bajaruvchi shaxsga munosabatni bildirsa, ikkinchisi otga qo'shilib, biror narsaga qarashli, tegishli ekanligini bildiradi.

Uchinchi tuslanish affikslari buyruq –istak maylidagi fe'llarni tuslashga xizmat qiladi: boray, borayin, borgan, bor, borsin, boraylik, boring, boringizlar, borsinlar kabi.

Fe'ning shaxs –son shakllari o'z ma'nolaridagina qo'llanib qolmay, balki biri ikkinchisi o'rnida, boshqa ma'nolarda ham qo'llana oladi. Masalan, birinchi shaxsning ko'plik shakli, so'zlovchining boshqa shaxslar bilan birgalikdagi harakatini bildirishdan tashqari, birinchi shaxsning birligi uchun ham qo'llanadi.

Ikkinchi shaxsning ko'plik shakli, bir necha shaxsga murojaat ma'nosini bildirish bilan birga, ikkinchi shaxsning birligi uchun qo'llanib, biror shaxga nisbatan hurmat yoki piching ma'nosini ifodalaydi. Masalan: Kechirasiz, sizni birinchi ko'rishim.

Ayrim hollarda ikkinchi shaxsning birlik shakli uchunchi shaxsning birligi uchun qo'llanishi ham mumkin. Bunday ma'lum stilistik maqsad ko'zda tutiladi.

Ikkinchi tuslanish

Birlik	Ko'plik
I shaxs - m	-k
II shaxs - ng	-ngiz
II shaxs - nolb	- nolb (-lar)

4. Uchinchi shaxsning ko'plik shakli ham hurmat yoki kesatish ma'nosida shu shaxsning birligi uchun qo'llanishi mumkin.

Uchinchi shaxsning ko'plik shakli ikkinchi shaxsning birligi uchun qo'llanib, ko'pincha hurmat, ba'zan kesatish ma'nosini ifodalaydi: Qani to'rga o'tsinlar.

Uchinchi tuslanish

Birlik	Ko'plik
I shaxs – (a)y, -(a) yin	-ylik
II shaxs – gin yoki nolb	-(i)ng, -(i)ng(iz)lar
II shaxs - sin	-sin (lar)

17 –mavzu: FE'LNING VAZIFADOSH SHAKLLARI

Reja:

1. Ravishdosh
2. Sifatdosh
3. Harakat nomi

Tayanch tushunchalar: fe'ning vazifadosh shakllari, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi.

1. Fe'ning gap ichida ma'lum sintaktik vazifani bajarishga xoslangan shakllari vazifadosh (xoslangan) shakllari (ayrim darsliklarda vazifa shakllari yoki turlari) deb ataladi. Bularga sof fe'l (kesimlik shakli), ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi kiradi.

Sof fe'l (kesimlik shakli) gap ichida fe'l-kesim vazifasini bajaradigan fe'l shaklidir. *U yozdi.*

Ravishdosh ish –harakatning belgisini, uning maqsadini, paytini bildirgan fe'l shaklidir. Ravishdosh fe'lga bog'lanib, ko'pincha hol bo'lib keladi. Ravishdoshlar bo'lishli –bo'lishsizlikni, nisbatni bildiradi: *o'qib* –bo'lishli, aniq nisbatda, *o'qitmay* –bo'lishsiz, orttirma nisbatda

Ravishdoshlar quyidagicha hosil bo'ladi:

1)–*b*, –*ib*, –*bon* (*ibon*) qo'shimchalari bilan: *borib*, *o'qib*, *asrabon*

2)–*a*, –*y* qo'shimchalari bilan: *kula* –*kula*, *o'qiy* –*o'qiy*

3)–*gach*, –*kach*, –*qach*, –*guncha*, –*kuncha*, –*quncha* qo'shimchalari bilan: *otgach*, *to'kkach*, *chiqqach*, *kelguncha*, *oqquncha*, *tikkuncha*.

4)–*gani*, –*qani*, –*kani* qo'shimchalari bilan: *o'qigani keldi*. *Ko'chat ekkani bordik*. *Mol boqqani chiqdik*. Bu qo'shimchaning –*gali* ko'rinishi ham bor: *Idish so'ragali chiqdi*.

5)–*gudek* qo'shimchasi bilan: *yiqligudek*.

Ravishdoshlar ma'no jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1)Payt ravishdoshlari –*gach*, –*kach*, –*qach*, –*guncha*, –*kuncha*, –*quncha* qo'shimchalari bilan yasaladi.

2)Holat ravishdoshlari –*b*, –*ib*, –*a*, –*y*, –*gudek* qo'shimchalari bilan yasaladi. (Ayrim darsliklarda –*b*, –*ib*, –*a*, –*y* qo'shimchali shakllarning sabab ma'nosini ifodalashi haqida ham yozilgan).

3)Maqsad ravishdoshi –*gani*, –*qani*, –*kani*, –*gali* qo'shimchalari bilan yasaladi.

Ravishdoshlar tuslanishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1)Tuslanadigan ravishdoshlar: –(*i*)*b*, –*a*, –*y*, –*gudek* qo'shimchalari bilan yasalgan ravishdoshlar.

2)Tuslanmaydigan ravishdoshlar: –*gach*, –(*kach*, –*qach*), *guncha*, –(*kuncha*, –*quncha*), *gani*, –(*qani*, –*kani*) qo'shimchalari bilan yasalgan ravishdoshlar. –*gani* qo'shimchasi bilan yasalgan maqsad ravishdoshining bo'lishsiz shakli yo'q, qolgan ravishdoshlar bo'lishsiz shaklga egadir: *borib* –*bormay* yoki *bormasdan*, *kelgach* –*kelmagach*, *kula* –*kula* –*kulmay* –*kulmay*. (–*may* shakli –mayin tarzida ham uchraydi: *Qanotini qush qoqmayin*).

2.Sifatdosh narsa–buyumning belgisini o'zgarish, harakat natijasi sifatida ifodalaydigan fe'l shaklidir. Sifatdosh fe'l singari ish –harakatni anglatib, zamon, nisbat, bo'lishli –bo'lishsizlikni bildiradi: *qolgan* –bo'lishli, o'tgan zamon, aniq nisbatda. Sifatdosh sifat kabi otga bog'lanib, uning belgisini bildiradi, gapda aniqlovchi yoki kesim bo'lib keladi. *O'quvchilar to'kilgan paxtalarni terishdi*. *Vazifalar bajarilgan*.

Sifatdoshlar zamon ifodalashi bo'yicha quyidagicha yasaladi:

1)O'tgan zamon sifatdoshi –*gan*, –*kan*, –*qan* qo'shimchalari bilan yasaladi: *otgan*, *tikkan*, *chiqqan*.

2)Hozirgi zamon sifatdoshi –(*a*)*yotgan* qo'shimchalari bilan yasaladi: *kelayotgan*, *o'qiyotgan*

3)Kelasi zamon sifatdoshi –(*a*)*r*, –(*a*)*digan*, –(*u*)*vchi* qo'shimchalari bilan: *oqar* *suv*, *qaynar* *buloq*, *boradigan* *bola*, *o'qiydigan* *kitob*, *keluvchi* *odamlar*.

Sifatdoshlarning bo'lishsiz shakllari quyidagicha yasaladi: *borgan* –*bormagan*, –*borayotgan*, –*bormayotgan*. Kelasi zamon sifatdoshning bo'lishsiz shakli –*maqs* qo'shimchasi bilan hosil qilinadi: *Aytar so'zni ayt*, *aytmas so'zdan qayt*.

Eski o'zbek tilida (XVIII asrgacha) sifatdoshlarning –*duk*, –*duq* qo'shimchali shakllari ham bo'lgan: *ochilduk* (*ochilgan*) *kun* Sifatdoshlar ot o'rnida qo'llanib, ot vazifasini bajarishi mumkin, ya'ni otlashadi. Bunda ular otlar kabi turlanadi, egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalarini oladi va gapda ega, to'ldiruvchi, qaratqich, aniqlovchi va undalma bo'lib

keladi: *O'qigan o'zar, o'qimagan to'zar. Aytganlaringizni bajardik. Kelganlarni kiyimlari ho'l edi. Charchaganlar, dam oling.*

2. Harakat nomi ish –harakatning nomini bildirib, zamon va shaxs –sonni ko'rsatmaydigan fe'l shaklidir. Yasalishi:

1) Fe'l o'zak –negiziga –sh, –ish qo'shimchalarini qo'shib: *o'qish, yozish.*

2) Fe'l o'zak –negiziga –v, –uv qo'shimchalarini qo'shish bilan: *o'quv, yozuv.* (Bu qo'shimchalar –a yoki –i bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda a unlisi o ga, i unlisi, u ga aylanadi: *ishla qishlov, o'qiq o'quv.*)

3) Fe'l o'zak –negiziga –moq, –(mak) qo'shimchasini qo'shib: *yozmoq, demak –moq, –v(–uv)* qo'shimchalarida ko'tarinkilik va badiiylik –sh, –ish qo'shimchalaridan ko'ra kuchliroqdir. Harakat nomi va unga tobe bo'lib kelgan so'zlar birgalikda kengaygan harakat nomli birikmalarni tashkil etadi: *Obidjonning erta turishi yaxshi xislatdir.*

–moq qo'shimchasi bilan yasalgan harakat nomi fe'lga yaqin turadi va bu shakl fe'lning noaniq shakli deb yuritiladi. –sh, –ish bilan yasalgan harakat nomi otga yaqin turadi, shuning uchun bu shakllarni har doim ham almashtirib qo'llab bo'lmaydi. *Qurilish boshlandi* gapida –moq qo'shimchasi ishlatilib bo'lmaydi, *o'qish* so'zida –moq qo'shimchasini qo'llasa bo'ladi. Harakat nomlarining bo'lishsiz shakli quyidagicha yasaladi: *bormoq –bormaslik, o'qish –o'qimaslik, keluv –kelmaslik.*

Harakat nomlari tuslanmaydi, otlar kabi turlanadi, egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini oladi. Gapda ega, ot –kesim, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi bo'lib keladi: *Chuqur bilim olish maqsadimdir.* Bundan maqsad – sodda qilib tushuntirish. *O'qishni boshladik.* Chizishning turli usullari bor.

18 –mavzu: FE'LLARNING YASALISHI. TUZILISHI

JIHATDAN TURLARI

Reja:

1. Yasovchi qo'shimchalar yordamida fe'l yasalishi
2. So'zlarni bog'lab qo'shish yordamida fe'l yasash
3. Fe'llarning tuzilish jihatdan turlari

Tayanch tushunchalar: fe'l yasovchi qo'shimchalar bilan fe'l yasash, so'zlarni bog'lab qo'shish bilan fe'l yasash, sodda fe'llar, qo'shma fe'llar, juft fe'llar, takroriy fe'llar.

1. Fe'llar ikki usul bilan yasaladi: 1) Fe'l yasovchi qo'shimchalar bilan: *ishla, ko'kar.* 2) So'zlarni bog'lab qo'shish bilan: *e'lon qildi, borib keldi, sotib oldi, himoya etdi, javob berdi.*

Yasovchi qo'shimchalar yordamida (affiksatsiya yoki morfologik usul)

Bu usul bilan fe'l bo'lmagan so'zlardangina fe'l yasaladi (demak, qo'shimcha yordamida fe'ldan fe'l yasalmaydi).

–la qo'shimchasi fe'ldan boshqa deyarli barcha so'z turkumlaridan fe'l yasaydi: *ishla, oqla, sekinlamoq, shivirla, chuhlamog, senlamoq, yarimlamoq.*

–lan, –lash qo'shimchalari ot, sifat va ravishlardan fe'l yasaydi: *faxrlandi, achchiqlandi, ikkilandi, ko'maklashdi, suhbatlashdi, yaqinlashdi.*

–illa qo'shimchasi taqlidiy so'zlardan fe'l yasaydi: *chirqilla*, tarkibidagi u unlisi yoki v undoshi bo'lgan bir bo'g'inli so'zlardan fe'l yasalganda, bu qo'shimcha –ulla tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: *qultullamoq, shovullamoq.*

–ira qo'shimchasi taqlidiy so'zlardan fe'l yasaydi: *yarqiradi, yaltiradi.*

–a qo'shimchasi ot, sifat va ravishlardan fe'l yasaydi: *qoray, kuchay, ko'pay.* Bu qo'shimcha *past, sust* so'zlaridan fe'l yasaganda oxirgi t tovushi talaffuzda tushib qoladi va shunday yoziladi: *past q ay q pasay, sust qayq susay.*

–(a)r qo'shimchasi ayrim sifatlardan fe'l yasaydi: *qisqar, ko'kar.*

–sira, –sa qo'shimchalari ot va sen, siz olmoshlaridan fe'l yasaydi: *qonsira, suvsira, sizsira, suvsira.*

-(i)k, -(i)q qo'shimchasi sanoqli so'zlardangina fe'l yasaydi: *birikmoq, yo'liqmoq*.

-i qo'shimchasi sanoqli so'zlardan fe'l yasaydi: *bo'yi, tinchi*.

-(i, o)t qo'shimchasi sanoqli so'zlardan fe'l yasaydi: *yo'qot, to'lat, berkit*.

-ir qo'shimchasi ot, taqlidiy so'zlardan fe'l yasaydi: *gapir, tupir*.

2. So'zlarni bir-biriga qo'shish yordamida (kompozitsion yoki sintaktik usul bilan) fe'l yasash

Bu usul bilan qo'shma fe'llar yasaladi:

1) Fe'l bo'lmagan so'z bilan fe'lning birikishidan: *dam olmoqmoq, himoya qilmoq, paydo bo'lmoq, gurs etmoq*. Bunday fe'llar ot, son, olmosh, undov va taqlidiy so'zlarga *qilmoq, etmoq, bo'lmoq, demoq* kabi so'zlarni qo'shish yordamida hosil qilinadi: *himoya qilmoq, kasal bo'lmoq, nima qilmoq, bir bo'lmoq, gurs etmoq, dod demoq*. Bularning ayrimlari sodda fe'lga sinonim bo'ladi: *tasdiq qildi –tasdiqladi, yordam berdi –yordamlashdi*.

2) Ikki fe'lning birikishidan: *sotib olmoq, chiqarib olmoq, olib kelmoq, kirib chiqmoq, sotib olib bermoq*.

Qo'shma fe'llar ajratib yoziladi: *hal qilmoq, kasal bo'lmoq*. Nutqimizdagi o'qib chiqdi, ko'rib bo'ldi, boshlab yubordi kabilar qo'shma fe'l emas, chunki ular yangi lug'aviy ma'no ifodalamaydi, bular ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalaridir.

3. Fe'llar tuzilishi jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sodda fe'llar: *tub: kel, yur; yasama: ishla*

2. Qo'shma fe'llar: *olib keldi, javob berdi, qarshi oldi, gurs etdi*.

3. Juft fe'llar ikki fe'lning qo'shaloq kelishidan hosil bo'ladi: *kirmadi –qo'ydi, aytdi –qo'ydi, gapirdi –qo'ydi. Oldi –berdi, keldi –ketdi, qo'ydi –chiqdi* fe'llari ot turkumi, *oldi –qochdi (gaplar), kuydi –pishdi (odam)* fe'llari esa sifat turkumiga o'tgan hisoblanadi.

4. Takroriy fe'llar bir fe'lning takrorlanishidan hosil bo'ladi: *o'qidi –o'qidi, yozdi –yozdi, ko'ra –ko'ra*.

19-Mavzu: FE'LLARDA MODAL SHAKL. KO'MAKCHI FE'LLAR. TO'LIQSIZ FE'LLAR

Reja:

1. Fe'llarda modal shakl

2. Etakchi va ko'makchi fe'llar

3. To'liqsiz fe'llar

Tayanch tushuncha: fe'llarda modal shakl, etakchi fe'l, ko'makchi fe'l, to'liqsiz fe'l.

1. Fe'ldan anglashilgan ish –harakatning borliqqa munosabatini ifodalaydigan shakllar fe'lning modal shakllaridir. Fe'lning bu shakllari harakatning miqdoriy belgisi uning bajarilish tusini, harakatning bajaruvchi tomonidan turlicha baholanishi singari modal ma'nolarini anglatadi.

Fe'lning modal shakllari tuzilish jihatdan sintetik shakl va analitik shaklga bo'linadi.

Sintetik shakllar harakatning miqdoriy tavsifini bildiradi, uning davomlilik, takroriyliigi va kuchsizligi kabi modal ma'nolarini ifodalaydi. Bu shakllar quyidagi affikslar bilan yasaladi: -la, -kila (-qila, -g'ila), -(i) –msra,

-(i) –inqra; -(i) –sh.

Analitik shakllar ham harakatning bajarilish, takroriylik, davomlilik, boshlanish kabi turlicha ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Bu xil modal ma'nolar asosiy (etakchi) fe'lga birikib kelgan yordamchi fe'l bilan ifodalanadi. Bunday analitik shakllar ikki turga bo'linadi: ko'makchi fe'lli analitik shakl, to'liqsiz fe'lli analitik shakl.

Ko'makchi fe'lli analitik shakllar ikki fe'lning birikuvidan hosil bo'ladi. Bunday fe'llarning birinchisi mustaqil fe'l bilan, ikkinchisi esa ko'makchi fe'l bilan ifodalandi: *Quruq tarasha chars –churs qilib yona boshladi*.

Quyidagi ko'makchi fe'llar ravishdosh bilan birikib, analitik shakl yasaydi: *tur, yot, yur, boshla, chiq, ol, yubor, ko'r va hokazo*.

To'liqsiz fe'l sifatdosh, ravishdosh va harakat nomlariga birikib, fe'l zamonlarining analitik usul bilan yasalgan shakllarini hosil qiladi. Shuningdek boshqa so'z turkumlari bilan kelib, bog'lama vazifasini bajaradi.

Edi to'liqsiz fe'li -(a)r, -mas, -gan affiksli sifatdosh bilan birikib, analitik shakl hosil qiladi: Ariqda qip –qizil olmalar oqib kelar edi.

Bundan tashqari **edi** to'liqsiz fe'li -(i)b, -moqda shakllari bilan birikib, voqea – hodisalarni eslatish, hikoya qilish yo'li bilan yoki uning davomli ekanligini anglatadi: U sekin gaplashmoqda edi.

Fe'ning juft shakllarida birinchi qism leksik ma'no anglatadi, ikkinchi qism esa shu ma'noga tugallanganlik, jadallik kabi ma'nolarini bildiradi: Karima xonadan shoshilib chiqdi – ketdi.

Juft shakllar tarkibidagi har ikki qismning bir xil morfologik ko'rsatkichga ega bo'lishi bilan harakterlanadi.

Takroriy shakllar esa ayni bir fe'ning takroridan hosil bo'ladi: aytsam –aytay, yozsang – yoz.

Sifatdosh va ravishdoshlar ham takroriy shakl hosil qiladi: borgani –borgan, kuyib – kuyib.

2.Nutqimizda bittadan ortiq fe'ldan iborat bo'lgan birliklar ham bor. Ular tarkibidagi asosiy ma'noni ifodalaydigan fe'l etakchi fe'l deyiladi: o'qib chiqdi, ko'ra boshladi, aytib berib tura qol. Etakchi fe'ning ma'nosini izohlaydigan, to'ldiradigan fe'l esa ko'makchi fe'l deyiladi: o'qib chiqdi, yiqila yozdi, gapirib berib qo'ya qol va b.

Etakchi va ko'makchi fe'ning qo'shilishida qo'shimcha fe'l, ya'ni yangi so'z hosil bo'lmaydi, chunki ular birgalikda yangi bir lug'aviy ma'noni ifodalamaydi. Etakchi va ko'makchi fe'ning birikishidan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi hosil bo'ladi. Ayrim darsliklarda bu birikmalar harakat tarzi shakllari deb yuritiladi. Harakat tarzi shakllari quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

- 1)Harakatni bajarishga kirishish (o'qiy boshladi).
- 2)Harakatni bajarishga imkoniyat (bajara oladi).
- 3)Harakatning davomli muddatda ora –sira bajarish (borib turibman, ishlab yotibdi, o'qib yuribdi).
- 4)Harakatni kutilmaganda sodir bo'lishi (ko'rib qoldi).
- 5)Harakatni sinash maqsadida bajarish (tatib ko'rdi).
- 6)Harakatlarni o'z maqsadlarida bajarish (yozib oldi).
- 7)Harakatning boshqalar uchun bajarilishi (sotib berdi).
- 8)Harakatning uzoq davom etishi (sinab yuribman).
- 9)Harakatning favquloddaligi (ishonib o'tiribman).
- 10)Harakatning to'la bajarilishi (bajarib bo'ldi, o'qib chiqdi).
- 11)Harakatning tez, to'siqsiz va oson bajarilishi (olib tashladik, boshlab yubordik, yozib qo'ydim).
- 12)Harakatni bajarmaslikni qat'iy ta'kidlash (bora ko'rma).
- 13)Harakatning ma'lum muddatgacha davom ettirilishi (tura turgin).
- 14)Harakatning yuz berishiga oz qolganlik ma'nosi (yiqila yozdim). Bu shakl ko'p o'rinlarda qo'shib yoziladi.

Ba'zan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi tarkibidagi etakchi fe'l uyushib kelishi ham mumkin. Ba'zan ko'makchi fe'l ham birdan ortiq bo'lishi mumkin: aytib berib tura qol (aytib - etakchi fe'l, berib tura qol –ko'makchi fe'l. Ko'makchi fe'llar etakchi fe'llarga ravishdosh yasovchi -(i)b, -a, -y, qo'shimchalari yordamida bog'lanadi. Ayrim ko'makchi fe'llar echakchi fe'lga qo'shimchasiz ham birikadi: yozdi –oldi, ketsin –qo'ysin, ayt –qo'y.

Etakchi fe'llarga so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar, ko'makchi fe'llarga esa barcha turdagi (zamon, shaxs –son, nisbat, vazifadosh shakllarining qo'shimchalari) qo'shimchalar qo'shila oladi: yozib olaman, ishlay boshladik. Nisbat va bo'lishsizlik shakllari

qo'shimchalari etakchi fe'lga ham, ko'makchi fe'lga ham qo'shila oladi: gapirtirmay qo'yishmaydi.

Ko'makchi fe'li so'z qo'shimchalarida o'zlik nisbat qo'shimchalari faqat etakchi fe'lga qo'shiladi, majhul daraja qo'shimchasi ko'pincha ko'makchi fe'lga qo'shiladi, orttirma nisbat qo'shimchasi asosan etakchi fe'lga qo'shiladi, birlik nisbat qo'shimchasi esa etakchi fe'lga ham, ko'makchi fe'lga ham qo'shilaveradi. O'zbek tilida faqat ko'makchi fe'l bo'lib keladigan fe'llar yo'q. Ayrim fe'llar o'z asl ma'nolaridan tashqari, qo'makchi fe'l tarzida keladi. Bularni etakchi fe'lga bog'lanishi jihatidan quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1) Ravishdoshning -(i)b qo'shimchali turiga birikadi: yot, o'tir, yur, kel, bo'l, bit, chiq, et, o't, yubor, tashla, tush, o'l, qara, boq, qo'y.

2) Ravishdoshning -a, -y qo'shimchali turiga birikadi: boshla, bil, yoz.

3) Ravishdoshning ham ma'nolar -(i)b, ham -a, -y qo'shimchali turlariga birikadi: tur, bor, ol, ber, qol, ko'r, ket. (sol ko'makchi fe'li -(i)b, ham -a, -y qo'shimchasini olgan etakchi fe'lga bog'lanadi). Bu ko'makchi fe'llarni yana ma'no jihatdan harakat jarayonini tasvirovchi (boshla, kel, yot, tur, ket, yur, o'tir, bor, bo'l, ber, bo'l, bit, bitir, chiq, et, o't, ol, qo'y, yubor, sol, tush, tashla, o'l, ko'r, yoz, qol), modal ma'nolarni ifodalovchi, ya'ni so'zlovchining harakatga bo'lgan munosabatini ko'rsatuvchi (bil, bo'l, ol, qol, qo'y, ko'r, ber, qara, boq, tur, o'tir, yur, o'tir, yoz), yo'nalish ma'nosini ifodalovchi (ol, ber) kabi guruhlariga bo'lish mumkin.

3. O'zining lug'aviy ma'nosini butunlay yo'qotib, yordamchi so'zlarga yaqinlashib qolgan fe'llar to'liqsiz fe'llar deyiladi. Bularga edi, ekan, emish, emas, so'zlari kiradi (esa bog'lovchilari guruhiga o'tib ketgan). To'liqsiz fe'llar quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

Mustaqil lug'aviy ma'noga ega emas; nisbat, bo'lishsizlik zamon kabi ma'nolarga ega emas; shaxs –son qo'shimchalari ularga qo'shilsa ham, shaxs ma'nosi to'liqsiz fe'l qatnashgan butun birikmaga tegishlidir; to'liqsiz fe'l qatnashgan birikma (asosiy fe'lqto'liqsiz fe'l) tarkibidagi to'liqsiz fe'lni har doim ham tushirib bo'lmaydi; to'liqsiz fe'l tarkibidagi "e" tovushi tushib qolishi mumkin; to'liqsiz fe'llar otlarga (keng ma'noda) ham, fe'llarga ham birika oladi. Ular ko'proq sifat-dosh va ravishdoshga birikadi; bu fe'llar ketma –ket qo'shilishi ham mumkin. Opam ishdan kelgan edimikan (edimi ekan)? bu fe'llar qator kelgan bir necha fe'lning oxirgisiga birikadi. To'liqsiz fe'llar gapda ko'pincha bog'lama (ega bilan kesimni bog'lovchi vosita) vazifasini bajaradi: Otasi ishchi ekan.

Fe'l tahlili namunasi	
1. So'rog'i	8. To'liq yoki to'liqsizligi
2. Bo'lishli yoki bo'lishsizligi	9. Etakchi, ko'makchi fe'llar aniqlanadi.
3. O'timli yoki o'timsizligi	10. Vazifadosh (xoslangan) shakllari
4. Nisbati	11. Tuzilish turi
5. Shaxs –soni	12. Tub yoki yasamaligi
6. Zamon turi	13. Gapdagi sintaktik vazifasi
7. Mayl turi	

20-Mavzu: RAVISH

Reja:

1. Ravish va uning leksik-grammatik xususiyatlari
2. Ravishlarda daraja
3. Ravishlarning ma'no turlari

Tayanch tushuncha: ravish, ravish darajalari, oddiy daraja,

qiyosiy daraja, kuchaytirma daraja, holat ravishi, payt ravishi, o'rin ravishi, sabab ravishi, maqsad ravishi, daraja –miqdor ravishi.

1. Ish –harakat va holatning belgisini bildirgan so'zlar turkumi ravish deyiladi. Ravish qanday?, qachon?, qaerda?, qaerdan?, qaerga?, qancha?, necha?, qay darajada? kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Ravish ko'pincha fe'lga bog'lanib, ish –harakatning qay holatda bajarilishini,

paytini, o'rnini, daraja –miqdorini, sababini, maqsadini, bildiradi. Ravishlar quyidagi xususiyatga ega: a) biror so'z bilan bog'langanda, o'z shaklini o'zgartirmaydi, ya'ni so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni olmaydi: tez yurdi; b) o'ziga xos yasaliş tizimiga ega: kamtarona, birin –ketin, shu kuni; v) harakat belgisini qisman bo'lsa ham darajalab ko'rsata oladi: tez, tezroq, juda tez. g) gap tarkibida ko'pincha hol (Ikkisi do'stlarcha ko'rishdi). Ot –kesim (Uning bahonasi ko'p), ba'zan otga bog'lanib, aniqllovchi (Ko'p odam to'plandi. Uning yuzida bolalarcha samimiy kulgi zohir bo'ldi.) bo'lib keladi.

2. Ayrim ravishlar sifat kabi darajani ham bildiradi:

1) Bosh daraja: U sekin yurdi:

2) Qiyosiy daraja: Mashina tezroq yurdi.

3) Kuchaytirma daraja: Juda – juda charchadi, kuppa –kunduzi kelishdi.

3. Ravishlarning ma'no jihatdan quyidagi turlari mavjud:

1) Holat ravishlari ish –harakatning qanday holatda yoki qay tarzda bajarilganligini bildirib, qanday?, qayholda?, qaytarzda? kabi so'roqlariga javob bo'ladi: asta, sekin, tez, birdan, qo'qqisdan, to'satdan, yonma –yon, qo'lma –qo'l, omon –eson, zo'rg'a –piyoda, yayov, do'stona, qahramonona, qadrdonlarcha, naridan –beri, yana, bazur (bahuzur) va b.

2) Payt ravishlari ish –harakatning bajarilishi paytini bildirib, qachon?, qachongacha?, qachondan?, qachondan beri? kabi so'roqlariga javob bo'ladi: avval, oldin, ilgari, so'ng, keyin, kechgacha, hozir, hamisha, tez orada, bu orada. Payt va o'rin ravishlarini payt va o'rin otlaridan farqlash lozim; agar kelishik qo'shimchalari ajratilsa va otligicha qolsa, bu otdir: yozdi, qishda, bahorda, ko'chada, uydin; agar kelishik qo'shimchasi ajralgandan keyin boshqa turkum so'ziga aylansa, bu ravishdir: yaqinda, boshda (avval), kunda, chetda va b.

3) O'rin ravishlari ish –harakatning bajarilishi o'rnini bildirib, qaerda?, qaerdan?, qaerga? so'roqlariga javob bo'ladi: oldinda, orqada, o'ngda, chapda, quyidan, uzoqdan, ichkaridan, yuqoriga, olg'a, u yoq –bu yoqqa va b.

4) Sabab ravishlari ish –harakatning bajarilish sababini bildirib, nega? so'roqlariga javob bo'ladi: noiloj, ilojisiz (likdan), chorasiz (likdan).

5) Maqsad ravishlari ish –harakatning bajarilish maqsadini bildiradi va nega?, nima maqsadda? so'roqlariga javob bo'ladi: atay(in), ataylab, jo'rttaga, qasddan, qasdma –qasdiga.

6) Daraja –miqdor ravishlari ish –harakatning daraja –miqdorini, belgining darajasini, narsa –buyumning noaniq miqdorini bildirib, qancha? qaydarajada? so'roqlariga javob bo'ladi: juda, eng, g'oyat (da), nihoyatda; ko'p, mo'l, bisyor, oz, kam, picha, ancha, bir talay, bir oz, ko'plab. Bular o'z ichida quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1) Kuchaytiruv ravishlari: a) tasdiq –eng, juda, nihoyat (da), g'oyat (da), yana (da) tag'in, tamomila, uncha, ozmuncha, nah, o'ta, qoq, zir; b) inkor –sira, asti, aslo, zinhor, hargiz, hadeganda.

2) Kuchsizlantiruv ravishlari arang, zo'rg'a (bu so'z sal so'ziga sinonim bo'lgandagina daraja –miqdor ravishi hisoblanadi, boshqa o'rinlarda holat ravishidir: Tutun orasidan zo'rg'a (sal) ko'rinar edi), zo'r –bazo'r xiyol, sal, sal –pal.

21-Mavzu: RAVISHLARNING YASALISHI. TUZILISH TURLARI

JIHATIDAN

Reja:

1. Ravish yasovchi qo'shimchalar bilan ravish yasash
2. So'zlarni qo'shib ravish yasash
3. Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari

Tayanch tushunchalar: ravish yasovchi qo'shimchalar, qo'shma ravish, juft ravish, takroriy ravish.

1. Ravishlar quyidagi ravish yasovchi qo'shimchalar yordamida boshqa so'z turkumlaridan, shuningdek, ravishlardan ham yasaladi:

–cha: qisqacha, o'zicha, boshqacha, eskicha.

-larcha: qardoshlarcha, o'rtoqllarcha.
 -chasiga: yangichasiga, toshkentchasiga, dehqonchasiga.
 -siga: tikkassiga, yalpissiga.
 -ligicha: xomligicha, tirikligicha, butunligicha, ho'lligicha.
 -dek/day: o'qdek, qushday.
 -lab: ertallab, ko'plab.
 -ona do'stona, fidokorona, g'olibona.
 -an: umuman, taxminan, majburan, asosan, rasmanan.
 -gacha: kechgacha, tushgacha.
 -simon: erkalanganssimon, uyalganssimon, hazilssimon.
 -namo: uyalgannamo, oliftannamo.
 -lay(in): butunlay, tiriklayin.
 -incha: ko'pincha, aksincha.
 -siz, be: to'xtovsiz, beixtiyor.
 -chang: ko'ylakchang, kavushchang.
 -in: oldin.

2. So'zlarni qo'shib ravish yasash. Bunda qo'shma, juft va takroriy ravish yasaladi. Qo'shma ravishlar asosan ikki so'zdan yasaladi va ularning quyidagi turlari ajratib yoziladi:

1) Tarkibida **u, bu, shu** olmoshlari bo'lgan payt va o'rin ravishlari: *u yoqqa, bu yoqqa, u erga, shu erda* va boshqalar.

2) Tarkibida *har, hech, hamma, bir* so'zlari bo'lgan ravishlar: *har vaqt, har zamon, har qachon, qech vaqt, hamma vaqt, bir zum, bir kecha*.

3) Tarkibida *alla-* elementi bor ravishlar qo'shib yoziladi: *allavaqt. Bir yo'la, birmuncha, birvarakayiga, birpas* ravishlari ham qo'shib yoziladi.

Juft ravishlarning tub ravishlardan hosil bo'lganlari kam: *asta-sekin, bugn-erta* va b. O'rin-payt kelishigidagi ba'zi ot va olmoshlar ko'chib, juft ravish hosil qilinadi: *oyda-yilda, unda-bunda*.

Juft ravishlar asosan quyidagicha yasaladi:

1) Bir-biriga yaqin ma'noli so'zlardan: *eson-omon, ochiq-oydin*.

2) Antonim so'zlardan: *erta-kech, kecha-kunduz, ochin-to'qin*.

Takroriy ravishlar quyidagicha yasaladi: a) ot bilan ot takrorlanadi: *qator-qator, yildan-yilga, qadam-baqadam*;

b) sifat bilan sifat: *chaqqon-chaqon, uzundan-uzun, bekordan-bekor*; v) fe'l Shakllari: *uzil-kesil, bilnar-bilinmas, bora-bora, ura-sura, qayta-qayta, borib-borib, turib-turib, qo'yarda-qo'ymay*; g) ravish bilan ravish: *nari-beri, oldin-ketin, birin-ketin, unda-bunda, hali-beri*; d) olmosh, son, taqlid va aralash holda so'zlarning takrorlanishi: *o'z-o'zidan, yakka-yakka, taqa-taq*.

Juft ravishlar ham takroriy ravishlar ham chiziqli bilan yoziladi: *asta-asta, nari-beri* va boshqalar.

Bulardan tashqari o'rin-payt va chiqish kelishigidagi so'zlarning ravishga aylanish holatlari ham uchraydi: *yangidan, birdan, birga, boshda, charchamasdan, shoshmasdan, indamasdan* kabi.

Boshqa turkumlarning ko'chishidan hosil bo'lgan ravishlar.

Otlar ko'chadi: *erta, indin, kecha, kech, kechqurun*; sifatlar: *yaqqol, baralla, tugal, bafurja, mutassil, vaqtli, rosa, baravar, uzluksiz, beomon*; ravishdoshlar: *osha, o'ta, qiya, qo'sha, qayta; taqlidiy so'zlar: shartta, taqqa, tappa, shig'a, chippa*.

3. Ravishlar tuzilishi jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sodda ravishlar: *ko'p, tez, do'stona*.

2. Qo'shma ravishlar: *bir oz, har zamon, ozmuncha*.

3. Juft ravishlar: *unda-bunda, birin-ketin, omon-eson*.

4. Takroriy ravishlar: *asta-asta, tez-tez*.

22-Mavzu: YORDAMCHI SO'Z TURKUMLARI. KO'MAKCHI

Reja:

1. Ko'makchi haqida ma'lumot
2. Ko'makchilarning qo'llanishi va ma'nolari.
3. Ko'makchilar va kelishiklar

Tayanch tushunchalar: yordamchi so'z turkumlari, ko'makchi, sof ko'makchi, ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi so'zlar.

1.Ot, olmosh, harakat nomi, sifatdoshlardan keyin kelib, ularni boshqa so'zlarga tobelanish yo'li bilan bog'laydigan yordamchi so'zlar **ko'makchi** deyiladi.

Ko'makchi qaysi so'zdan keyin kelsa, o'sha so'z bilan birgalikda bir so'roqqa javob bo'lib, bir xil gap bo'lagi vazifasini bajaradi.

Ko'makchilar kelib chiqishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1)**Sof ko'makchilar** lug'aviy ma'nolarini butunlay yo'qotib, vazifa jihatidan kelishik qo'shimchalariga yaqin turadigan so'zlardir: *uchun, kabi, sira, singari, sayin, uzra, qadar, yanglig'*.

2)**Ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi so'zlar** gapda o'rni bilan mustaqil so'z, o'rni bilan ko'makchi bo'lib keladi. Bularga *tomon, tashqari, bo'yi, chamasi, holda, yo'sinda* kabi ot turkumidan, *sababli, tufayli, orqali, qarshi, chog'li, doir, muvofiq, o'zga, boshqa* kabi sifat turkumidan, *qarab, qaraganda, ko'ra, tartib, degan, deydigan, osha, bo'ylab, yarasha, qaramasdan, qaramay, qarata* kabi fe'l turkumidan, *avval, so'ng, burun, keyin, ilgari, beri, buyon, asosan, binoan* kabi ravish turkumidan o'tgan so'zlar kiradi.

Bulardan tashqari lug'aviy ma'nolarini saqlagan holda ko'makchi o'rnida kelib, harakat bilan predmet o'rtasidagi turli munosabatlarni ifodalaydigan so'zlar ham bor. Bu so'zlar o'rin-payt, chiqish va egalik qo'shimchalarini qabul qiladi. Bunday so'zlar ko'makchi otlar deb ataladi: *old, o'rta, yon, orqa, ket, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o'rin, qosh, yoqa, tomon*. Bu so'zlar belgisiz qaratqich kelishigidagi so'zdan keyin kelgandagina ko'makchi ot hisoblanadi: *ish ustida, siqig'i ostida*. Aks holda ular o'rin otlari hisoblanadi: *stolning ustida, uyning oldida*. Ko'makchi otlar quyidagi turlarga bo'linishi mumkin: 1. vertikal yo'nalishni bildiruvchi: *ost, ust, tag*. 2. gorizontal yo'nalishni bildiruvchi: *old, orqa, yon, ich, tomon*; 3) aralash yo'nalishni bildiruvchi: *o'rta, ora, bosh*.

2.Ko'makchilar quyidagicha qo'llaniladi:

1) **Bosh kelishikdagi** so'zlar bilan qo'llaniladigan ko'makchilar:

Bilan ko'makchisi birgalik, vosita, tez boshlanish, payt, ish-harakat ob'ekti, holat, maqsad ma'nolarini bildiradi: *Ukasi bilan keldi. Qalam bilan yozdi. Eshik ochilishi bilan kirishdi. Tuni bilan uxlamadi. Baxtiyorlik bilan jilmaydi.*

Uchun ko'makchisi maqsad, sabab, atash, evaz ma'nolarini ifodalaydi: Bolalar uchun qurildi. *O'qimagani uchun bilmadi. Sen uchun oldim. Yordamlashganing uchun rahmat.*

Kabi, singari, yanglig' (ba'zan misoli so'zi) ko'makchilari o'xshatish, qiyoslash ma'nolarini ifodalaydi: *Shamol kabi eldi. Cho'l singari bepoyon, Oy yanglig' chiroyli.*

Sayin ko'makchisi payt izchillik ma'nolarini ifodalaydi: *Sovuq kun sayin kuchaydi.*

Sari ko'makchisi yo'nalish ma'nosini ifodalaydi: *Dala sari ketdi.*

Sababli, tufayli ko'makchilari aloqadorlik, sabab ma'nosini ifodalaydi: *CHaqirilmaganligi sababli kelmadi.*

Orqali ko'makchisi vosita ma'nosini, *chog'li, chamasi* ko'makchilari chama, taxmin ma'nolarini, *osha, bo'ylab* ko'makchisi makon-bo'ylab sodir bo'lish ma'nosini, *bo'yicha* ko'makchisi moslik ma'nosini, *uzra* ko'makchisi biror sath bo'ylab yo'nalish ma'nosini, *ichra* ko'makchisi biror predmetning ichida sodir bo'lish ma'nosini, *degan* ko'makchisi atash ma'nosini, *bo'yi* ko'makchisi davomlilik ma'nosini, *haqida (to'g'risida)* ko'makchilari fikr qaratilgan predmet ma'nosini, *holda (yo'sinda)* ko'makchilari holat ma'nosini ifodalaydi: *Pochta*

orqali jo'natdi. O'n chog'li odam to'plandi. Asrlar osha etib keldi. Ariq bo'ylab yurishdi. Urush haqida so'zladi.

2) **Jo'nalish kelishigidagi** so'zlar bilan qo'llaniladigan ko'makchilar:

Tomon ko'makchisi yo'nalish ma'nosini, **qadar** ko'makchisi chegara ma'nosini, **ko'ra** ko'makchisi sabab, ta'kidlash, qiyoslash ma'nolarini, **qarshi** ko'makchisi zidlik ma'nosini, **qarab, qarata** ko'makchisi yo'nalish, o'lchov ma'nosini, **qaraganda** ko'makchisi ta'kidlash, qiyoslash ma'nolarini, **qaramasdan, qaramay** ko'makchilari to'siqsizlik ma'nosini, **yarasha** ko'makchisi moslik ma'nosini, **doir** ko'makchisi aloqadorlik ma'nosini, **asosan, binoan, muvofiq** ko'makchilari tayanch ma'nosini ifodalaydi: *Uy tomon ketdi. Kechga qadar kutib o'tirdi. Uning topshirig'iga ko'ra etib kelishdi. Bilimiga qarab baho qo'yiladi. Uning qarshiligiga qaramay vazifa bajarildi. SHu fikrga asosan qaror qilishdi. Odamlarga qarata nutq so'zladi.*

3) **Chiqish kelishigidagi** so'zlar bilan qo'llaniladiga ko'makchilar:

So'ng, keyin, burun, ilgari ko'makchilari payt ma'nosini, **boshqa, tashqari, o'zga, bo'lak** ko'makchilari mustasnoqlik ma'nosini, **beri, buyon** ko'makchilari payt ma'nosini, **nari** ko'makchisi ish-harakatining chegarasi ma'nosini, **boshlab, tartib** ko'makchilari boshlanish vaqt, nuqta ma'nolarini ifodalaydi: *Uch yildan keyin paydo bo'ldi. Sendan boshqa hech kim yo'q. Shu kundan boshlab ishga kirishamiz.*

4) **Qaratqich kelishigidagi** so'zlar bilan qo'llaniladigan ko'makchilar: Ko'pchilik otlar shu kelishikdagi so'zlar bilan qo'llaniladi: *Uyning oldida to'xtadi. Bog' ichiga kirib ketdi. Devor orasida qolib ketdi. Ko'cha o'rtasida ketyapti. Ko'pri boshida kutib turdi.*

E s l a t m a: **uchun, bilan, kabi** ko'makchilari qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan ham qo'llanilishi mumkin: *shuning uchun, buning kabi.*

3. Ko'makchilar vazifasi jihatidan kelishiklarga o'xshaydi. Ayrim hollarda ko'makchi o'rnida kelishik qo'shimchasi yoki kelishik qo'shimchasi ko'makchilar tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari o'rnida almashib kelishi mumkin. Biroq hamma vaqt ko'makchi o'rnida kelishik qo'shimchasi ishlatilavermaydi: *Radio orqali eshitdik-Radiodan eshitdik. Ukamga oldim-Ukam uchun oldim. Qalam bilan yozdi-qalamda yozi. Borganini gapirib berdi-Borgani haqida gapirib berdi.*

Ko'makchi tahlili:

1. Turi aniqlanadi.
2. Qaysi kelishikdagi so'zga bog'lanadi?
3. Ifodilangan ma'nosi.
4. Qaysi so'zni qaysi so'zga bog'layapti?

23-Mavzu: BOG'LOVCHI

Reja:

1. Bog'lovchi haqida ma'lumot
2. Teng bog'lovchilar
3. Ergashtiruvchi bog'lovchilar

Tayanch tushunchalar: bog'lovchi, teng bog'lovchi, ergashtiruvchi bog'lovchi, biriktiruv bog'lovchilari, zidlov bog'lovchilari, ayiruv bog'lovchilari, inkor bog'lovchisi, aniqlov bog'lovchisi, sabab bog'lovchilari, shart bog'lovchilari, o'xshatish bog'lovchisi.

1. Gapning uyushiq bo'laklarini va qo'shma gapdagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar **bog'lovchi** deb ataladi. Bog'lovchilar qo'llanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

- 1) Yakka holda qo'llaniladigan bog'lovchilar: *va, ammo, chunki.*
- 2) Takrorlangan holda qo'llaniladigan bog'lovchilar: *yo...,yo...; yoki..., yoki....*

Bog'lovchilar vazifasiga ko'ra teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilarga bo'linadi.

2. Teng bog'lovchilar gapning uyushiq bo'laklarini va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni teng huquqli qilib bog'laydi va quyidagi turlarga bo'linadi:

1) **Biriktiruv bog'lovchilari:** *va, hamda, ham.* Ham yuklamasi uyushiq bo'laklar oldidan kelgandagina bog'lovchi hisoblanadi: *Ham qo'rqaman ham bilgim keladi. (As. M). Bilan ko'makchisi ham biriktiruvchi bog'lovchi (va) o'rnida kelishi mumkin: Karim bilan Salim maktabga birga borishgan.*

2) **Zidlov bog'lovchilari:** *ammo, lekin, biroq, balki, holbuki.* So'zlashuv tilida *a* bog'lovchisi sodda yoki qo'shma gaplarni bog'lab, zid munosabatlarni ifodalaydi: *Men bormoqchiman, a siz-chi?*

3) **Ayiruv bog'lovchilari:** *yo, yoki, yoxud, goh, ba'zan, yoinki, yo. . .yo, yoki. . .yoki, goh. . .goh, ba'zan. . .ba'zan, bir. . .bir, xoh. . .xoh, dam. . .dam.* Bu bog'lovchilar uyushiq bo'laklarini yoki qo'shma gap qismlarini bog'laydi: *Alijon goh menga, goh erga qarab jim turaverdi.*

4) **Inkor bog'lovchisi:** *na..., na....*

3. Ergashtiruvchi bog'lovchilar ko'pincha ergashgan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga ergashtirish yo'li bilan bog'laydi va quyidagi turlarga bo'linadi:

1) **Aniqlov bog'lovchisi:** *ya'ni, -ki(-kim), -toki: U ko'ribdiki, kamchiliklar ko'p.* Ba'zan – *ki* ot turkumidagi so'zlar bilan birga kelib, ta'kidlash, uqtirish ma'nolarini anglatadi, bunda u bog'lovchi emas, yuklama sanaladi: *. . .ko'ksi to'la nuqul ordenki, bir-biridan chiroyli.*

2) **Sabab bog'lovchilari:** *chunki, shuning uchun.* Ba'zan uchun ko'makchisi ham shu vazifada qo'llanadi: *Ular etib kelsin uchun, Turdi kutib turdi.*

3) **Shart bog'lovchilari:** *garcha, garchand, gar, mabodo, basharti.*

4) **O'xshatish bog'lovchisi:** *go'yo(ki).*

Bog'lovchi vazifasini bajaruvchi so'zlar ham mavjud, bular: *bilan, deb, bordi-yu* so'zlari, *-u(yu), -da, -mi, na* yuklamalari: *Bordi-yu, o'zim kelmasam, odam jo'nataman. Ular etib kelsin deb, kutdim.*

Bog'lovchi tahlili:

1. Qo'llanishiga ko'ra turi.
2. Ma'no hamda vazifasiga ko'ra turi
3. Nimalarni bog'lagan?

24-Mavzu: YUKLAMA

Reja:

1. Yuklama haqida ma'lumot
2. Yuklamaning ma'no jihatdan turlari
3. Yuklamalarning yozilishi

Tayanch tushunchalar: Yuklama, so'z yuklama, qo'shimcha ko'rinishidagi yuklama, so'roq va taajjub yuklamasi, kuchaytiruv yuklamasi, ta'kid yuklamasi, ayiruv yuklamasi, inkor yuklamasi, aniqlov yuklamasi, gumon yuklamasi.

1. Mustaqil so'z va gaplarga qo'shimcha ma'no beradigan yordamchilar **yuklama** deyiladi. Yuklamalar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1) **So'z yuklamalari:** *faqat, ham, axir, hatto.*

2) **Qo'shimcha ko'rinishidagi yuklamalar:** *-ku, -mi, -a, -gina.*

2. Yuklamalarning ma'no jihatdan quyidagi turlarga

bo'linadi:

1) **So'roq va taajjub yuklamalari:** *-mi* so'roq va taajjubdan tashqari modal ma'noni ham bildiradi, bunda u noaniqlanki ifodalaydi: *Uydami, ko'chadami uning uchun farqi yo'q edi.* *-chi* so'roqdan tashqari buyruq, do'q iltimos, qistash, ta'kid, uqtirish ma'nolarini bildiradi: *Qani, yur-chi! Kitobingni berib tur-chi.* *-a, -ya* yuklamalari ham so'roq va taajjubdan tashqari his-hayajonni, tasdiq va ishonchni ham bildiradi: *Qanday chiroyli-ya! Go'sht olibdi-jiqqa yog'-a.*

2) **Kuchaytiruv yuklamalari:** *Nahotki, axir, hatto(ki)* *-oq(yoq), -ki(-kin),* yuklamalari kuchaytirish va ta'kid ma'nosini anglatadi, *tim(qora), liq(to'la), g'irt(yolg'on), qir-(shir-, qip-yalang'och), g'arq(pishgan), jiqqa(ho'l)* yuklamalari nutqqa tasviriylik berib, so'z ma'nosini kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

3) **Ta'kid yuklamalari:** *-ku, -da, -u(-yu).*

4) **Ayiruv yuklamalari:** *faqat, ham, -gina (-kina, -qina), xolos.* *Ham* yuklamasi ba'zan bog'lovchi o'rnida ham qo'llaniladi: *Zarur daftar ham kitoblarni hozirlab qo'ying.* Bu so'z takrorlanib kelganda, fonetik o'zgarishga uchrashi mumkin: *U yurtniyam, xalqniyam boqdi(O.).* *Faqat -gina* Yuklamalari o'rnida yolg'iz so'zi qo'llana oladi. *Bu yolg'iz nomgina xolos.*

5) **Inkor yuklamasi:** *na* takroriy qo'llaniladi: *Na o'qidi, na yozdi.*

6) **Aniqlov yuklamalari:** *xuddi, naq. Xuddi shu erda uchrashamiz.*

7) **Gumon yuklamasi:** *-dir. Uyiga etib borgandir.*

3. Yuklamalarning yozilishi quyidagicha:

1) *-mi, -oq(-yoq), -gina(-kina,-qina)* yuklamalari o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi: *Shu bugunoq ota-onasinigina emas, butun mahallaga etib bormaydimi?*

2) *-chi, -ku, -u(-yu), -a(-ya)* yuklamalaridan oldin chiziqcha qo'yiladi: *Sen-chi? Keldi-ku!*

E s l a t m a : Juff so'zlar tarkibida bog'lovchi vazifasida kelgan *-u(-yu)* yuklamasi kirillecha yozuvda so'zga qo'ishib yoziladi: *Gapu so'z ko'paydi.*

3) *faqat, ham, hatto, axir* kabi so'z yuklamalar ayrim yoziladi: *Tog'larda hatto yoz oylarida ham, yomg'ir yog'adi.*

Yuklama tahlili:

1. Tuzilishiga ko'ra turi.
2. Ma'nosiga ko'ra turi.
3. Yozilish usuli

25-Mavzu: MODAL SO'ZLAR. UNDOVLAR. TAQLID SO'ZLAR

Reja:

1.Modal so'zlar va ularning ma'no turlari

2.Undovlar

3.Taqlid so'zlar

Tayanch tushunchalar: modal so'z, undov so'z, taqlid so'z, his-hayajon undovlari, haydash –chaqirish undovlari, ko'rsatish-ta'kid undovlari, tovushga taqlid, holatga taqlid.

1.So'zlovchining o'z fikriga bo'lgan munosabatini bildiradigan so'zlar **modal** so'zlar: ***Ehtimol, bugun etib kelar.***

Modal so'zlar ma'no jihatidan quyidani turlarga bo'linadi:

1) Fikrning aniqligini ifodalaydigan modal so'zlar:

a) fikrning rostligi tasdiqlanadi: darhaqiqat, haqiqat, haqiqatda, filhaqiqat (arx.); b) fikrning qat'iyligi ta'kidlanadi: shubhasiz, shaksiz, so'zsiz; v) ishonch: albatta; g) anglanayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanligini bildiradi: tabiiy, o'z-o'zidan; d) fikrning chinligini anglatadi: to'g'ri, hoynahoy, muhaqqaq (arxaik), aslida, darvoqe, rostdan.

2) Fikrning noaniqligini ifodalaydigan modal so'zlar:

a) fikrning taxminiyligini bildiradi: shekilli, chamasi, chog'i; b) fikrning gumonli ekanligini bildiradi: ehtimol, balki;
v) fikrning tasmolli ekanini bildiradi: aftidan; g) fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham bildiradigan: har holda, har qalay.

3) Xulosa: xullas, demak, nihoyat, xullas, kalom.

4) Afsuslanish: afsus, attang, esiz.

5) Zaruriyat: kerak, zarur, lozim.

6) Mavjudlik va mavjud emalik: bor, yo'q.

Bulardan tashqari: binoan, zero, holbuki, vaholanki kabi modal so'zlar mavjud.

Modal so'zlarning ko'pchiligi mustaqil so'zlardan o'sib chiqqandir.

Ot turkumidan: aftidan, haqiqatan,, mazmuni, ehtimol, filhaqiqat. Sifatdan: so'zsiz, shubhasiz, tabiiy. Ravishdan: albatta. Bog'lovchidan: balki. So'z birikmasidan: har qalay, har holda. Gapning modal so'zga aylanishdan: holbuki (Hol buki). So'z tushirish natijasida hosil bo'lgan: o'z-o'zidan (aniq so'zi tushib qoladi).

Modal so'zlar gap tarkibida ko'pincha **kirish** so'z bo'lib keladi.

2.His-hayajon, tuyg'uni, haydan-chaqirishni bildiradigan so'zlar turkumi **undov** deyiladi: eh, uh, o , e, uf, voy, ura, ofarin, salom, xayr, xo'sh, rahmat, hormang, balli, bay-bay, voy-bo'y, a, ah, ahho, obbo, ey, ehhe, i, ie, o'h, o'hho', hm, him, be, tuf, hah, ho, hay-hay, eh, o', ha, iyi. Bu so'zlar mustaqil so'zlarga ham yordamchi so'zlarga ham kirmaydigan ayrim so'z turkumidir.

Undovlar yakka holda, juft holda yoki takrorlanib qo'llaishi mumkin: oh, voy, oh-voh, dod-voy, bay-bay, hay-hay.

Juft va takrorlangan undovlar chiziqla bilan yoziladi.

Undovlar ma'no jihatidan ikki turli bo'ladi:

1) **His-hayajon undovlari** quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

shafqat, mehribonlik: ie, o, voy, voy-ey, eh; sevinch, xursandchilik, zavqlanish: ho, o'h-ho', ehe; qoyil qolish, rohatlanish: hay-hay, ah-ah; mamnuniyat, faxrlanish, mag'rurlanish, xayrihohlik: e-ha, eh, ha-ya, o'; undash, ogohlantirish, tasdiq: ha.

His-hayajon undovlari odatda gap bo'lagi vazifasida qo'llanmaydi, ular kirish so'z vazifasini bajaradi. Undovlar yozuvda gap bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi. Agar undov kuchli bo'lsa, his-hayajon bilan aytilsa, undov belgisi qo'yiladi: Eh! Havo naqadar sof va musaffo!

Undovlarning asosiy qismi yasama emas, lekin mustaqil so'zlardan undovlarga ko'chgan so'zlar ham mavjud: Kel, bir bahslashaylik! Bu gapdagi **kel** so'zi fe'l emas, balki u undovdir.

His-hayajon undovlar, odatda, gap bo'lagi vazifasini bajarmaydi. Ular yo kirish so'z, yoki so'z gap bo'lib kelishi mumkin: Ie, men kimni ko'ryapman!-Dod!-Ichkaridan dodlagan ovoz eshitildi.

2) **Haydash-chaqirish undovlari** ikki xil bo'ladi.

Odamlaraga qaratilgan undovlar: a) kishilarning diqqatini tortish uchun qo'llanadigan: he, allo, e; b) ta'kid, buyrisha uchun qo'llanadigan: ma, jim, marsh.

Hayvonlarga yoki boshqa jonivorlarga qaratilgan undovlar: a) hayvon va jonivorlarni chaqirish uchun qo'llanadigan: kishit, bah-bah, mosh-mosh, tu-tu-tu, kuch-kuch, gah, chux, beh-beh, qurey-qurey. b) hayvon va parandalarni to'xtatish uchun qo'llaniladigan: ishsh, ho'k, tak. v) hayvon va parandalarni biror ishni bajaraishga undash uchun ishlatiladi: pisht, dir, hih, hov-hov, tek, hayt, chu.

3) **Ko'rsatish ta'kid undovlari** quyidagi ma'nolarni ifodalaydi: ko'rsatish: hu, huv, hovv; javob, ta'kid, mulohaza: ha-ha-ha, xo'sh, labbay.

Undovlar odatda **deb** so'zi bilan qo'llanib, hol, **degan** so'zi bilan qo'llanib, gapda ko'pincha sifatlovchi-aniqllovchi bo'lib keladi. Undovlar otlashishi mumkin, bunda ular ega, to'ldiruvchi, qaratqich-aniqllovchi vazifalarini bajaradi.

3.Tovushga va holatga taqlidni bildirgan so'zlar **taglid** so'zlar deyiladi. Bunday so'zlar ma'no jihatidan ikki turga bo'linadi:

1) **Tovushga taqlid** bildiradigan so'zlar: gumbur-gumbur, dup-dup, duk-duk, taq-tuq, g'arch-g'urch, inga-inga, bidir-bidir, qult-qult, vov, uv, irr, mo', maa, mee, baa, in-in, ang-ang, miyov, vaq-vaq, vish-vish, qu-qu, qa-qa, g'a-g'a, qag'-qag', pitbidiq, par, viz-viz.

2) **Holatga taqlid** bildirgan so'zlar: yalt-yult, apil-tapil, g'uj-g'uj, yarq, yurq, jimir-jimir, milt-milt, lip-lip, pildir-pildir, hang-mang, g'ivir-g'ivir, dik-dik, lik-lik, hipl-hipl, duv-duv, pir-pir, lang, dang, hil-hil kabi.

Taqlid so'zlar yakka holda, juft holda va takrorlangan holda qo'llanadi. Juft va takrorlangan taqlid so'zlar orasiga chiziqcha qo'yiladi. Taqlid mustaqil so'zlar kabi gap bo'lagi bo'la oladi: SHamol g'ir-g'ir esmoqda (hol). Tovushga taqlid so'zlar ba'zan otlashib, ko'plik, egalik va kelishik qo'shimchalarini qabul qiladi: Odamlarning g'ovur-g'uvuri bosildi. Yuragining duk-dukini eshitdi.

Modal so'zlar tahlili:

1. Ma'no turi
2. Qaysi turkumdan kelib chiqqan.
3. Gapda bajargan vazifasi.

Undov va taqlid so'zlar tahlili:

1. Ma'no turi.
2. Tuzilish turi.
3. Otlashgan-otlashmaganligi.
4. Gapda bajargan vazifasi.

III semestr

Kollokvium savollari

1. So'zning leksik va grammatik ma'nolari.
2. So'z tarkibi. O'zak morfema. Negiz.
3. Affiks morfemalar. So'z yasovchi affikslar.
4. Shakl yasovchi affikslar.
5. So'z o'zgartiruvchi affikslar.
6. So'zlarning tuzilish jihatidan turlari. Sodda o'zlar.
7. Qo'shma so'zlar. Qo'shma so'zlar yasash.
8. Murakkab so'zlar va ularning yasalishi.
9. Juft va takroriy so'zlar va ularning yasalishi.
10. So'z turkumlari. Mustaqil va yordamchi so'z turkumlari
11. Ot va uning grammatik xususiyatlari.
12. Otlarning ma'noga ko'ra turlari.
13. Otlarda son kategoriyasi.
14. Otlarda egalik kategoriyasi.
15. Egalik affiksi ta'sirida ayrim otlardagi fonetik o'zgarishlar.
16. Otlarda kelishik kategoriyasi. Bosh kelishik.
17. Qaratqich kelishigi.
18. Tushum kelishigi.
19. Jo'nalish kelishigi.
20. O'rin-payt kelishigi.
21. Chiqish kelishigi.
22. Otlarning yasalishi. Shaxs oti yasovchi affikslar.
23. Narsa, qurol otlari; o'lehov birligi otlari yasovchi affikslar.
24. O'rin-joy otlari yasovchi affikslar.
25. Sintaktik usul bilan ot yasash. Qo'shma otlar.

26. Qisqartma otlar va juft otlar.
27. Otlarda modal shakl yasalishi.
28. Sifat va uning grammatik xususiyatlari.
29. Asliy va nisbiy sifatlar.
30. Sifat darajalari.
31. Sifatlarning yasalishi. Morfologik usul.
32. Sintaktik usul bilan sifat yasash.
33. Sifatlarda modal shakl yasalishi.
34. Son va uning grammatik xususiyatlari.
35. Sonning ma'no turlari.
36. Sonlarning tuzilishi jihatidan turlari.
37. Olmosh va uning grammatik xususiyatlari.
38. Olmoshlarning turlari. Kishilik olmoshlari.
39. Ko'rsatish olmoshlari.
40. So'roq olmoshlari
41. O'zlik olmoshi va belgilash olmoshlari
42. Bo'lishsizlik olmoshlari
43. Gumon olmoshlari. Olmoshlarning tuzilishi jihatdan turlari
44. Miqdor son
45. Taqsim son
46. Jamlovchi son
47. Chama son. Tartib son
48. Semantik usul bilan ot yasalishi

IV semestr

1. Fe'lining ma'no va grammatik belgilari
2. Fe'lda bo'lishli va bo'lishsiz shakllar
3. O'timli va o'timsiz fe'llar
4. Fe'l nisbatlari
5. Aniq nisbat
6. O'zlik nisbat
7. Majhul nisbat
8. Birgalik nisbat
9. Fe'l mayllari
10. Buyruq-istak mayli
11. Shart mayli
12. Xabar mayli
13. Fe'l zamonlari
14. O'tgan zamon
15. Hozirgi zamon
16. Kelasi zamon
17. Fe'llarda shaxs-son kategoriyasi
18. Fe'lining vazifadosh shakllari
19. Harakat nomi
20. Sifatdosh
21. Ravishdosh
22. To'liqsiz fe'l
23. Morfologik usul bilan fe'l yasalishi
24. Sintaktik usul bilan fe'l yasalishi
25. Fe'lining modal shakllari
26. Fe'lining tuzilish jihatdan turlari
27. Mustaqil va yordamchi fe'llar

28. Ravishning ma'nosi va grammatik belgilari
29. Ravishning ma'no turlari
30. Ravishlarning yasalishi
31. Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari
32. Ravishlarda shakl yasalishi
33. Ravish darajalari
34. Yordamchi so'z turkumlari
35. Ko'makchi va uning grammatik xususiyatlari
36. Sof ko'makchilar
37. Vazifadosh ko'makchilar
38. Bog'lovchi va uning grammatik xususiyatlari
39. Teng bog'lovchilar
40. Ergashtiruvchi bog'lovchilar
41. Yuklama va uning grammatik xususiyatlari
42. Yuklamaning ma'no turlari
43. Modal so'zlar, ularning ma'no va grammatik xususiyatlari
44. Undovlar, ularning grammatik xususiyatlari
45. Taqlid so'zlar, ularning grammatik xususiyatlari

TEST NAMUNALARI

1. Morfologiya nimani o'rganadi?

- | | |
|------------------------|-------------------|
| A) so'zning o'zgarishi | B) so'z tuzilishi |
| C) so'z turkumlari | D) A,B,C |

2. Shahrimizda go'za l binolar ko'p.

Ushbu gapdagi go'zal so'zining grammatik ma'nosi qaysi qatorda ifodalangan?

- | | |
|--------------------|----------------------|
| A) predmet belgisi | B) sifat |
| C) aniqlovchi | D) B va C javoblarda |

3. So'zning lug'aviy ma'nosi deganda, nima tushuniladi?

- | | |
|--------------------------------|-----------------------|
| A) so'z anglatgan asosiy ma'no | B) ko'chma ma'nosi |
| S) grammatik shakli | D) sintaktik vazifasi |

4. Morfema

- | | |
|--|--------------------------------|
| A) morfologik ko'rsatkichlardir | B) so'z bo'g'inlaridan biridir |
| S) so'zning bo'linmas eng kichik qismi | |
| D) grammatik ma'no hosil qiluvchi qo'shimcha | |

5. So'zlarning turkumlarga ajratishda

- | |
|---|
| A) lug'aviy ma'nolari, morfologik xususiyatlari hisobga olinadi |
| B) sintaktik vazifalari hisobga olinadi. |
| C) lug'aviy ma'nolari hisobga olinadi. |
| D) A va B |

6. Mustaqil va yordamchi so'zlarning farqi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang?

- | |
|---|
| A) mustaqil so'zlar ham lug'aviy, ham grammatik ma'noga, yordamchi so'zlar esa faqat grammatik ma'noga ega bo'ladi. |
| B) mustaqil va yordamchi so'zlar gap bo'lagi vazifasida kela oladi. |
| C) mustaqil so'zlar sintaktik vazifa bajara oladi, yordamchi so'zlar esa bajara olmaydi. |
| D) A va C javoblari |

7. Gap bo'lagi vazifasida kela oladigan so'z turkumlarini aniqlang.

- | |
|---|
| A) ot, sifat, ko'makchi, ravish, fe'l |
| B) bog'lovchi, yuklama, undov va taqlid so'zlar |
| C) ot, sifat, son, olmosh, yuklama |
| D) fe'l, ravish, son, olmosh, ot, sifat |

8. Qaysi so'zlar lug'aviy ma'noga ega bo'ladi.

- A) faqat mustaqil so'zlar
- B) mustaqil va yordamchi so'zlar
- C) mustaqil so'zlar, undov va taqlid so'zlar
- D) tildagi barcha so'zlar

9. Faqat predmetning xil-xususiyatini bildirgan sifatlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) mukammal, xushfe'l, to'g'ri, kichik
- B) katta, yirik, buyuk, ulkan, gigant
- C) suluv, chiroyli, go'zal, barno, shirin
- D) kamtar, saxiy, xushxulq, olijanob

10 Sifat turkumiga oid so'zlar qatorini aniqlang.

- A) tuzoq, taroq, qo'rqoq, siniq
- B) tarqoq, tiniq, siniq, buzuq
- C) kurak, tuvak, elak, suvak
- D) mehribon, vafodor, tole'

11.Oddiy darajadagi sifatni aniqlang.

- A) xushfe'l, go'zal, oppoq
- B) ko'rkam, suluv, barno, ochiq
- C) ko'm-ko'k, yam-yashil, sap-sariq
- D) kattaroq, shirinroq, go'zalroq

12. Orttirma darajadagi sifat qaysi qatorda berilgan?

- A) bebeho, so'lg'in, eng ko'rkam B) yap-yangi, oppoq, ko'kimtir
- C) eng go'zal, g'oyatda chiroyli D) sarg'intir, sap-sariq

13. Qaysi atama songa xos emas?

- A) yasama B) qo'shma
- C) juft D) tart

14. Sonlarni qaysi so'z turkumlaridan yasash mumkin?

- A) faqat sonlardan B) ot va sifatdan
- C) fe'ldan D) sonlar yasalmaydi

15.Qaysi gapda arab raqamlari ishlatilgan?

- A) Mahmud Qoshg'ariy XI asrda yashagan
- B) Sen bironvga birni bersang, boshqa senga mingni beradi.
- C) 1999 yil Ayollar yili deb e'lon qilindi.
- D) Ikkinchi qavatga ko'tarilsangiz, biznikiga chiqqan bo'lasiz.

16. Sonlarga xos atamalar qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) egalik, kelishik, son, turlanish
- B) tuslanish, zamon, nisbat, mayl
- C) son, atoqli, turdosh, daraja
- D) sanoq, chama, tartib, dona sonlar

17. Qaysi hukm (fikir) xato?

A) Ot, sifat, son, ravish o'rnida qo'llanuvchi va otga xos bo'lgan barcha grammatik xususiyatlariga ega bo'lgan so'zlar olmoshdir.

- B) Ayrim so'z turkumlari morfologik yoki sintaktik yo'l bilan yasalishi mumkin.
- C) Olmoshlar yasovchi qo'shimchalarni qabul qilib, fe'lga aylanishi mumkin.
- D) Olmoshlar alohida lug'aviy ma'noni ifodalamaydi.

18. Olmosh gapda

- A) Faqat ega va kesim vazifasida kelishi mumkin.
- B) Undalma vazifasida kelishi mumkin.
- C) Faqat ikkinchi darajali bo'laklar vazifasida kelishi mumkin.
- D) Barcha gap bo'laklari vazifasida kelishi mumkin.

19. Qaysi qatordagi atamalar barcha mustaqil turkumlarga xos

- A) sodda, qo'shma B) kelishik, egalik
C) nisbat, mayl D) tub, yasama

20. Fe'llar asosan qaysi gap bo'lagi vazifasini bajaradi?

- A) ega B) kesim
C) to'ldiruvchi D) aniqllovchi

21. Bahor keldi seni so'roqlab. Ushbu gapdagi fe'lning sintaktik vazifasi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) ega B) kesim
C) to'ldiruvchi D) aniqllovchi

22. Qaysi qatorda bo'lishlilik ma'nosi ifodalangan?

- A) aytib ketma B) aytmay ketma
C) aytma ketmay D) aytma, ketma

23. O'timli fe'llar berilgan qatorni toping.

- A) yuzlarini artirdi B) nondan oling
C) artindi D) A va B

24. O'timli fe'llar asosan qaysi kelishikdagi so'zlar bilan birikadi?

- A) qaratqich B) tushum
C) jo'nalish D) o'rin-payt

25. Betma-bet, ochiqdan-ochiq, ko'pincha so'zlari qaysi turkumlarga xos?

- A) ot B) sifat
C) ravish D) sifat va ravish

26. Ravishlar gapda asosan qaysi gap bo'lagi vazifasini bajaradi?

- A) kesim B) hol
C) ega D) aniqllovchi

27. Ko'makchilar qanday ma'no munosabatlarini ifodalaydi?

- A) maqsad va sabab
B) vaqt va makon
C) vosita
D) barcha javoblar to'g'ri

28. Qaratqich kelishigidagi so'zlarga qaysi ko'makchilar birikadi?

- A) ko'ra, yarasha
B) tomon, kabi
C) orqali, bilan
D) bilan, uchun

29. He, qo'ysang-chi, Karim, bu bosh og'rig'ingni. Ushbu gapdagi qo'llangan he so'zi ma'nosiga ko'ra qanday so'z hisoblanadi:

- A) taqlid so'zlar B) undov so'zlar
C) modal so'zlar D) buyruq fe'li

30. 1.Undov so'zlar 2. Taqlid so'zlar 3. Modal so'zlar. Ushbu so'zlardan qaysilari juft va takror holda qo'llanilishi mumkin?

- A) faqat 1 B) faqat 2
C) faqat 3 D) 1,2,3

31. Qaysi qatordagi so'z bugungi kunda kunga morfemalarga ajralmaydi?

- A) to'shak
B) yumshoq
C) qo'rqqoq
D) yurak

32. Qaysi qatordagi so'zlar morfemalarga ajraladi?

- A) ichak, xo'rak
B) yurdi, bordi
C) qishloq, qorovul
D) tashqari, ichkari

33. Uzumchilikni so'zi tarkibidagi so'z yasovchi qo'shimchalar ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

- A) -chi, -lik
- B) -chilik
- C) -chi, -lik, -ni
- D) -chi, -chilik

34. Qaysi so'z tarkibida uchta so'z yasovchi qo'shimcha mavjud?

- A) etikdo'z
- B) ishlarimiz
- C) terimchilik
- D) ko'pchilik

35. Faqat mavhum otlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) bino, osmon, er, zilzila
- B) inqilob, bayram, un, suv
- C) sevgi, quvonch, baxt, ozodlik
- D) go'zallik, muhabbat, mashina

36. Jamlovchi otlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) daftar, daraxt, uy
- B) guruh, aholi, armiya
- C) bola, qalam, kitob
- D) gul, maysa, deraza

37. Faqat birlikda qo'llaniladigan otlar qatorini aniqlang.

- A) jurnal, gazeta, suv
- B) non, tuz, gul
- C) dala, sut, kitob, gaz
- D) un, shakar, guruch

38. III shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasini olgan otlarni ko'rsating.

- A) do'stim, onam
- B) otasi, akasi
- C) vataning, yurti
- D) mustaqilligimiz, istiqlolimiz

39. Xato yozilgan juft sifatlarni toping.

- A) kattayu-kichik
- B) achchiq-chuchuk
- C) yaxshi-yomon
- D) to'kin-sochin

40. Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar berilgan qatorni toping.

- A) -ma, -qoq, -g'oq, -gir, -g'in
- B) -q, -iq, -uq, -kir, -qur
- C) -li, -siz, -simon, -chan
- D) A va B

41. Sifat qot ko'rinishidagi qo'shma sifatni toping.

- A) kamquvvat
- B) hozirjavob
- C) xushfe'l
- D) bodomqovoq

42. Otlashgan sifatlar qanday qo'shimchani qabul qilmaydi?

- A) ko'plik
- B) egalik
- C) so'z yasovchi
- D) Barcha qo'shimchalarni qabul qiladi.

43. Sonlar gapda ko'proq qaysi gap bo'lagi bo'lib kelishi mumkin?

- A) aniqlovchi
- B) undalma

C) faqat to'ldiruvchi

D) faqat hol

44.-ov,-ala, qo'shimchalari qo'shilsa, qaysi sonlar o'zagidagi tovush tushadi?

A) bir, ikki

B) uch, to'rt

C) ikki, etti

D) besh, olti

45.Jamlovchi sonlarni hosil qiluvchi qo'shimchalar qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A) -ta, tadan, -ala

B) -ov, -nchi,-inchi

C)-ta, ovlon,-ala

D) -ov, -ala,-ovlon

46.Qaysi qatorda taqsim son hosil qiluvchi qo'shimcha berilgan?

A) -ov,-alla

B) -ta

C) -tacha,

D) -tadan

47.Olmoshlar gapda

A) Ot turkumiga xos bo'lgan egalik yoki kelishik qo'shimchalarini qabul qilishi mumkin.

B) sifatga xos daraja qo'shimchalarini olishi mumkin.

C) songa xos-ta, -tacha,-larcha qo'shimchasini olish mumkin.

D) fe'lga xos tuslovchi qo'shimchalarini olish mumkin

48.Kelajakni yaratuvchi sizlarsiz. Ushbu gapdagi olmoshning sintaktik vazifasi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

A) ega

B) kesim

C) to'ldiruvchi

D) aniqlovchi

49.O'timsiz fe'llarni hosil qiluvchi qo'shimchalar berilgan qatorni ko'rsating.

A) -sh, -ish,-tir,-kaz

B) -la, -ay,-a,-i

C) -n,-in,-l,-il

D) -giz, -kiz,-sat,-t

50.Fe'l nisbatlari qaysi javobda to'liq va to'g'ri ko'rsatilgan?

A) o'zlik, aniq, orttirma nisbat

B) o'zlik,majhul, aniq birgalik va orttirma nisbatlar

C) aniq, o'zlik, bo'lishlilik,bo'lishsizlik nisbatlari

D) shart, istak, o'zlik, orttirma nisbatlar

FOYDALANILADIGAN DARSLIK VA O'QUV QO'LLANMALAR

1. U.Tursunov, J.Muxtorov. SH.Raxmatullaev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. "O'zbekiston", 1992 .
2. K.Safaev, R.Yunusov. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari(Morfologiya).Toshkent, 2000 .
3. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X.G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Morfemika. So'z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001
4. Rahimova S, Umurqulov V. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. "Moliya", 2003
5. O'zbek tili grammatikasi. I tom Morfologiya T. "Fan", 1975
6. Sh.Rahmatullaev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent. "Univetsitet". 2006